



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI

FISKAL STRATEGIYA 2027-2029



Mundarija

Qisqartmalar	3
Jadvallar	4
Diagrammalar	5
Kirish	7
Qisqacha sharh	8
I. Makroiqtisodiy va fiskal siyosat	11
1.1. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari	13
1.2. Soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari	17
1.3. Budget siyosatining asosiy yo'nalishlari	22
1.4. DXSh loyihalari bo'yicha fiskal majburiyatlarni tartibga solish	33
1.5. Budget taqchilligini mo'tadil darajada saqlash	35
1.6. Davlat qarzini samarali boshqarish	37
II. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari	41
2.1. Joriy makroiqtisodiy holat va 2026-yil yakuniga qadar kutilmalar	41
2.2. Jahon iqtisodiyotidagi asosiy tendensiyalar	44
2.3. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari	47
III. Budget prognozlari	51
3.1. Daromadlar prognozlari va tahlillari	54
3.2. Xarajatlar prognozlari va tahlili	56
3.3. Mahalliy budgetlar daromadlari va xarajatlarining prognozlari	74
3.4. Davlat maqsadli jamg'armalari hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining prognozlari	76
3.5. Budgetdan tashqari jamg'armalar tahlili	80
3.6. Depozitlar, budget ssudalari va kredit liniyalari	81
3.7. Yangilangan prognozlarning tasdiqlangan parametrlardan farqi	82
IV. Davlat qarzi prognozlari va maqsadli ko'rsatkichlari.	85
V. Makro-fiskal xatarlar bahosi	88
5.1. Makroiqtisodiy va fiskal xatarlar	88
5.2. Davlat-xususiy sherikchilik loyihalarining tahlili	94
5.3. Davlat korxonalari va banklarining moliyaviy holati va transformatsiya jarayonlari	108
VI. Davlat moliyasi tizimini isloh qilish rejalari	133
Asosiy tushunchalar	152

Ilovalar:

- 1-ilova:** Birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarga respublika budjetidan ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari.
- 2-ilova:** Davlat maqsadli jamg'armalariga ajratiladigan transfertlarning cheklangan miqdorlari.
- 3-ilova:** O'zbekiston Respublikasi respublika budjeti va mahalliy budjetlar o'rtasidagi transfertlarning cheklangan miqdorlari
- 4-ilova:** Respublika budjeti xarajatlarining vazifa tasnifi bo'yicha tahlili
- 5-ilova:** Davlat budjeti xarajatlarining atrof-muhitga ta'sirini inobatga olgan holda BRMM va vazifalarida asosiy va qo'shimcha hissalarining o'zaro bog'liqligi to'g'risida ma'lumot
- 6-ilova:** Davlat budjeti xarajatlarining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlaridagi iqlim o'zgarishining BRMM va vazifalar kesimidagi taqsimlanishi
- 7-ilova:** Davlat budjeti xarajatlarining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlaridagi suv va dengiz resurslaridan barqaror foydalanish hamda ularni muhofaza qilishning BRMM va vazifalar kesimidagi taqsimlanishi
- 8-ilova:** Davlat budjeti xarajatlarining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlaridagi aylanma iqtisodiyotga o'tishning BRMM va vazifalar kesimidagi taqsimlanishi
- 9-ilova:** Davlat budjeti xarajatlarining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlaridagi aylanma iqtisodiyotga o'tishning BRMM va vazifalar kesimidagi taqsimlanishi
- 10-ilova:** Davlat budjeti xarajatlarining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlaridagi biologik xilma-xillik va ekotizimlarni muhofaza qilish hamda tiklashning BRMM va vazifalar kesimidagi taqsimlanishi
- 11-ilova:** 2025–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasining 2025-yilgi ijrosi

Qisqartmalar

BMTTD	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi
BRM	Barqaror rivojlanish maqsadlari
BRMM	Barqaror rivojlanish milliy maqsadlari
DIB	Davlat investitsiyalarini boshqarish
DMBAT	Davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimi
DMJ	Davlat maqsadli jamg'armalari
DXSh	Davlat-xususiy sheriklik
YeTTB	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki
GFS	Government Finance Statistics (Davlat moliyasi statistikasi)
JST	Jahon savdo tashkiloti
MDH	Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi
MTT	Maktabgacha ta'lim tashkiloti
OTB	Osiyo taraqqiyot banki
QQS	Qo'shilgan qiymat solig'i
TTJ	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
XVJ	Xalqaro valyuta jamg'armasi
XMI	Xalqaro moliya instituti
YIM	Yalpi ichki mahsulot

Jadvallar

1-jadval. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar	41
2-jadval. Asosiy savdo hamkor mamlakatlarda iqtisodiy o'sish prognozlari	45
3-jadval. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari	48
4-jadval. 2026–2027-yillar uchun yangilangan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlarning 2026-yil uchun Davlat budjeti to'g'risidagi Qonunda belgilangan prognozlardan farqi	50
5-jadval. Konsolidatsiyalashgan budjet parametrlari prognozi	52
6-jadval. Davlat budjeti daromadlari	54
7-jadval. Davlat budjeti xarajatlarining vazifa tasnifi bo'yicha tahlili	58
8-jadval. Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi	60
9-jadval. Davlat dasturlari va tadbirlar bo'yicha jami xarajatlar	61
10-jadval. Xarajatlarning iqtisodiy tasnif bo'yicha yoyilmasi	62
11-jadval. 2027–2029-yillar uchun ayrim vazirlik va idoralarning budjet dasturlarining dastlabki ro'yxati	65
12-jadval. Davlat budjeti xarajatlarining "yashil" budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash natijalari	71
13-jadval. Atrof-muhitga ijobiy ta'sirga ega xarajatlar	72
14-jadval. Pensiya tizimi ko'rsatkichlari	78
15-jadval. 2026–2027-yillar uchun yangilangan prognozlarning 2026-yil uchun Davlat budjeti to'g'risidagi Qonunda belgilangan prognozlardan farqi	82
16-jadval. DXSh portfeli ko'rsatkichlari	94
17-jadval. Sohalar kesimida DXSh loyihalari tahlili	95
18-jadval. Energetika loyihalari, stansiya turlari bo'yicha tahlil	96
19-jadval. Hududlar kesimida DXSh loyihalari	97
20-jadval. Hududlar kesimidagi energetika loyihalari	97
21-jadval. 2025-yilda davlat budjetidan DXSh loyihalari doirasida amalga oshirilgan to'lovlar	98
22-jadval. 2026–2029-yillarda DXSh loyihalari doirasida davlat budjetidan amalga oshiriladigan to'lovlar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari	99
23-jadval. DXSh loyihalari doirasida davlat ishtirokidagi korxonalarning to'lovlari bo'yicha ma'lumot	99
24-jadval. Ishga tushirilgan DXSh tamoyilidagi energetika loyihalari	99
25-jadval. Muddatidan oldin bekor bo'lgan DXSh loyihalari to'g'risida ma'lumot	103
26-jadval. Moliyaviy ko'rsatkichlari tahlil qilingan yirik davlat korxonalari ro'yxati	108
27-jadval. Yirik davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlari	109
28-jadval. Davlat ishtirokidagi korxonalarning fiskal xatar ko'rsatkichlari	114
29-jadval. 2025-yilda davlat ishtirokidagi korxonalarning tarmoqlar bo'yicha moliyaviy hamda leveraj ko'rsatkichlari	118
30-jadval. Xalqaro kredit reytingiga ega davlat ishtirokidagi korxonalar	124
31-jadval. Davlat banklari jami balans ko'rsatkichlari	125
32-jadval. Davlat banklari kapitalining o'zgarishi	128
33-jadval. Muammoli kreditlarning banklar kesimidagi tahlili	130
34-jadval. Xalqaro kredit reytingga ega davlat ishtirokidagi banklar	132

Diagrammalar

1-diagramma. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning milliy prognozlari	10
2-diagramma. Kuzatilmaydigan iqtisodiyot dinamikasi va prognozi	18
3-diagramma. Budget subsidiyalari	29
4-diagramma. O'zbekiston Respublikasi suveren xalqaro obligatsiyalarining ikkilamchi bozordagi kotirovkalari	39
5-diagramma. XVJning global iqtisodiy kutilmalari	44
6-diagramma. Global inflyatsiya	45
7-diagramma. Oziq-ovqat narxlari indeksi	45
8-diagramma. Iqtisodiyot tarmoqlarining YIM o'sishidagi hisyasi	49
9-diagramma. Aholi jon boshiga YIM	49
10-diagramma. Konsolidatsiyalashgan budget tarkibi	51
11-diagramma. Budget taqchilligi	53
12-diagramma. Soliq turlarining jami daromadlardagi ulushi	55
13-diagramma. Davlat budjeti xarajatlari tarkibi	57
14-diagramma. Ijtimoiy soha xarajatlari tarkibi	59
15-diagramma. Ta'lim xarajatlari tarkibi	59
16-diagramma. Iqtisodiyot sohasi yirik xarajatlari	59
17-diagramma. Iqtisodiy tasnif bo'yicha 2027-yilgi xarajatlar ulushi	63
18-diagramma. BRMMni amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan mablag'lar tahlili	69
19-diagramma. DMJ va TTJ budjetlarining prognozlari	77
20-diagramma. Pensiya jamg'armasi moliyaviy ko'rsatkichlari	78
21-diagramma. Pensiya jamg'armasi jami tushumlari	78
22-diagramma. Budget tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari	80
23-diagramma. 2027-yilda budget tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari manbalari ulushi	80
24-diagramma. O'zbekiston Respublikasining davlat qarzi dinamikasi	85
25-diagramma. Davlat tashqi va ichki qarzi	86
26-diagramma. O'zbekiston Respublikasining davlat tashqi qarzi tarmoqlar kesimida	86
27-diagramma. Davlat qarzining valyutadagi ulushi, 2026-yil 1-yanvar holatiga	87
28-diagramma. Yaqin Sharq mamlakatlariga eksport hajmi	89
29-diagramma. Yaqin Sharq mamlakatlariga eksport tarkibi	89
30-diagramma. Yaqin sharq mamlakatlaridan import hajmi	89
31-diagramma. Yaqin sharq mamlakatlaridan import tarkibi	89
32-diagramma. Eron orqali eksport	90
33-diagramma. Eron orqali import	90
34-diagramma. Neft (Brent markali) narxi	91
35-diagramma. Oziq ovqat va mineral o'g'it narxlari	91
36-diagramma. Muqobil ssenariyning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri	93
37-diagramma. DXSh loyihalari hududlar kesimida	96
38-diagramma. DXSh tamoyilidagi loyihalar doirasidagi to'lovlarning sohalar kesimidagi prognoz ko'rsatkichlari	100
39-diagramma. DXSh loyihalari doirasidagi to'g'ridan-to'g'ri majburiyatlarning YIM va davlat budjeti daromadlari prognoz ko'rsatkichlariga nisbati	100
40-diagramma. Bitimlarni muddatidan oldin bekor qilish holatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kompensatsiyaning maksimal miqdori	101
41-diagramma. DXSh bitimlari doirasidagi jami to'g'ridan-to'g'ri va shartli majburiyatlar va uning YIM prognoz ko'rsatkichlariga nisbati	102
42-diagramma. 2025-yilda imzolangan loyihalar soni va qiymati	104
43-diagramma. Inflyatsiya ssenariylarining DXSh to'lovlarga ta'siri	105
44-diagramma. To'g'ridan-to'g'ri majburiyatlarning ssenariylar bo'yicha tahlillari	106

45-diagramma. Energetika sohasidagi DXSh loyihalarining ssenariylar bo'yicha tahlillari.....	107
46-diagramma. Moliyaviy holati baholanib boriladigan yirik davlat ishtirokidagi korxonalar soni, tarmoqlar kesimida.....	109
47-diagramma. Korxonalarning moliyaviy holati.....	109
48-diagramma. Davlat korxonalarining to'g'ridan-to'g'ri tashqi qarzi va ularga taqdim etilgan davlat kafolati.....	110
49-diagramma. 2026–2030-yillar davomidagi to'g'ridan-to'g'ri tashqi qarz qoldig'i hamda to'lovlari	111
50-diagramma. 2026–2030-yillardagi to'g'ridan-to'g'ri tashqi qarz qoldiqlarining YIMga nisbati prognozlarini	112
51-diagramma. 2026–2030-yillardagi to'g'ridan-to'g'ri tashqi qarz qoldiqlarining YIMga nisbati prognozlarini	113
52-diagramma. Davlat ishtirokidagi korxonalarning likvidlik ko'rsatkichlari.....	115
53-diagramma. Davlat ishtirokidagi korxonalarning to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari	116
54-diagramma. Davlat ishtirokidagi korxonalarning daromadlik ko'rsatkichlari.....	118
55-diagramma. 2025-yilda davlat ishtirokidagi korxonalarning leveraj ko'rsatkichi	119
56-diagramma. Sanoat sohasidagi davlat ishtirokidagi korxonalarning leveraj ko'rsatkichlari.....	119
57-diagramma. Transport, aloqa va kommunikatsiya sohalaridagi davlat ishtirokidagi korxonalarning leveraj ko'rsatkichlari	120
58-diagramma. Energetika va neft-gaz sohasidagi davlat ishtirokidagi korxonalarning leveraj ko'rsatkichlari.....	121
59-diagramma. Davlat banklari jami balansi.....	126
60-diagramma. Davlat banklarining sof foydasi va uning o'rtacha aktivlarga nisbati (ROA)	126
61-diagramma. Davlat banklari kapitali va uning aktivlarga nisbati	127
62-diagramma. Kreditlarning depozitlarga nisbati: davlat banklari va bank tizimi.....	128
63-diagramma. Davlat banklarining muammoli kreditlari	129
64-diagramma. Muammoli kreditlar ulushi banklar kesimida: 2024 va 2025-yil oxiri	129
65-diagramma. Davlat banklarining bank tizimidagi ulushi.....	131
66-diagramma. Davlat banklari tomonidan jalb qilingan kafolatlanmagan tashqi qarz hajmi.....	131
67-diagramma. Deputatlar tashabbusi va sheriklik asosida qayd etilgan natijalar.	136
68-diagramma. Deputat tashabbusi amaliyoti.....	137

Kirish

Fiskal strategiya Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasining budget kodeksi, "O'zbekiston-2030" strategiyasi hamda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirishga oid strategik hujjatlar asosida ishlab chiqildi.

Fiskal strategiyani ishlab chiqishdan maqsad uzoq muddatli makroiqtisodiy va fiskal barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan o'rta muddatli makroiqtisodiy hamda soliq-budget siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilashdan iborat.

"O'zbekiston-2030" strategiyasida konsolidatsiyalashgan budget taqchilligini YIMga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik belgilab qo'yilgan. Bunda 2026-yildan boshlab taqchillikni hisoblash tartibi takomillashtirilib, taqchillik konsolidatsiyalashgan budget hamda Davlat budgeti va DMJ hisobidan ajratiladigan depozitlar, budget ssudalari va kredit liniyalari, shuningdek ularning qaytarilishi o'rtasidagi farqni o'z ichiga olgan jamlanma balans – umumiy fiskal balans ko'rinishida hisoblanmoqda.

Fiskal strategiyada asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, Davlat budgeti va DMJ daromadlarining 2027-yil uchun dastlabki prognozlari hamda 2028–2029-yillar uchun mo'ljallari, shuningdek umumiy fiskal taqchillikning YIMga nisbatan 3 foizlik chegarasidan kelib chiqqan holda 2027–2029-yillar uchun quyidagilarning cheklangan miqdorlari belgilanmoqda:

- birinchi darajali budget mablag'larini taqsimlovchilarga respublika budgetidan ajratiladigan budget mablag'lari, shu jumladan kapital qo'yilmalar;
- mahalliy budgetlar va DMJga ajratiladigan transfertlar.

Ushbu cheklangan miqdorlar 2027–2029-yillar uchun budget so'rovlarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Bunda cheklangan miqdorlarga Davlat budgeti to'g'risidagi Qonun loyihasini ishlab chiqish jarayonida o'rta muddatli makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning aniqlashtirilgan prognozlaridan kelib chiqqan holda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Qisqacha sharh

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, 2027–2029-yillarga mo'ljallangan Fiskal strategiyada makroiqtisodiy va soliq-budjet barqarorligini ta'minlash orqali aholi farovonligini oshirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar belgilanmoqda.

Bunda "O'zbekiston–2030" strategiyasiga muvofiq mamlakat iqtisodiyotini 2030-yilga kelib 240 mlrd AQSh dollaridan oshirish uchun o'rta muddatda iqtisodiy o'sishning barqaror manbalarini shakllantirish, xususiyl investitsiyalar va eksport hajmini kengaytirish, ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish choralari aks ettirilgan.

Shu bilan birga, inflyatsiya darajasini 2027-yildan boshlab 5 foiz atrofida barqarorlashtirish, budjet taqchilligini belgilangan fiskal qoidalar doirasida saqlash, davlat qarzini YIMga nisbati 40 foizdan oshirmaslik bo'yicha **milliy strategiyamizda belgilangan maqsadlarga erishish** nazarda tutilmoqda.

Jahon iqtisodiyotidagi yuqori noaniqlik sharoitida yuqorida belgilanayotgan maqsadlarga erishish uchun davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish, budjet daromadlari bazasini kengaytirish, xarajatlardan samarali va manzilli foydalanish, o'rta muddatli budjetlashtirish va fiskal xatarlarni boshqarish tizimini kuchaytirishga qaratilgan fiskal siyosat yuritiladi.

XVJning joriy yil aprel oyidagi hisobotiga¹ ko'ra, geosiyosiy keskinliklar va ularning global bozorlarga ta'siri xalqaro savdo tizimini qayta shakllantirib, jahon iqtisodiyotida noaniqlikni kuchaytirmoqda.

Buning natijasida jahon iqtisodiyotining o'sishi 2026-yil yakuni bo'yicha 2025-yilgi 3,4 foizdan 3,1 foizgacha pasayishi hamda 2027-yilda 3,2 foizni tashkil etishi *(XVJning 2026-yil yanvardagi hisobotida² 2026–2027-yillarda o'sish prognozi mos ravishda 3,3 foiz va 3,2 foiz) prognoz qilingan.*

Shuningdek, jahon energiya ta'minotidagi tebranishlar natijasida inflyatsiya bosimining kuchayishi sababli 2026-yilda global inflyatsiya 2025-yilgi 4,1 foizdan 4,4 foizgacha oshishi kutilmoqda.

Milliy prognozlarga ko'ra, davom etayotgan murakkab geosiyosiy va tashqi iqtisodiy vaziyat, shuningdek rivojlangan davlatlar savdo siyosatidagi o'zgaruvchanlik saqlanib qolayotganiga qaramasdan, yil boshidan mamlakatimizda kuzatilayotgan yuqori iqtisodiy faollik, amalga oshirilayotgan islohotlar qisqa va o'rta muddatli davrda yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun asos bo'lmoqda.

¹ <https://www.imf.org/en/publications/weo/issues/2026/04/14/world-economic-outlook-april-2026>

² <https://www.imf.org/en/publications/weo/issues/2026/01/19/world-economic-outlook-update-january-2026>


Xususan, iqtisodiy o'sish 2026-yilda 8,1 foiz, 2027-yilda 6,9 foiz, 2028-yilda 7,1 foiz, 2029-yilda 7,4 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Bunda, **sanoat mahsulotlari** ishlab chiqarish 2027–2029-yillarda 6,7-7,9 foiz, **bozor xizmatlarining** esa 14,3-15 foiz atrofida o'sishi iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlari bo'lishi kutilmoqda. Shu bilan birga ushbu davrda **qishloq xo'jaligida** o'sish sur'ati **5 foiz** atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda.

Mazkur iqtisodiy o'sish prognozlariga erishishda mamlakatda qulay investitsion muhit yaratish, soliq ma'murchiligini yaxshilash, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va samarasiz soliq imtiyozlarini bekor qilish orqali soliq bazasini oshirish, o'rta muddatda budjet taqchilligini YIMga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik va davlat qarzini mo'tadil darajada saqlash bo'yicha barcha choralar amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, jahon iqtisodiyotidagi keskin o'zgarishlar, tashqi va ichki xatarlarning mamlakatimiz makroiqtisodiy va budjet barqarorligiga ta'sirini o'z vaqtida baholash hamda ularning salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida makroiqtisodiy xatarlar, davlat shartli majburiyatlari va DXSh loyihalari doirasida fiskal majburiyatlar doimiy o'rganilib boriladi. Tahlillar asosida tegishli choralar ishlab chiqiladi va e'lon qilib boriladi.

Davlat moliyasi tizimini yanada takomillashtirish maqsadida o'rta muddatli budjetni shakllantirish jarayonlarini takomillashtirish, dasturiy budjetlashtirish tizimi qamrovini oshirish hamda budjetni tuzish va ijro etish jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish ishlari davom ettiriladi. Shu bilan birga, budjet jarayonini raqamlashtirish, uning ochiqligi va shaffofligini oshirish hamda parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ishlari amalga oshiriladi.

1-diagramma. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning milliy prognozlari

I. Makroiqtisodiy va fiskal siyosat

Makroiqtisodiy va fiskal siyosatning asosiy maqsadlari mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat moliyasining muvozanatini saqlash va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan. Buning uchun YIMning yillik o'sishini 7 foiz atrofida ta'minlash, mamlakatning suveren kredit reytingini investitsion darajagacha ko'tarish hamda aholi daromadlarini ko'paytirish orqali O'zbekistonni o'rta daromadli mamlakatlarning yuqori guruhiga olib chiqish nazarda tutiladi.

Shuningdek, umumiy fiskal taqchillik YIMga nisbatan 3 foizdan oshmagan miqdorda ta'minlanadi va taqchillikni moliyalashtirish uchun jalb qilinadigan davlat qarzining yillik limitlariga amal qilinadi. Ushbu choralar orqali davlat qarzi barqarorligi ta'minlanadi.

Daromadlar bazasini kengaytirish va soliq siyosatini takomillashtirish doirasida naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini oshirish, iqtisodiyotda tovarlar harakati shaffofligini ta'minlash hamda yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga e'tibor qaratiladi.

Samarasiz soliq va bojxona imtiyozlarini bekor qilish choralari ko'rish orqali barcha tadbirkorlar uchun sog'lom raqobat muhitini yaratish ishlari davom ettiriladi. Shuningdek, atrof-muhit va aholi salomatligini muhofaza qilish maqsadida yashil soliqqa tortish mexanizmlari joriy etiladi, soliq siyosatining inklyuzivligi oshiriladi, islom moliyasi uchun alohida soliqqa tortish tartiblari bosqichma-bosqich joriy qilinadi. Soliq ma'murchiligini takomillashtirish, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish, aholi va tadbirkorlar o'rtasida soliq to'lash madaniyatini rivojlantirish hamda soliq va bojxona siyosatini JST talablariga uyg'unlashtirish ham ushbu yo'nalishning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Budjet xarajatlarining samaradorligini oshirish va budjet intizomini kuchaytirish maqsadida "Dasturiy budjetlashtirish" amaliyoti bosqichma-bosqich joriy etiladi. Bunda budjet mablag'lari ajratilishida erishilgan natija va samaradorlik asosiy mezon sifatida belgilanadi. Shu bilan birga, budjet jarayonining ochiqligi yanada kuchaytiriladi, budjet xarajatlarining inklyuzivligi ta'minlanadi, "gender" va "yashil" budjetlashtirish tamoyillari budjet jarayoniga integratsiya qilinadi. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda natijaga asoslangan moliyalashtirish dasturlari ishlab chiqilib, amalga oshiriladi.

Aholi farovonligini ta'minlash maqsadida budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va nafaqalari miqdori inflyatsiya darajasidan kam bo'lmagan sur'atlarda oshirib boriladi. Bu aholining real daromadlari va to'lov qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Fiskal siyosatning ijtimoiy yo'naltirilganligi saqlab qolinib, inson kapitaliga yo'naltiriladigan budget xarajatlarining ustuvorligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalarni xalqaro standartlarga muvofiq rivojlantirish bilan bir qatorda, ijtimoiy himoya tizimi takomillashtirilib, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kuchaytiriladi.

Davlat qarzini samarali boshqarish maqsadida davlat qarzi portfeli diversifikatsiya qilinib, valyuta xatarlarini kamaytirish choralari ko'riladi. Davlat qarzini boshqarish strategiyasi doirasida tashqi va ichki qarzlar o'rtasidagi maqbul muvozanat hamda davlat qarzining mo'tadil darajasi saqlanadi. Bu esa mamlakatda qarz yuki ortib ketishining oldini olishga va uzoq muddatli budget barqarorligini saqlashga xizmat qiladi.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun Hukumat tomonidan o'rta muddatda amalga oshirilishi rejalashtirilgan makroiqtisodiy, soliq va budget siyosati yo'nalishlari hamda chora-tadbirlari belgilab olindi.

1.1. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari

2027–2029-yillarda yuqori va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashda quyidagi **asosiy yo'nalishlarda islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar** amalga oshirilishi inobatga olingan. Jumladan:

Birinchi, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash iqtisodiy o'sishning asosiy sharti sifatida ustuvor yo'nalish bo'lib qoladi. Bunda:

- inflyatsiya darajasini 2026-yilda 6,5 foiz, 2027-yildan esa 5 foizlik target doirasida shakllantirish;

- fiskal qoidalarga qat'iy amal qilish, shuningdek soliq ma'murchiligini yaxshilash, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish va samarasiz soliq imtiyozlarini bekor qilish hamda Davlat budjeti xarajatlarining natijadorligini oshirish orqali budjet taqchilligini mo'tadil darajada saqlash;

- davlat qarzi va shartli majburiyatlarni samarali boshqarish maqsadida yangi imzolanadigan qarz bitimlari hamda DXSh loyihalari bo'yicha belgilangan limitlarga qat'iy amal qilish choralari ko'riladi.

Ikkinchi, sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatli va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish orqali 2027–2029-yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'rtacha yillik o'sish sur'atlarini 6,5–7 foizdan kam bo'lmagan darajada ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Xususan:

- “Navoiy KMK”da keyingi uch yilda umumiy qiymati 1,2 mlrd AQSh dollarlik 5 ta yirik loyiha, “Olmaliq KMK”da esa 2,5 mlrd AQSh dollarlik 4 ta yirik loyiha amalga oshirish orqali **metallurgiya** sanoatida ishlab chiqarish quvvatlari oshiriladi;

- **avtomobilsozlikda** yengil avtomobillar ishlab chiqarish hajmini **1,5 barobarga** oshirib, **700 ming** donaga yetkazish choralari ko'riladi;

- **elektrotexnika sanoatida** qiymati 3,3 mlrd AQSh dollarlik 121 ta yangi yuqori texnologik ishlab chiqarish quvvati tashkil etiladi. Natijada, misni qayta ishlash hajmi 1,3 barobarga oshib, 145 ming tonnadan oshiriladi hamda jami elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,4 barobarga oshib sohada qo'shilgan qiymat ulushi 21 foizdan 30 foizga yetkaziladi;

- **elektr energetikasida** 11,7 GVt qo'shimcha quvvatlar, shu jumladan 2 GVt quyosh, 5,4 GVt shamol elektr stansiyalari, 3,7 GVt zamonaviy issiqlik elektr stansiyalari va 560 MVt elektr energiyasini saqlash tizimlarini ishga tushirish hisobiga 2028-yilga borib elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini 108,5 mlrd kVt soatga yetkazish ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek hududlar solishtirma ustunligidan kelib chiqib, sanoat zonalarida va texnologik parklarda yangi turdagi yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish, mavjud quvvatlarni kengaytirish va chuqur qayta ishlashga qaratilgan sanoat loyihalari, shuningdek talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirishga qaratilgan loyihalar amalga oshiriladi.

Uchinchi, xizmatlar sohasini rivojlantirishda yuqori bilim va texnologiyaga asoslangan sohalarni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, IT-outsourcing, fintex, elektron savdo, turizm, ta'lim, tibbiyot va transport-logistika xizmatlarini kengaytirish orqali xizmatlar sohasining iqtisodiy o'sishdagi ulushi oshiriladi.

Turizm xizmatlarini rivojlantirish doirasida xorijiy turistlar sonini 2030-yilga qadar kamida 20 mln nafarga yetkazish maqsadida joylashtirish vositasi tashkil etish, hududlarga nufuzli xorijiy mehmonxona brendlarini jalb qilish, yangi ovqatlanish, savdo va servis obyektlarini ishga tushirish loyihalari amalga oshiriladi.

To'rtinchi, suv resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish davom ettiriladi. Jumladan:

- yer va suv resurslaridan samarali foydalanish tizimlarini joriy qilish, xususan, agroekologik monitoring va raqamli suv nazorati platformalarini joriy qilish, suv tejovchi texnologiyalardan ommaviy foydalanish kabi suv sarfini qisqartirishga doir izchil chora-tadbirlar;

- iqlim o'zgarishiga mos dehqonchilik yo'nalishlarini rivojlantirishni keng joriy etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

- **fazoviy milliy ma'lumotlar** infratuzilmasini yaratish hamda sun'iy intellekt orqali **“aqli bog'dorchilik”** tizimini joriy etish;

- degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash, mahallalarning ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda yuqori daromadli va eksportbop mahsulotlar yetishtirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash;

- sohada agrosanoat klasterlari va kooperatsiya tizimini keng joriy qilish va texnologik o'zgarishlarni o'zlashtirish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash salohiyatini oshirish va zanjirni mustahkamlash tadbirlari amalga oshiriladi.

Beshinchi, fazoviy-hududiy rejalashtirish (spatial planning) tamoyillari asosida hududlarni kompleks rivojlantirish, ularning iqtisodiy ixtisoslashuvi va infratuzilma ehtiyojlarini inobatga olgan holda o'sish manbalarini kengaytirish choralari ko'riladi.

Bunda Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar bo'yicha fazoviy-hududiy strategiya hamda pilot sifatida "Yangi O'zbekiston" maqomidagi 33 ta tuman va shaharlar bo'yicha fazoviy-hududiy rejalarni ishlab chiqishga nufuzli xorijiy shaharsozlik kompaniyalari jalb etilmoqda.

Bu hududlarning iqtisodiy imkoniyatlaridan to'liqroq foydalanish, infratuzilmaga yo'naltirilayotgan mablag'lar samaradorligini oshirish hamda hududiy rivojlanish loyihalarini aniq ustuvorliklar asosida shakllantirishga xizmat qiladi.

Oltinchi, mamlakat hududlari va qo'shni davlatlar bilan o'zaro bog'liqlikni (connectivity) kuchaytirish, ichki bozor integratsiyasini chuqurlashtirish hamda eksport va turizm salohiyatini kengaytirishga qaratilgan yirik infratuzilma loyihalari amalga oshiriladi.

Bunda avtomobil yo'llari sohasida "Toshkent-Samarqand" va "Toshkent-Andijon" yo'nalishlarida pulli avtomobil yo'llarini qurish, XMilar mablag'lari hisobidan xalqaro avtomagistral yo'llarni ta'mirlash va barpo etish loyihalari amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, mavjud yo'llarning o'tkazuvchanlik qobiliyati va xavfsizligini oshirish bo'yicha kompleks choralar ko'riladi.

Temir yo'l transporti sohasida "O'zbekiston-Qirg'iziston-Xitoy" va "O'zbekiston-Afg'oniston-Pokiston" xalqaro temir yo'l loyihalarida ishtirok etish, "Nukus-Miskin-Urganch-Buxoro" yangi tezyurar temir yo'l liniyasini ishga tushirish, shuningdek Toshkent shahrini Yangiyo'l, Chinoz, Sirdaryo va Guliston shaharlari bilan bog'lovchi shaharlararo tezyurar poyezdlar qatnovini yo'lga qo'yish choralari amalga oshiriladi.

Shuningdek "Qumqo'rg'on-Quduqli" temir yo'l liniyasi elektrlashtirilib, Surxondaryo viloyatining bir qator tumanlarini Termiz shahri bilan tezkor temir yo'l orqali bog'lash imkoniyati yaratiladi.

Aeroportlar va havo transporti infratuzilmasini rivojlantirish doirasida Toshkent yangi aeroporti, shuningdek Urganch, Buxoro va Namangan xalqaro aeroportlarini DXSh asosida qurish va xususiy boshqaruvga berish bo'yicha loyihalar amalga oshiriladi.

Shaharlarda mahalliy va jamoat transporti infratuzilmasini yaxshilash maqsadida avtobuslar uchun alohida yo'laklar tashkil etish, avtobus parklarini kengaytirish va jamoat transportini moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etish choralari ko'riladi.

Yettinchi, davlat ishtirokidagi korxonalarni va banklarni isloh qilish, xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish va raqobat muhitini yaxshilash orqali iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish choralari ko‘riladi.

Bunda davlat aktivlarini xususiy sektorga o‘tkazish, tovar va xizmatlar bozorlarida davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish, shuningdek JST talablari va raqobat tamoyillaridan kelib chiqib, eksklyuziv huquqlar va imtiyozlarni bekor qilish choralari davom ettiriladi.

Shu bilan birga, DXSh asosida ko‘p tarmoqli shifoxonalarni qurish va xususiy operatorlar boshqaruviga berish orqali ijtimoiy sohalarda ham xususiy sektor ishtiroki kengaytiriladi.

Sakkizinchi, tadbirkorlikni rivojlantirish va biznes muhitini yaxshilash iqtisodiy o‘rishning muhim omili sifatida qo‘llab-quvvatlanadi.

Bunda tadbirkorlik faoliyatini litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini raqamlashtirish orqali ma‘muriy yuk kamaytiriladi, kichik va o‘rta biznes subyektlarining yiriklashuvi rag‘batlantiriladi hamda mahsulot ishlab chiqarishda milliy va xalqaro standartlarga rioya etish tizimi kuchaytiriladi.

Kichik va o‘rta biznesning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida mikromoliyalash, lizing, raqamli bank xizmatlari va islom moliyasi instrumentlaridan foydalanish imkoniyatlari oshiriladi.

Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlariga sifatli konsalting xizmatlarini ko‘rsatish, biznes boshqaruvi, kasbiy tayyorgarlik va raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan infratuzilma takomillashtiriladi.

Hududlarda mahalliy xomashyo va butlovchi mahsulotlardan samarali foydalanish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va tarmoqlararo klasterlarni qo‘llab-quvvatlash orqali kichik va o‘rta biznesning ishlab chiqarish zanjirlaridagi ishtiroki oshiriladi.

Shuningdek startaplar va innovatsion ishlanmalarni rivojlantirish uchun venchur moliyalashtirish, kraudfanding, inkubatsiya va akseleratsiya dasturlari hamda startap studiyalar infratuzilmasi kengaytiriladi.

1.2. Soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ular uchun teng sharoit va adolatli raqobat muhitini ta'minlash, shuningdek yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, qo'shilgan qiymat solig'ining uzluksiz zanjirini yaratish, aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash, soliq tizimini JST talablariga muvofiqlashtirish, "yashil soliqqa tortish" tamoyillari asosida soliq tizimini takomillashtirish, soliq tizimining adolatlilik tamoyillari asosida yuritilishini hamda budget daromadlarining barqarorligini ta'minlash soliq siyosatining o'rta muddatdagi asosiy yo'nalishlari sifatida saqlab qolinadi.

Xususan, quyidagi yo'nalishlarda soliq siyosati va ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha choralar ko'riladi:

1) Daromaddan olinadigan soliqlar bo'yicha:

- foyda solig'ida ayrim chiqimlar bo'yicha xarajatlarni chegirish tartibini, shuningdek joriy soliq davrining foydasini ko'rilgan zararlar hisobiga kamaytirish tartibini takomillashtirish;

- foyda solig'i va daromad solig'i bo'yicha taqdim etilgan ayrim imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish;

- yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi qarz operatsiyalariga soliq solishni bir xillashtirish;

2) QQS zanjirining yaxlitligini va uzluksizligini ta'minlash:

- QQS zanjirining uzluksizligini ta'minlash uchun QQS bo'yicha taqdim etilgan imtiyozlarni optimallashtirish ishlarini davom ettirish;

- QQSni qaytarish mexanizmlarini takomillashtirish;

3) Aksiz solig'ini takomillashtirish va atrof muhitni asrashni rag'batlantirish:

- aksiz solig'ini hisoblash tartibini takomillashtirish va aksiz solig'i stavkalarini inflyatsiya darajasini inobatga olgan holda oshirib borish;

- "yashil soliqqa tortish" tamoyillari va elementlarini ishlab chiqish;

4) Resurslardan oqilona foydalanish maqsadida resurs solig'i stavkalarini qayta ko'rib chiqish:

- ko'chmas mulkni ommaviy baholash natijasida aniqlangan bozor bahosiga nisbatan soliq solish tizimini takomillashtirish va uning adolatlilikini ta'minlash;

- resurs soliqlari va mol-mulk solig'i stavkalarini inflyatsiya darajasini inobatga olgan holda oshirib borish;

5) Soliq tizimida adolatli, shaffof va barqaror muhit yaratish maqsadida soliq imtiyozlarini qayta ko'rib chiqish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish:

- xalqaro tashkilotlar hamkorligida “soliq xarajati”ni baholash bo'yicha metodologiya ishlab chiqish;
- imtiyozlardan foydalanishda majburiy qo'llaniladigan shartlarni ishlab chiqish;

6) Tashqi savdo operatsiyalarini tartibga soluvchi boj tarif siyosatini takomillashtirish:

- bojxona boji stavkalarini belgilash hamda bojxona boji bo'yicha imtiyozlarni taqdim etish tartibini takomillashtirish.

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirishning asosiy yo'nalishlari


Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bugungi kunda respublika iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda naqd pulsiz hisob-kitoblarni kengaytirish, raqamlashtirish va xavflarni aniqlashga qaratilgan manzilli yondashuvlar joriy etilmoqda.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, kuzatilmaydigan iqtisodiyot darajasi 2019-yilgi YIMning 50 foizidan 2025-yilga kelib 25 foiz atrofiga kamaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrda PF-246-son Farmonida 2030-yilgacha kuzatilmaydigan iqtisodiyotning YIMdagi ulushini 1,3 barobarga qisqartirish, savdo va xizmatlarda aholining naqd pulsiz to'lovlari ulushini 75 foizga yetkazish hamda rasmiy bandlikni kengaytirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan.

2-diagramma. Kuzatilmaydigan iqtisodiyot dinamikasi va prognozi



Kuzatilmaydigan iqtisodiyot, jumladan yashirin iqtisodiyot hajmini hududlar va sohalar kesimida baholash metodologiyasini ilg'or xalqaro standartlar asosida ishlab chiqish va takomillashtirish, mazkur metodologiya negizida baholash ishlarini tashkil etish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushini yanada qisqartirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1) Rasmiy faoliyat yuritish uchun sharoit yaratish:

faoliyatni amalga oshirish uchun qulay va soddalashtirilgan shart-sharoitlar yaratish orqali tadbirkorlik subyektlari va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni iqtisodiyotning norasmiy sektoridan rasmiy sektorga o'tishini rag'batlantirish;

soliq solishning soddalashtirilgan rejimidan umumiy rejimga o'tish uchun shart-sharoitlarni kengaytirish, tadbirkorlik subyektlarining yiriklashishi uchun to'siqlarni qisqartirish;

faoliyatni kengaytirish va jozibadorlikni oshirish uchun buxgalterlar va soliq maslahatchilarini jalb qilish bo'yicha qo'shimcha yengilliklar berish; intizomli soliq to'lovchilarga nazoratni kamaytirish;

aholi va tadbirkorlarda soliq to'lash madaniyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularga qonuniy faoliyat yuritishning afzalliklarini yetkazish orqali soliq to'lash madaniyatini yanada oshirish;

2) Soliq va bojxona ma'murchiligini raqamlashtirish:

soliq va bojxona organlari tomonidan taqdim etiladigan raqamli xizmatlar hamda davlat organlari tomonidan soliq to'lovchilarga ko'rsatiladigan boshqa xizmatlarni kengaytirish;

davlat organlari va tashkilotlari bilan integratsiyani kengaytirish orqali elektron hisobvara-q-fakturalar, onlayn nazorat kassa mashinalari cheklari, raqamli markirovka va boshqa ma'lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni oshirish;

naqd pulli hisob-kitoblar darajasi yuqori va kuzatuvchanlik yetarli bo'lmagan sektorlarga alohida e'tibor qaratish (*chakana savdo, umumiy ovqatlanish, qurilish, ko'chmas mulk ijarasi, qishloq xo'jaligi, yo'lovchi va yuk tashish*);

biznesni sun'iy ravishda bo'lish, aylanmani yashirish va soliqlardan qochishning boshqa sxemalari, norasmiy bandlikning oldini olish va ularga qarshi kurashish;

hududlarning soliq salohiyatini va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligini baholash tizimini yaratish;

3) Naqd pulsiz to'lovlardan foydalanishni rag'batlantirish orqali ularni kengaytirish:

bank kartalari, QR-to'lovlar, mobil pul o'tkazmalari va elektron to'lov tizimlaridan foydalanishda qo'shimcha rag'batlantirishni joriy etish orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirish;

marketpleyslarni rivojlantirishni rag'batlantirish, ulardagi sotuvchilarga qo'yiladigan talablarni joriy etish, shuningdek elektron to'lovlarni qo'llashni kengaytirish va soliqqa tortish tizimini takomillashtirish;

aholi uchun naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirishda, ayniqsa aylanmalar yashirilishi xavfi yuqori bo'lgan sohalarda yangi rag'batlarni joriy etish;

4) Bandlikni rasmiylashtirish:

mehnat qonunchiligini yanada takomillashtirish, xodimlarni ishga qabul qilish, boshqa ishga o'tkazish va ular bilan mehnat munosabatlarini bekor qilish tartib-taomillarini soddalashtirish;

rasmiy ishga joylashish uchun rag'batlarni, shu jumladan rasman band bo'lganlarga kreditlar, ipoteka, ijtimoiy to'lovlar va mehnat muhofazasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

xodimlarni ixtiyoriy ravishda legallashtirishda ish beruvchilar uchun qo'shimcha rag'batlantirish choralari joriy etish;

norasmiy bandlarni, ayniqsa, qurilish, savdo, umumiy ovqatlanish, qishloq xo'jaligi, transport kabi sohalarda aniqlash uchun tahlil va monitoring o'tkazish;

5) Tavakkalchilikka yo'naltirilgan nazorat:

mo'ljallanayotgan xarajatlar va kutilayotgan natijalar nisbati asosida faoliyat yo'nalishlarini ustuvorlashtirishni nazarda tutgan holda mavjud resurslardan, shu jumladan inson resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish. Bunda e'tibor bir vaqtning o'zida qonunbuzarlik ehtimoli va budjetning potensial yo'qotishlari yuqori bo'lgan sektorlarga qaratiladi;

soliq qonunchiligiga ixtiyoriy rioya qilish, soliqqa oid xatoliklarni oldini olish va resurslarni eng kam sarflagan holda iqtisodiy faollikning muhim ulushini qamrab olish darajasini oshirish;

ilgari hisobga olinmagan xo'jalik faoliyatini aniqlash, hisobga olish va rasmiy iqtisodiy aylanmaga jalb etish yo'li bilan soliq solinadigan bazani kengaytirish;

xalqaro "TADAT"³ metodologiyasi asosida soliq nazorati jarayonlarini qayta ko'rib chiqish va raqamlashtirish;

soliq-bojxona ma'murchiligini yuqori daromadli mamlakatlar tajribalari asosida takomillashtirib borish.

3 Soliq ma'muriyati holatini diagnostik baholash vositasi (Tax Administration Diagnostic Assessment Tool).

1.3. Budget siyosatining asosiy yo'nalishlari

Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash

“O'zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash, jumladan aholining real daromadlarini oshirish, ishsizlik darajasini pasaytirish, yashash sharoitlarini yaxshilash hamda ehtiyojmand aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini kuchaytirish vazifalari belgilangan.

Aholi farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning manzilliligini kuchaytirish, inson kapitalini rivojlantirish hamda aholining iqtisodiy faolligini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirish nazarda tutiladi.

Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimining manzilliligini oshirishda aholini tadbirkorlikka jalb etish, ularning bandligini ta'minlash, ishsizlarni kasbga o'rgatish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarga huquqiy, ijtimoiy va moddiy yordam ko'rsatishga alohida e'tibor qaratiladi.

2026-yildan boshlab “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” va “Kambag'al oilalar reyestri” negizida yagona Ijtimoiy reyestr yuritilishi yo'lga qo'yildi. Mazkur reyestr “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimi orqali shakllantirilib, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etiladigan oilalarni aniqlash hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholash jarayonlari avtomatlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi.

Ijtimoiy reyestrda oilalar ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib, “davlat ta'minotidagi oila”, “kambag'al oila” va “kambag'allik chegarasidagi oila” toifalariga ajratiladi.

Davlat ta'minotidagi oilalarga tijorat banklari orqali oilaning mehnatga layoqatli a'zolarining bandligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki kengaytirish uchun ajratilgan kreditlarning foiz to'lovlari Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida qoplanadi. Shuningdek, ushbu oilalarga quyosh panellarini o'rnatish uchun subsidiyalar ajratib boriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning rasmiy bandligini ta'minlash va ularga barqaror daromad manbaini yaratishga qaratilgan “Teng imkon – inklyuziv bandlik” dasturi doirasida nogironligi bo'lgan shaxslar bandligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xomashyo, jihozlar, asbob-uskunalar va boshqa mehnat qurollari xarid qilish, internet xizmatlaridan foydalanish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki kengaytirish uchun ssudalar ajratiladi.

Energiya resurslari narxlari liberallasuvi sharoitida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlab boriladi.

Bundan tashqari, budget tashkilotlarida va xususiy sektorda ishlovchi barcha xotin-qizlar uchun homiladorlik va tug'ish nafaqasi Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi hisobidan to'lab beriladi.

O'zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida 18 va undan katta yoshdagi chuqur darajadagi aqliy zaiflik tashxisi qo'yilgan shaxslarning parvarishi bilan band bo'lgan qonuniy vakilga har oyda parvarishlash nafaqasini to'lash bo'yicha **yangi moliyaviy qo'llab-quvvatlash** joriy etilmoqda.

Aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni izchil davom ettirish, kelgusi yillarda ko'p qavatli uy-joylar qurilishini, jumladan, **"Yangi O'zbekiston"** massivlarini **demografik** va **urbanizatsiya** jarayonlari bilan **uzviy bog'liq** holda kompleks qurilish tamoyillari asosida amalga oshirish, ipoteka krediti bozorini yanada rivojlantirish hamda tijorat banklari tomonidan ajratiladigan ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish ishlari davom ettiriladi.

Kelgusi yildan boshlab ko'p kvartirali uylardagi xonadonlarni sotib olish uchun subsidiya ajratiladigan fuqarolarning tegishli mezonlarga muvofiqligini baholash jarayoni yanada takomillashtirilib, **sun'iy intellekt texnologiyalari imkoniyatlaridan** foydalangan holda Iqtisodiyot va moliya vazirligining **"subsidiya.idm.uz"** dasturiy ta'minot tizimi orqali to'liq avtomatlashtirilgan tarzda, **inson omilisiz amalga** oshirilishi rejalashtirilmoqda.

Bundan tashqari, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, bunda ularni uy-joy bilan ta'minlash maqsadlari uchun budget mablag'lari ajratib boriladi.

Yuqoridagi chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida aholining doimiy daromadi va xarid qobiliyati oshirib boriladi hamda milliy strategiyada belgilangan maqsadlarga, jumladan, 2030-yilgacha **mutlaq kambag'allikka barham berish** hamda **ishsizlik darajasini 4 foizgacha pasaytirish** imkoniyatlari kuchaytiriladi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari aholini doimiy davlat yordamiga qaram qilib qo'yish emas, balki ularning iqtisodiy faolligini oshirish, mehnat bozoriga integratsiya qilish va mustaqil daromad manbaini shakllantirishga yo'naltiriladi.

Umuman olganda, budget siyosatida aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ijtimoiy himoya tizimining manzilliligi va samaradorligini oshirish, aholining mehnat faolligini rag'batlantirish hamda inson kapitalini rivojlantirish orqali inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Maktabgacha va maktab ta'limi

Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida budget mablag'lari, birinchi navbatda, qamrovni oshirish, ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish va infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltiriladi. Xususan, milliy strategiyada belgilangan vazifalardan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini 2030-yilda 80 foizga yetkazish choralari amalga oshiriladi.

Bunda oilaviy va DXSh asosida tashkil qilinadigan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun budgetdan ajratiladigan subsidiya mablag'lari ajratib boriladi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bir nafar tarbiyalanuvchini bir kunlik sog'lom ovqatlantirish tannarxini belgilash mexanizmi hamda ota-onalar badal to'lovi miqdorlari qayta ko'rib chiqiladi.

2027-yildan boshlab davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar qatnovini "Face-ID" texnologiyasi orqali to'liq raqamlashtirish hisobiga oziq-ovqat xarajatlarining maqsadliligi va nazoratini kuchaytirish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, umumiy o'rta ta'lim sohasida qo'shimcha o'quv o'rinlarini yaratish hamda maktablarning navbatlilik koeffitsiyentini bosqichma-bosqich pasaytirish uchun zarur mablag'lar yo'naltiriladi. Bunda Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari doirasida yangi umumta'lim maktablarini qurish va mavjudlarining sig'imini oshirish tadbirlariga ustuvorlik beriladi.

Maktab ta'limi sohasida DXSh asosida yangi loyihalarni amalga oshirish, shuningdek XMI va grantlar mablag'larini jalb qilish hamda xususiy sektor ulushini oshirish choralari ko'riladi.

Maktablarda ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida darsliklar bilan ta'minlash, ma'nan eskirgan kompyuter sinflarini yangilash, zamonaviy o'qitish texnologiyalari bilan jihozlash ishlari davom ettiriladi.

Shu bilan birga, umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari, shuningdek alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar, maktab-internatlar hamda ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlarining namunaviy shtat jadvallari takomillashtiriladi.

Shuningdek, tuman va shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari xodimlarining ish haqi miqdorlari oshirilganligini inobatga olgan holda ushbu bo'limlar huzuridagi Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarini rag'batlantirish jamg'armasidan foydalanish jarayoni takomillashtiriladi.

Oliy va o'rta-maxsus ta'lim

Kasbiy ta'lim sohasida birinchi navbatda, ta'lim qamrovini kengaytirish, yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasblarga tayyorlash, ularning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga ustuvorlik beriladi.

Bunda 2030-yilga qadar 9-sinf bitiruvchilarining kasbiy ta'lim bilan qamrovini amaldagi 29 foizdan 50 foizgacha oshirish maqsad qilingan.

Buning uchun kasbiy ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy o'quv-amaliy jihozlar bilan ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish hamda pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun Davlat budjetidan yetarlicha mablag'lar ajratilib boriladi.

Shu bilan birga, kasbiy ta'lim tizimida mehnat bozori ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlashni kuchaytirish maqsadida xalqaro va qo'shma ta'lim dasturlarini joriy etish choralari ko'riladi.

2026/2027 o'quv yilidan boshlab dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchilarni moliyaviy rag'batlantirish maqsadida bazaviy hisoblash miqdoriga teng bo'lgan stipendiya to'lovlari joriy etiladi.

Sohaga ajratilayotgan budjet mablag'lari samaradorligi va manzilliligini ta'minlash maqsadida kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilar va pedagog xodimlar hisobini elektron shaklda yuritish hamda ularning ta'lim jarayonidagi ishtirokini elektron platforma orqali qayd etish tizimi joriy etiladi.

Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish va akademik hamkorlikni kengaytirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish davom ettiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litsey bitiruvchilarining oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 2030-yilga qadar amaldagi 45 foizdan kamida 50 foiz darajasiga yetkazish choralari ko'riladi. Bunda oliy ta'lim tizimida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, ta'lim krediti uchun resurslar ajratish hamda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar izchil davom ettiriladi.

Shuningdek, davlat oliy ta'lim muassasalari magistratura bosqichida to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlar kontrakt to'lovlarini budjet hisobidan qoplab berish orqali ular ulushini 30 foizgacha oshirish choralari ko'riladi.

Shu bilan birga, talabalar uchun munosib ijtimoiy va yashash sharoitlarini yaratish maqsadida DXSh tamoyillari asosida talabalar turar joylarini barpo etish va rekonstruksiya qilish ishlari davom ettiriladi.

Sog'liqni saqlash

Sog'liqni saqlash sohasida budjet mablag'lari aholiga kafolatlangan tibbiy yordamni moliyaviy ta'minlash, profilaktika va barvaqt tashxislashni kuchaytirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun tibbiy xizmatlar sifatini oshirish hamda og'ir va davolash qiyin bo'lgan kasalliklar bo'yicha ixtisoslashtirilgan yordamni kengaytirishga yo'naltiriladi.

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini kuchaytirish maqsadida xalqaro tajribaga asoslangan yangi xizmat ko'rsatish modeli bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Ushbu model doirasida aholiga tibbiy yordam ko'rsatishda oilaviy shifokorlar ulushini 70 foizga yetkazish, laborator tekshiruvlar hajmini kengaytirish hamda birlamchi tibbiy-sanitariya yordamidan aholi roziligi darajasini oshirishga qaratilgan choralar moliyaviy ta'minlanadi.

Shu bilan birga, sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish hamda tibbiyotda qog'ozbozlikni kamaytirish orqali tibbiyot xodimlarining ish yuklamasini 30 foizgacha kamaytirish va samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari asosida moddiy rag'batlantirish choralari ko'riladi.

Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini respublikaning barcha hududlarida tatbiq etish orqali kafolatlangan tibbiy xizmatlar paketi, bunda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarini **aholi jon boshiga**, statsionar tibbiy xizmatlarni esa **davolangan holat** bo'yicha moliyalashtirish amaliyoti bosqichma-bosqich kengaytiriladi.

Bunda **Jahon banki** va **Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi ekspertlarini** jalb qilgan holda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatini moliyalashtirish tartibi hamda kafolatlangan paketda ko'zda tutilgan tibbiy xizmatlar ro'yxati qayta ko'rib chiqiladi.

Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishda **nodavlat tibbiyot muassasalari** ulushi bosqichma-bosqich oshirib boriladi. Bunda nodavlat tibbiyot muassasalariga davlat tibbiy sug'urtasi hamda litsenziya doirasida Davlat budjeti mablag'lari hisobidan tibbiy xizmat ko'rsatishga ruxsat beriladi.

Aholiga profilaktik ko'riklar, skrining tekshiruvlari, diagnostika, laborator tahlillar, shuningdek zarur dori vositalari va tibbiy buyumlar **kafolatlangan paket** doirasida bepul taqdim etilishini moliyalashtirish davom ettiriladi.

Ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni moliyalashtirishda **og'ir, surunkali va davolash qiyin bo'lgan kasalliklarga chalingan** bemorlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, **gematologiya, transfuziologiya, onkogematologiya, orfan va irsiy kasalliklar** bo'yicha bemorlarni zarur dori vositalari, diagnostika va davolash xizmatlari bilan qamrab olish, kam uchraydigan kasalliklarga chalingan bolalarni maxsus oziq-ovqatlar va tibbiy jihozlar bilan ta'minlash choralari davom ettiriladi.

Shuningdek, saraton kasalliklarining oldini olish, barvaqt aniqlash va davolash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari davom ettiriladi. Bunda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va xalqaro ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan saratonga qarshi kurashish bo'yicha Milliy dastur doirasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishga mablag'lar ajratilib boriladi.

Qon bilan ishlash xizmati muassasalarining barqaror faoliyatini ta'minlash, qon komponentlari zaxirasini shakllantirish uchun zarur gemokonteynerlar bilan ta'minlash ishlarini, shuningdek **yurak-qon tomir kasalliklarining** oldini olish va davolash sifatini oshirish maqsadida "Infarkt va insultga qarshi kurashish" milliy dasturida nazarda tutilgan tadbirlari moliyalashtirib boriladi.

Madaniyat va sport

Madaniyat sohasida moliyalashtirish samaradorligini oshirish, davlat buyurtmalari bo'yicha xarajatlarning shaffofligi va hisobdorligini kuchaytirish hamda sohada bozor mexanizmlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Jumladan, davlat buyurtmasi asosida tashkil etiladigan ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlari bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida tadbir ssenariysiga muvofiq har bir xizmat va ish turining narxi, umumiy qiymati hamda yillar davomida o'tkazilgan tadbirlar bo'yicha ma'lumotlarni aks ettiradigan yagona elektron platforma yaratilib, "UzASBO-2" tizimi bilan integratsiya qilish choralari ko'riladi.

Shuningdek, moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari va ularga tutash hududlardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida ijara jarayonlarini to'liq raqamlashtirish nazarda tutilgan.

Mazkur yo'nalishda moddiy madaniy meros obyektlaridan doimiy yoki vaqtincha foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalarni hisobga olish, ijaraga berilgan maydonlar, debitor va kreditor qarzdorliklar hamda joriy to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yuritish uchun yagona elektron platforma joriy etiladi.

Shu bilan birga, sport sohasida raqamlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish maqsadida sport maktablari trenerlariga beriladigan toifalarni “UzASBO-2” dasturiy majmuasiga “ERP-Sport” yagona elektron boshqaruv tizimi orqali integratsiya qilish ishlari yakunlanadi.

Bundan tashqari, sport obyektlaridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida ularni tadbirkorlarga DXSh asosida boshqaruvga berish amaliyoti kengaytiriladi.

Sohada budjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash doirasida sport turlari bo'yicha mahorat maktablari faoliyati qayta ko'rib chiqilib, samaradorligi past bo'lgan ayrim muassasalar faoliyati optimallashtiriladi. Shuningdek, hududlarda tashkil etilgan sport maktablarini birlashtirish orqali boshqaruv xodimlari shtat birliklarini maqbullashtirish choralari ko'riladi.

Paralimpiya sport turlarini qo'llab-quvvatlash doirasida xalqaro qoidalarga muvofiq sportchilar bilan birga ishtirok etadigan “yetaklovchi” (guide, tapper, pilot, coxswain) shaxslarning o'quv-yig'in mashg'ulotlari, respublika va xalqaro musobaqalardagi transport hamda yashash xarajatlarini qoplab berish, shuningdek ularning mehnatiga haq to'lash tizimi qayta ko'rib chiqiladi.

Budjet subsidiyalari

Budjet subsidiyalari inson kapitalini rivojlantirish, yoshlar va xotin-qizlarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, muhtoj aholining uy-joy xarid qilish uchun imkoniyatlarini oshirish, arzon energiya resurslari hamda jamoat transporti xizmatlaridan foydalanish va boshqa ijtimoiy maqsadlar uchun ajratiladi.

Shu bilan birga, iqtisodiy yo'nalishdagi subsidiyalar aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlik faolligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, shuningdek qishloq va suv xo'jaligi sohalarida suv tejovchi jihozlar bilan ta'minlash chora-tadbirlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi.

2024-yildan boshlab energetika sohasida amalga oshirilayotgan tarif islohotlari natijasida ushbu yo'nalishdagi subsidiyalar miqdori bosqichma-bosqich qisqarishiga erishilmoqda.

Jumladan, aholiga tabiiy gazni past tariflarda yetkazib berish natijasida korxonalarda yuzaga kelgan zararni qoplash uchun ajratilgan subsidiyalar 2023-yilgi 18 trln so'mdan 2026-yilda 5,9 trln so'mgacha pasaygan bo'lsa, 2027-yilda 5 trln so'm rejalashtirilmoqda.


O'rta muddatda yoqilg'i-energetika sohasida **tarif islohotini** bozor mexanizmlari tamoyili asosida davom ettirish orqali mazkur **subsidialar bosqichma-bosqich bekor qilinadi**.

Bunda mazkur subsidialarni qisqartirish natijasida bo'shagan mablag'lar ehtiyojmand aholini davlat tomonidan manzilli qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy sohani rivojlantirish maqsadlariga yo'naltiriladi.

Shu bilan birga, budjet subsidialarining ijtimoiy ahamiyati va iqtisodiy natijadorligini baholash amaliyoti kuchaytirilib, samarasiz subsidialarni bosqichma-bosqich optimallashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Davlat budjetidan 2027-yilda 30,1 trln so'm miqdorda subsidialar ajratilishi rejalashtirilmoqda. Bunda subsidialar miqdori 2026-yilda jami Davlat budjeti xarajatlarning 7,1 foizini tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2027-yilda 6,6 foiz, 2029-yilga kelib 5,2 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

3-diagramma. Budjet subsidialari



Zaxira jamg'armalari mablag'lari samaradorligini oshirish

Budjet kodeksiga muvofiq Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarining zaxira jamg'armalari moliya yili mobaynida iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va boshqa sohalaridagi **qo'shimcha, ko'zda tutilmagan xarajatlarni** o'z vaqtida hamda uzluksiz moliyalashtirilishini ta'minlash uchun tashkil etilishi belgilangan.

Zaxira jamg'armalari miqdorlari har yilgi Davlat budjeti to'g'risidagi Qonun bilan belgilanadi. Bunda mahalliy budjetlarning zaxira jamg'armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarning (bundan tumanlar va shaharlar budjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag'lari mustasno) kamida 1 foizi miqdorida shakllantiriladi.

2025–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasiga muvofiq zaxira jamg‘armalaridan foydalanish qoidalarini belgilash vazifasi yuklatilgan. Shuningdek, XVJ tomonidan zaxira jamg‘armalari mablag‘larining ishlatilishini boshqarishni aniq belgilovchi tartib ishlab chiqish tavsiya etilgan⁴.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Vazirlar Mahkamasi va mahalliy budjetlar zaxira jamg‘armalari mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha aniq tartib belgilanadi. Bunda zaxira jamg‘armalaridan mablag‘larni ajratishga mo‘ljallangan axborot moduli ishlab chiqiladi.

Ushbu axborot moduli orqali zaxira jamg‘armalaridan mablag‘lar ajratishni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining qarorlaridagi hisob-kitoblar shakllantiriladi hamda reyestrda hisobga olinadi.

Zaxira jamg‘armalaridan mablag‘ oluvchilar tomonidan xarajatlar smetasini shakllantirishda sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlari joriy etiladi. Bunda xarajatlar smetasining hisob-kitob yoyilmasida tovarlar (ishlar va xizmatlar) narxlari bo‘yicha ko‘rsatkichlar sun‘iy intellekt texnologiyalariga asoslangan “Narx Ai” axborot moduli orqali shakllantirilib, mazkur narxlar bo‘yicha tavsiyaviy ma’lumotlar taqdim etiladi.

Zaxira jamg‘armalaridan ajratiladigan mablag‘lar samaradorligini oshirish maqsadida jamg‘armalardan amalga oshirish mumkin bo‘lmagan xarajatlar yo‘nalishlari va mablag‘lar ajratilishining alohida shartlari aniq belgilab qo‘yiladi.

⁴ <https://www.imf.org/en/publications/cr/issues/2019/05/01/republic-of-uzbekistan-fiscal-transparency-evaluation-46845>

Davlat investitsiyalarini rivojlantirish

XVJning O'zbekistonda DIB tizimini baholash (PIMA va Climate-PIMA) hisobotlari asosida takomillashtirishni talab etuvchi qator ustuvor yo'nalishlar aniqlandi. Jumladan, strategik rejalashtirishning yagona metodologiyasini shakllantirish, investitsiya jarayonlarini tizimlashtirish, loyihalarni tanlash va baholash jarayonlarini yagona standartlar asosida tashkil etish, shuningdek shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish zarurati qayd etildi.

Shu bilan birga, davlat aktivlarini ekspluatatsiya qilish xarajatlarini baholash amaliyotini rivojlantirish, investitsiya jarayonlarini raqamlashtirish darajasini oshirish hamda markazlashtirilgan monitoring tizimini shakllantirish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rish talab etiladi.

Aniqlangan ustuvor yo'nalishlar bo'yicha XVJning tavsiyalari asosida kompleks "Harakatlar rejasi" ishlab chiqilgan va izchil institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2025–2028-yillar uchun PIM tizimini rivojlantirish bo'yicha yo'l xaritalari tasdiqlandi.

Hozirgi bosqichda investitsiya siklining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi yagona normativ-huquqiy baza shakllantirilmoqda. Ushbu yondashuv rejalashtirishdan tortib, dastlabki baholash, ustuvorligi bo'yicha tanlash, tasdiqlash, amalga oshirish va monitoring, shuningdek investitsiyadan keyingi baholash jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bunda investitsiya loyihalarining yagona portfelini shakllantirish va iqlim mezonlarini integratsiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Raqamlashtirish doirasida 2027-yildan boshlab ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturini "Kapital qo'yilmalar" axborot tizimi orqali elektron shakllantirish amaliyoti joriy etiladi. Bunda loyihalarni tanlash va baholash jarayonlarini avtomatlashtirish, investitsiya tashabbuslarining yagona bazasini shakllantirish, qaror qabul qilish jarayonlarining shaffofligini oshirish hamda davlat axborot tizimlari bilan integratsiyani kuchaytirish nazarda tutilgan.

Kelgusida XVJ bilan hamkorlikda PIM va Climate-PIM tizimini yanada rivojlantirish quyidagi ustuvor yo'nalishlarda amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda:

loyihalarni tanlash va baholash sifatini oshirish orqali xarajatlar va foyda tahlilini majburiy joriy etish, fiskal barqarorlik, iqlim va ekologik ta'sir hamda xavflarni kompleks baholash;

davlat investitsiyalarini shakllantirishda DXSh loyihalari bo'yicha fiskal xatarlarni hisobga olish mexanizmlarini takomillashtirish;

davlat aktivlarini boshqarishni rivojlantirish, yagona infratuzilma aktivlari reyestrini shakllantirish va hayotiy davriylik xarajatlarini budjetlashtirishga integratsiya qilish;

PIM sohasida kadrlar salohiyatini mustahkamlash va mutaxassislarni tayyorlash tizimini joriy etish.

Ushbu islohotlarni izchil amalga oshirish orqali davlat investitsiyalarini rejalashtirish va amalga oshirish samaradorligini oshirish, samarasiz va tugallanmagan loyihalar xavfini qisqartirish ko'zda tutilmoqda. Shu bilan birga, investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonlarining shaffofligi va hisobdorligini ta'minlash, iqlim omillarini inobatga oladigan zamonaviy DIB tizimini shakllantirish rejalashtirilgan.

1.4. DXSh loyihalari bo'yicha fiskal majburiyatlarni tartibga solish

DXSh sohasida investitsiya muhitini yanada yaxshilash va xalqaro standartlarni keng joriy etish maqsadida "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi **Qonuni loyihasi** ishlab chiqildi.

Loyihada xususiy investorlar, banklar va xalqaro moliya tashkilotlarining takliflari inobatga olinib, DXSh loyihalarining jozibadorligini oshirish, investorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish, shartnomaviy barqarorlikni ta'minlash, moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, xavf-xatarlarni boshqarish va shaffoflikni oshirishga qaratilgan normalar nazarda tutilgan.

Shuningdek loyihalarining asosiy qismi xususiy tashabbus asosidagi loyihalar bo'lgani uchun raqobatni kuchaytirish maqsadida xususiy tashabbus asosidagi loyihalarda **"Swiss Challenge" mexanizmi** orqali DXSh loyihasini tashabbus qilish imkoniyati yaratilmoqda.

"Swiss Challenge" mexanizmi – xususiy tashabbuskor tomonidan taklif etilgan loyiha bo'yicha tender jarayonida boshqa ishtirokchi tomonidan yaxshiroq taklif berilgan taqdirda, dastlabki tashabbuskorga ushbu shartlar asosida bitim tuzish imkoniyati beriladi.

DXSh sohasini hududiy darajada rivojlantirish maqsadida **mahalliy hokimliklarning vakolatlarini kengaytirish** choralari ham nazarda tutilmoqda. Xususan, qiymati **5 mln AQSh dollarigacha** bo'lgan DXSh loyihalarining (subsidiya beriladigan DXSh loyihalari bundan mustasno) konsepsiyasi, manzilli ro'yxati, tender komissiyasi tarkibi va tender natijalarini **mahalliy kengashlarda tasdiqlash** tartibini joriy etish rejalashtirilgan.

Bunda to'g'ridan-to'g'ri majburiyatlarning mahalliy budjet xarajatining 1 foizidan oshmasligi talab etiladi hamda tender komissiyasi tarkibiga Iqtisodiyot va moliya vazirligi vakili majburiy tartibda kiritiladi. Shuningdek, qiymati **5 mln AQSh dollarigacha** bo'lgan loyihalarni **"tayyor biznes-model"** (*"Ready-to-go"*) tamoyili asosida mahalliy investorlarga taklif qilish amaliyoti joriy etiladi.

Misol tariqasida, DXSh asosida istirohat bog'larni rekonstruksiya qilish, zamonaviy tematik parklar va mahalla markazlarini barpo etish.

Bundan tashqari DXSh loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish jarayonlarini standartlashtirish maqsadida qiymati **1 mln AQSh dollaridan** yuqori bo'lgan loyihalar uchun **qo'llanma** ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, loyihalarning barcha bosqichlarini raqamlashtirish maqsadida **DXSh loyihalarining elektron platformasi** tajriba-sinov tariqasida joriy etildi. Mazkur platforma 27 turdagi davlat servislari, jumladan soliq, kadastr, energetika, kommunal xizmatlar va sud tizimlari bilan **real vaqt rejimida avtomatik axborot almashinuvini** ta'minlaydi.

2027-yildan boshlab DXSh loyihalarining konsepsiyalarini tasdiqlash, loyiha baholash hujjatlarini ko'rib chiqish va davlat sherigi bilan shartnomalarni imzolash jarayonlarini mazkur platforma orqali amalga oshirish rejalashtirilgan. Shuningdek, platformada "maxsus hujjatlar to'plami", ya'ni sheriklik bitimlari va tender hujjatlarining namunaviy shakllari hamda loyihalarni amalga oshirish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar joylashtiriladi. Amaldagi DXSh loyihalarini to'liq xatlovdan o'tkazish va ularning budjetga ehtimoliy ta'sirini baholash ishlari ham ushbu tizim orqali muvofiqlashtiriladi.

Shu bilan birga, XVJning joriy yil aprel oyida mamlakatimizdagi missiyasi⁵ davomida fiskal xatarlarni yanada kamaytirish maqsadida berilgan tavsiyalaridan kelib chiqib, **DXSh bo'yicha yangi yangi imzolanadigan loyihalar bo'yicha yillik limitni qat'iylashtirish** asosiy vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Kelgusi yillarda DXSh sohasidagi siyosat davlatning uzoq muddatli fiskal barqarorligini ta'minlash, shartli majburiyatlarni cheklash, budjet xavflarini shaffof hisobga olish va davlat qarzi barqarorligi bilan uyg'unlashtirish tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

⁵ <https://www.imf.org/en/news/articles/2026/04/13/mcs041326-uzbekistan>

1.5. Budjet taqchilligini mo'tadil darajada saqlash

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘ishi uchun fiskal barqarorlikni ta’minlash va davlat moliyaviy majburiyatlarini samarali boshqarish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan joriy yilda budjet taqchilligini tasdiqlangan miqdordan oshirmagan holda o‘rta muddatda mo‘tadil darajada saqlash, davlat qarzi barqarorligini ta’minlash va budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan qat’iy fiskal siyosat davom ettiriladi.

Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi 2024-yilda YIMga nisbatan qonun bilan tasdiqlangan 4 foizdan 3,1 foizgacha, 2025-yilda esa 3 foizdan 2,1 foizgacha pasaytirilishiga (2023-yilda 4,7 foiz) erishildi. Ushbu natijalar fiskal intizomni kuchaytirish, xarajatlarni qayta ko‘rib chiqish va daromadlar bazasini kengaytirish hisobiga amalga oshirildi.

Bunda Davlat budjeti va DMJ budjetlari taqchilligi 2025-yilda 2023-yildagi YIMga nisbatan 3,7 foizdan 1,2 foizgacha pasaytirildi.

2026-yildan boshlab budjet balansini shakllantirish mexanizmi takomillashtirilib, davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun Davlat budjeti va DMJ hisobidan ajratiladigan depozitlar, ssudalar va kredit liniyalari ham umumiy hisobga olinadigan “**umumiy fiskal balans**”ni shakllantirishga o‘tildi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha taqchillikni 2026–2029-yillarda YIMga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik maqsad qilinmoqda.

Taqchillikni mo‘tadil darajada saqlash uchun 2027–2029-yillarda budjet daromadlarini oshirish mazkur Fiskal strategiyaning 1.2-bandida belgilangan soliq siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlar hisobidan ta’minlanadi.

Xarajatlar siyosatida budjet mablag‘larining manzilliligi va samaradorligini oshirish ustuvor vazifa bo‘ladi. Bunda har bir yangi xarajat yoki dastur sohaviy strategiyalar va kutilayotgan natijalar bilan bog‘langan holda baholanadi. Samarasiz deb topilgan xarajatlar va past natija beruvchi subsidiyalar bosqichma-bosqich qisqartiriladi. Shuningdek, budjet tashkilotlarining 4-guruh xarajatlari (oziq-ovqat, dori-darmon, yonilg‘i, qo‘riqlash hamda kommunal xarajatlardan tashqari) joriy yilgi miqdorlarda saqlanadi.

Uy-joy va ipoteka dasturlarida tijorat banklari hamda Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi mablag‘larining ulushi oshirib boriladi.

Pensiya jamg'armasining daromadlari bazasini kengaytirish va xarajatlari samaradorligini oshirish maqsadida davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish bo'yicha xalqaro tajribalar va tavsiyalari⁶ o'rganiladi.

O'rta muddatda davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha foiz to'lovlarini hisobga olmagan holda aniqlanadigan **birlamchi budjet taqchilligini qisqartirish choralari ko'riladi**. Birlamchi taqchillikning pasayishi davlat budjeti daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muvozanatni tiklashga, davlat qarzi barqarorligini ta'minlashga hamda qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarini cheklashga xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, mamlakatning xalqaro moliya bozorlaridagi ishonchini mustahkamlaydi va suveren reytinglar yaxshilanishi uchun zamin yaratadi.

Davlat budjeti barqarorligini ta'minlashda fiskal qoidalarga amal qilish uchun qoidalarining ishlashini kuchaytirish va uning budjet jarayonidagi rolini oshirish maqsadida Budjet kodeksiga tegishli normalar kiritiladi.

⁶ <https://www.imf.org/-/media/files/publications/cr/2024/english/1uzbea2024001-print-pdf.pdf>

1.6. Davlat qarzini samarali boshqarish

So'nggi yillarda davlat qarzini mo'tadil darajada saqlash va samarali boshqarish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan:

– O'zbekiston Respublikasining “Davlat qarzi to'g'risida”gi Qonunida Davlat qarzining eng yuqori miqdori YIMning yillik prognoz ko'rsatkichiga nisbatan 60 foizdan oshishiga yo'l qo'yilmasligi belgilandi. Bunda, Davlat qarzining miqdori YIMga nisbatan 50 foizga yetgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat qarziga belgilangan me'yorlardan oshmasligini ta'minlovchi chora-tadbirlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga kiritadi;

– 2020-yildan boshlab yangi jalb qilinadigan davlat qarzi miqdorlarini qonuniy chegaralash amaliyoti yo'lga qo'yildi;

– Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalarini va davlat qarzi portfelini diversifikatsiya qilish hamda valyuta xatarlarini boshqarish maqsadida milliy valyutada qarz jalb qilish hamda ichki moliya bozorlarini rivojlantirish choralari ko'rilmoqda.

Jumladan, yillik davlat g'aznachiligi obligatsiyalarini joylashtirish hajmi oshirib borilmoqda. 2026-yilning 1-yanvar holatiga davlat g'aznachiligi obligatsiyalari qoldig'i 49,9 trln so'mni tashkil qildi. Shuningdek, 2020–2025-yillarda 17,8 trln so'mlik milliy valyutadagi suveren xalqaro obligatsiyalar London fond birjasida joylashtirildi.

Davlat g'aznachilik obligatsiyalari bozorini rivojlantirish yo'lida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar:

– xalqaro identifikatsiya kodlarini berish orqali davlat g'aznachilik obligatsiyalarini joylashtirish amaliyoti va 1 ta identifikatsiya kodi (ISIN) doirasida benchmark obligatsiyalari chiqarilishi yo'lga qo'yildi;

– davlat g'aznachilik obligatsiyalari bozorini rivojlantirish doirasida 2022–2024-yillarda XVJning texnik ko'maklari jalb qilindi va o'rta muddatli istiqbol uchun berilgan tavsiyalari amaliyotga qo'llanilmoqda;

2025-yilning mart oyida XVJning “Majburiyatlarni boshqarish” missiyasi bilan “oldindan sotib olish” va “almashtirib berish” amaliyotlari o'rganildi.

– auksion natijalari bo'yicha hisob-kitoblar T+0, T+1 va T+2⁷ xalqaro standartlari (ICMA) asosida amalga oshirilmoqda;

⁷ T+0, T+1, T+2 – savdo kunidan so'ng hisob-kitob amalga oshiriladigan muddatlarni anglatadigan xalqaro standartlar

– davlat g'aznachilik obligatsiyalari bo'yicha foiz to'lovlarini to'lash xalqaro standartlarga mos har olti oyda amalga oshirilmoqda;

– davlat g'aznachilik obligatsiyalari bozorida likvidlikni oshirish, barqaror talabni ta'minlash va ikkilamchi bozor faoliyatini rivojlantirish maqsadida birlamchi dilerlik instituti shakllantirildi;

Bugungi kunda 9 ta bank (O'zsanoatqurilishbank, Ipak yo'li bank, Xalq banki, O'zmilliybank, Kapital bank, Asia Alliance bank, Ipoteka bank, Biznesni rivojlantirish banki va Asaka bank) birlamchi diler hisoblanadi.

– davlat g'aznachilik obligatsiyalari bozoridagi operatsiyalar to'g'risidagi axborotlar (*auksion o'tkazish bo'yicha e'lonlar, auksion natijalari va investorlar uchun zaruriy ma'lumotlar*) muntazam ravishda Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank va O'zbekiston Respublika valyuta birjasining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilib kelinmoqda;

– ichki moliya bozorida birlamchi dilerlar orqali xorijiy investorlarga sotilgan davlat g'aznachilik obligatsiyalari hajmi 2025-yilda 1,4 trln so'mga yetishi (*2024-yilda – 508 mlrd so'm*) investorlar bazasini kengaytirishga xizmat qilmoqda;

– o'rtacha tortilgan so'ndirish muddati 2023-yildagi 0,8 yildan 2025-yilda 2,4 yilgacha uzayishi natijasida joriy yilda joylashtirilgan 23,4 trln so'mlik davlat g'aznachilik obligatsiyalarini so'ndirish muddati 2028–2035-yillarga surildi;

– davlat g'aznachilik obligatsiyalarining ikkilamchi bozordagi savdosi 2025-yilda 19,2 trln so'mga yetdi va birlamchi bozorning 56 foizini tashkil qildi;

– davlat g'aznachilik obligatsiyalari bozorida o'rta va uzoq muddatli instrumentlar hajmining oshishi natijasida 2025-yilda ikkilamchi bozorda 3 yil va undan ortiq davlat g'aznachilik obligatsiyalari savdosi ulushi 63 foizga yetdi.


*Davlat korxonalari hamda banklari tomonidan xalqaro me'yorlar va talablar asosida o'z moliyaviy hisobotlarining shaffofligini ta'minlash, "Fitch", "S&P" va "Moody's" xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda xalqaro kredit reytingi olinishi natijasida 2019–2025-yillarda "O'zsanoatqurilishbank" ATB, "O'zmilliybank" AJ, "Ipoteka-bank" ATIB, "Agrobank" ATB, "UzAvto Motors" AJ, "O'zbekneftgaz" AJ va "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Navoiyuran" DK tomonidan umumiy hajmi qariyb **8 mlrd** AQSh dollarlik mablag'lar xalqaro obligatsiyalar chiqarish orqali jalb qilindi.*

Respublikada amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar hamda reyting agentliklari bilan olib borilgan tizimli ishlar natijasida 2025-yilda "Fitch" va "S&P" reyting agentliklari O'zbekiston suveren kredit reytingini 2018-yildan beri ilk marotaba "BB-"dan 1 pog'ona yuqoriga **"BB" darajasiga**, 2026-yilda "Fitch" agentligi reyting kutilmasini "barqaror"dan

“ijobiy”ga, “Moody’s” reyting agentligi esa reyting bahosini “Ba3”dan “Ba2” darajasiga oshirdi.

Mamlakatimizning **kredit reytingi** oshirilishi natijasida O‘zbekiston **suveren xalqaro obligatsiyalarining** ikkilamchi bozordagi foiz stavkalari o‘rtacha **1-1,4 foiz** atrofida pasayishi faqatgina xalqaro obligatsiyalarni hisobga olganda har yili kamida **50 mln AQSh dollari tejash** imkoniyatini yaratdi. Shuningdek, **27 ta bank va korxonalarning** reyting baholari va kutilmalari yaxshilandi.

4-diagramma. O‘zbekiston Respublikasi suveren xalqaro obligatsiyalarining ikkilamchi bozordagi kotirovkalari



Izoh: “S&P” va “Moody’s” reyting kutilmani ijobiyga va “Fitch” reytingni “BB”ga oshirgandan so‘ng.

2026-yilning 1-aprel kuni 1 mlrd AQSh doll. ekvivalentida eng yirik hajmdagi **milliy valyutadagi** suveren xalqaro obligatsiyalar jahon moliya bozorlarida tarixiy eng past foiz stavka, ya’ni **12,25 foizda** joylashtirishga erishildi.

Davlat qarzini boshqarishning 2026–2028-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi XVJ hamda Jahon banki tavsiyalari va metodologiyasi asosida ishlab chiqildi va e‘lon qilindi⁸.

XVJ tavsiyalariga asosan har chorakda davlat qarziga oid statistik ma’lumotlar⁹ Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy veb-sahifasida doimiy ravishda e‘lon qilinib kelinmoqda.

Davlat qarzini xavfsiz darajada saqlash va samarali boshqarish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan:

⁸ https://api.mf.uz/media/filestore/DMS_strategy_for_publication_19.03.2026_upd.pdf

⁹ <https://www.imv.uz/static/umumiy-jadval>

– Davlat budgetini qo'llab-quvvatlash va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlarining uzoq muddatli va imtiyozli shartlardagi kreditlari jalb qilinishini davom ettirish;

– Davlat qarzi portfelida valyuta xatarini kamaytirish va milliy valyuta ulushini oshirish, shuningdek, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish maqsadida bozor sharoitidan kelib chiqib maqbul foiz stavkalarida davlat g'aznachilik obligatsiyalarini chiqarishni oshirib borish;

– Davlat qarzini to'lashning o'rtacha muddatini uzaytirish va davlat g'aznachilik obligatsiyalari bozoriga xorijiy investorlar kirishi uchun sharoit yaratish maqsadida o'rta va uzoq muddatli davlat g'aznachilik obligatsiyalarilar ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish;

– xalqaro investorlarni davlat g'aznachilik obligatsiyalari bozoriga jalb qilish. Bunda zarur infratuzilmani shakllantirish maqsadida xalqaro investitsiya banklarini ichki bozorga jalb qilish va ularning kastodian xizmatlaridan foydalanish bo'yicha erishilgan kelishuvlarni amaliyotga tatbiq etish;

– Davlat qarzini valyutalar va manbalar bo'yicha diversifikatsiya qilish, shuningdek investorlar ko'lamini oshirish maqsadida bozor sharoitiga qarab har yili suveren xalqaro obligatsiyalar chiqarish;

– Davlat qarziga oid ma'lumotlar ochiqligini ta'minlash.

II. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari

2.1. Joriy makroiqtisodiy holat va 2026-yil yakuniga qadar kutilmalar

Global iqtisodiyotda kuzatilayotgan geosiyosiy keskinliklarga qaramasdan mamlakatimizda tarmoq, soha va hududlarda amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek joriy yil I chorak natijalarini inobatga olib, joriy yilda YIM o'sish sur'ati tasdiqlangan prognoz (*prognoz – 6,6 foiz*) ko'rsatkichidan yuqori shakllanib **8,1 foiz** atrofida bo'lishi kutilmoqda.

1-jadval. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	2025-yil ijro	2026-yil parametr	2026-yil kutilma
YIM nominal hajmi, trln so'mda	1 849,7	1 976	2 182,6
YIM o'sish sur'ati, foizda	7,7	6,6	8,1
Inflyatsiya darajasi, foizda	7,3	7	6,5
Ishsizlik darajasi, foizda	4,8	4,6	4,5
<i>Iqtisodiyot tarmoqlarining o'sish sur'atlari:</i>			
Sanoat mahsulotlari, foizda	6,8	6,4	8
Qurilish ishlari, foizda	14,2	10,2	12,4
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida ishlab chiqarish, foizda	4,4	4,2	5
Bozor xizmatlari, foizda	14,7	14,5	16,6

Yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari, tarkibiy islohotlarning davom ettirilishi, ichki talabning barqarorligi, investitsion faollikning saqlanib qolishi, shuningdek tashqi konyunkturaning ijobiy shakllanishi bilan izohlanadi.

Xususan, umumiy fiskal taqchillikning YIMga nisbati 3 foiz atrofida shakllanishi, oltinsiz eksportning 20 foizga, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 12,9 foizga oshishi, pul o'tkazmalarining 10 foiz atrofida barqarorlashishi yalpi talabni rag'batlantiruvchi asosiy omillar bo'lishi kutilmoqda.

Tarmoqlar kesimida bozor xizmatlarining 16,6 foizga o'sishi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning 8 foizga o'sishi iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlari bo'lishi kutilmoqda. Shu bilan birga, qurilish ishlari 12,4 foizga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida ishlab chiqarish 5 foizga o'sishi kutilmoqda.

Sanoat tarmog'ida yuqori o'sish sur'atlari quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 93,3 mlrd kVt soatga yetkaziladi (*shu jumladan quyosh va shamol elektr stansiyalari hisobiga 14,3 mlrd kVt soat*), shuningdek "Navoiy IES"da 650 MVt quvvatli bug'-gaz qurilmasi hamda "Talimarjon IES"da umumiy quvvati kamida 900 MVtdan bo'lgan bug'-gaz qurilmalari ishga tushiriladi;
- neft-gaz tarmog'ida geologik-texnik tadbirlar va yangi quduqlarni ishga tushirish hisobiga 25,4 mlrd metr kub tabiiy gaz qazib chiqariladi;
- metallurgiya tarmog'ida "Olmaliq KMK"da 180 ming tonna sulfat kislotasi ishlab chiqarish quvvatiga ega yangi sex ishga tushiriladi, "O'zmetkombinat"da 150 ming tonna po'lat list o'ramlari ishlab chiqariladi, "Navoiy KMK" tomonidan 122 mln tonna ma'dan hamda "Yoshlik I" koni doirasida 20 mln tonna mis ma'dani qayta ishlanadi;
- avtomobilsozlikda 2026-yil yakuniga qadar 510 ming dona yengil avtomobil ishlab chiqariladi, jumladan, "UzAuto Motors" tomonidan 396 ming dona, "BYD Uzbekistan Factory" tomonidan 40 ming dona, "Volkswagen" tomonidan 5 ming dona hamda "ADM Jizzakh" tomonidan 69 ming dona avtomobil ishlab chiqariladi.

Bozor xizmatlari sohasida yuqori o'sish savdo, turizm, transport, moliyaviy xizmatlar va hududlarda servis infratuzilmasi kengayishi hisobiga shakllanishi kutilmoqda. Jumladan:

- hududlarda turizm va xizmatlar sohasidagi loyihalarga 85 trln so'm kredit mablag'lari, chegara va anklav hududlarda servis obyektlarini tashkil etishga tijorat banklari tomonidan 1 trln so'm, shuningdek 200 ta gavjum ko'cha, 206 ta sohil bo'yi, 500 ta yo'l bo'yi va turizm salohiyati yuqori mahallalar infratuzilmasini rivojlantirishga respublika budjetidan 1,7 trln so'm yo'naltiriladi;
- savdo va servis obyektlarini tashkil etish uchun 7,7 mingta bo'sh yer maydoni, shuningdek ko'chma savdo va yengil konstruksiyali kichik savdo-servis shoxobchalari uchun 2,5 mingta yer maydoni "K-savdo" platformasi orqali auksion savdolariga chiqariladi;
- transport sohasida barqaror o'sishni ta'minlash orqali 7,6 mlrd nafar yo'lovchi (*o'sish–5 foiz*), 1,7 mlrd tonna yuk (*5,1 foiz*) hamda 70,3 mln tonna xalqaro yuk (*5,4 foiz*) tashilishi kutilmoqda. Bunda, jamoat transporti parki yangilanib, brutto-shartnoma asosidagi yo'nalishlar kengaytiriladi, 1 000 ta yuk va 50 ta yo'lovchi vagoni ishlab chiqariladi hamda metropoliten, temir yo'l va aeroport infratuzilmasini rivojlantirish loyihalari davom ettiriladi;

- 2026-yilda xorijiy sayyohlar oqimini 16 mln nafarga, turizm eksportini 5 mlrd AQSh dollariga yetkazish maqsad qilinmoqda. Buning uchun 483 ta yangi joylashtirish vositasi, shu jumladan, 86 ta mehmonxona tashkil etilib, xonalar soni 85 mingga yetkaziladi, turizm salohiyati yuqori 20 ta aholi punktiga turizm qishlog'i va mahallasi maqomi beriladi, 14 ta yangi turizm maskani bo'yicha master-rejalar ishlab chiqiladi hamda 11 ta yirik turizm loyihasi amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligida o'sish asosan ekin maydonlarini kengaytirish, hosildorlikni oshirish, chorvachilik va parrandachilik mahsuldorligini ko'paytirish bo'yicha amalga oshiriladigan loyihalar hisobiga ta'minlanadi. Bunda:

- 2026-yilda 14,4 mln tonna sabzavot (*2025-yilga nisbatan o'sish 5,2 foiz*), 4,5 mln tonna kartoshka (*8,2 foiz*), 3,5 mln tonna poliz (*5,7 foiz*), 3,7 mln tonna meva (*6,5 foiz*) va 2,1 mln tonna uzum (*7,6 foiz*) yetishtirilishi, shuningdek 30 ming gektar yangi intensiv bog' va tokzor barpo etilishi kutilmoqda;

- paxta terimini mexanizatsiyalash darajasini 70 foizga yetkazish maqsadida 800 ta paxta terish mashinasi, 450 ta ko'p funksiyali seyalka va 2 ming dona plyonka yig'adigan va boshqa agregatlar olib kelinadi;

- chorvachilik loyihalari uchun Jahon banki, Fransiya taraqqiyot agentligi, Yaponiya xalqaro hamkorlik va Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasidan olib kelingan resurslar hisobidan 117 mln AQSh dollari o'zlashtiriladi;

- chorvachilikda 2,5 mln bosh sigir va tanalarni sun'iy urug'lantirish hamda Fransiya tajribasi asosida 167 ta tumanda 340 ta kichik chorvachilik xo'jaligini tashkil etish, parrandachilikda esa parrandalar sonini 123,4 mln boshga yetkazish orqali 334 ming tonna go'sht va 9,8 mlrd dona tuxum ishlab chiqarilishi kutilmoqda.


2.2. Jahon iqtisodiyotidagi asosiy tendensiyalar

Jahon iqtisodiyotida yuqori noaniqlik saqlanib qolayotgan sharoitda geosiyosiy keskinliklar, savdo siyosatidagi o'zgarishlar, energiya bozorlaridagi beqarorlik va logistika zanjirlaridagi uzilishlar global iqtisodiy faollikka ta'sir etuvchi asosiy omillar bo'lib qolmoqda.

Xususan, XVJning 2026-yil aprel oyidagi hisobotiga ko'ra, jahon iqtisodiyoti avvalgi shoklarga nisbatan bardoshlilik ko'rsatgan bo'lsa-da, Yaqin Sharqdagi geosiyosiy keskinliklar global o'sish va dezinflyatsiya jarayoni uchun yangi chaqiriqlarni yaratmoqda.

Hisobotga ko'ra global iqtisodiy o'sish 2026-yilda 3,1 foiz (2026-yil yanvar hisobotida 3,3 foiz), **2027-yilda 3,2 foizni** tashkil etishi kutilmoqda. Ushbu ko'rsatkichlar 2024–2025-yillardagi 3,4 foizlik o'sish sur'atidan past bo'lib o'rta muddatli istiqbolda ham shu darajada saqlanib qolishi kutilmoqda.

5-diagramma. XVJning global iqtisodiy kutilmalari¹⁰



Shuningdek asosiy savdo hamkorlari iqtisodiyotida o'sish sur'atlarining barqaror, biroq cheklangan darajada shakllanishi mamlakatimizning eksport, pul o'tkazmalari va investitsiya oqimlari uchun bazaviy tashqi talab muhitini belgilamoqda.

Xususan, XVJ prognozlariga ko'ra, o'rta muddatda Rossiyada iqtisodiy o'sish sur'atlari 1 foiz atrofida saqlanishi, Xitoyda esa iqtisodiy o'sish 2026-yildagi 4,4 foizdan 2029-yilda 3,7 foizgacha bosqichma-bosqich sekinlashishi prognoz qilinmoqda.

Shuningdek, Qozog'istonda iqtisodiy o'sish 3,5-4,5 foiz, Qirg'iz Respublikasida 5,5-6 foiz atrofida shakllanib sekinlashuvchi tendensiyada bo'lishi prognoz qilingan.

¹⁰ <https://www.imf.org/en/publications/weo/issues/2026/04/14/world-economic-outlook-april-2026>

2-jadval. Asosiy savdo hamkor mamlakatlarda iqtisodiy o'sish prognozlari

foizda

	2025	2026	2027	2028	2029
Rossiya Federatsiyasi	1	1,1	1,1	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	5	4,4	4	3,8	3,7
Qozog'iston	6,5	4,6	4,4	4	3,6
Qirg'iz Respublikasi	11,1	6,1	5,8	5,6	5,4
Turkiya Respublikasi	3,6	3,4	3,5	4	4


Manba: XVJ, Jahon iqtisodiyoti istiqbollari, 2026-y. aprel

Global inflyatsiya so'nggi yillarda pasayish trayektoriyasiga o'tgan bo'lsa-da, geosiyosiy keskinliklar ta'sirida ta'minot zanjirlarida yuzaga kelayotgan uzilishlar energiya, oziq-ovqat va boshqa xomashyo bozorlaridagi narx oshishi dezinflyatsiya jarayonini sekinlashtirmoqda.


Mazkur omillar 2026-yil uchun global inflyatsiya bo'yicha kutilmalarning yomonlashishiga va tashqi inflyatsion bosimlarning saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

6-diagramma. Global inflyatsiya

foizda



Manba: XVJ, Jahon iqtisodiyoti istiqbollari, 2026y. aprel

7-diagramma. Oziq-ovqat narxlari indeksi

Manba: BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlari

Shu bilan birga oltin, mis, uran, mineral o'g'itlar, to'qimachilik mahsulotlari kabi asosiy eksport tovarlari narxlarining oshishi eksport tushumlari va budjet daromadlarini qo'llab-quvvatlovchi omillar bo'lishi mumkin.

Global iqtisodiyotdagi noaniqlik va inflyatsion kutilmalarning yomonlashishi fonida xalqaro moliya bozorlarida qat'iy sharoitlar saqlanib qolishi kutilmoqda. XVJ baholashlariga ko'ra, geosiyosiy keskinliklar va energiya bozorlaridagi tebranishlar moliyaviy barqarorlik xatarlarini oshirib, salbiy ssenariylarda global moliyaviy shart-sharoitlarni yanada qat'iylashtirishi mumkin.

Umuman olganda, jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan tendensiyalar va xalqaro tashkilotlar prognozlari O'zbekistonning o'rta muddatli makroiqtisodiy prognozlarini shakllantirishda jahon iqtisodiyotida mo'tadil o'sish, yuqori noaniqlik, tashqi inflyatsion bosimning saqlanishi, xalqaro moliyaviy sharoitlarning qat'iylashishi hamda tovar-xomashyo bozorlarida yuqori o'zgaruvchanlikni asosiy tashqi farazlar sifatida inobatga olish zarurligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, tashqi sharoitlar yomonlashuvi bilan bog'liq ehtimoliy ssenariylar va ularning makro-fiskal ta'siri mazkur strategiyaning 5.1-bo'limida yoritiladi.

2.3. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari

2027–2029-yillar uchun makroiqtisodiy prognozlar joriy yilda shakllanayotgan yuqori iqtisodiy baza, tarkibiy islohotlarning davom ettirilishi, 2030-yilga qadar belgilangan maqsadlar, investitsiyaviy faollik va eksport salohiyatining kengayishi, shuningdek tashqi iqtisodiy muhitdagi noaniqliklar inobatga olingan holda shakllantirildi.

Xususan, o'rta muddatli makroiqtisodiy prognozlarda quyidagi asosiy shart-sharoitlar va farazlar inobatga olingan:

- belgilangan fiskal qoidalarga rioya qilish orqali konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi hamda davlat qarzining YIMga nisbatan barqaror saqlanishi;
- nisbatan qat'iy monetar sharoitlarning saqlanib qolishi hamda Hukumat tomonidan narx barqarorligini ta'minlash borasidagi choralarning davom ettirilishi hisobiga 2027-yildan boshlab inflyatsiya darajasining 5 foizlik target darajasida barqarorlashishi;
- bank tizimida kredit qo'yilmalari o'sish sur'atlarining nominal YIM o'sishiga mutanosib shakllanishi;
- pul o'tkazmalari hajmining so'nggi yillardagi yuqori o'sish sur'atlaridan keyin o'rta muddatli davrda barqarorlashishi va ichki iste'molni qo'llab-quvvatlovchi muhim manba sifatida saqlanib qolishi;
- jahon bozorida xom ashyo tovarlari, xususan, oltin va mis narxlarining joriy yildagi yuqori o'sishidan so'ng o'rta muddatda barqarorlashishi;
- asosiy savdo hamkor mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlarining mo'tadil shakllanishi hamda tashqi talabning barqaror, biroq yuqori bo'lmagan trayektoriyada saqlanishi;
- mamlakatga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonining barqaror oshib borishi, buning natijasida turizm eksporti, mehmonxona, umumiy ovqatlanish, savdo, transport va boshqa xizmatlar sohalarida qo'shimcha talabni rag'batlantirishi;
- iqtisodiyotni erkinlashtirish, raqobat muhitini yaxshilash va xususiy sektor ulushini oshirishga qaratilgan tarkibiy islohotlarning davom ettirilishi, shuningdek yirik infratuzilmaviy loyihalar amalga oshirilishi orqali iqtisodiyotning potensial o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlashi.



Yuqoridagi shart-sharoitlar asosida shakllantirilgan prognozlarga ko'ra o'rta muddatli davrda iqtisodiy o'sish o'rtacha 7 foiz atrofida saqlanib qolinishi kutilmoqda.

Xususan, YIMning real o'sishi 2027-yilda 6,9 foiz, 2028-yilda 7,1 foiz va 2029-yilda 7,4 foiz darajasida shakllanib, aholi jon boshiga YIM hajmi 2027-yilgi **5 106 AQSh dollaridan** 2029-yilga borib **6 203 AQSh dollarigacha** oshishi prognoz qilinmoqda.

O'rta muddatda iste'mol, xizmatlar eksporti, xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o'sishni talab tarafdin rag'batlantiruvchi asosiy omillar bo'lsa, iqtisodiyot tarmoqlari kesimida bozor xizmatlari (*xususan, aloqa va axborotlashtirish, moliyaviy, transport hamda yashash va ovqatlanish*) va sanoat (*xususan, metallurgiya, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, to'qimachilik hamda avtomobilsozlik*) asosiy drayverlar bo'lishi prognoz qilingan.

3-jadval. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari

Ko'rsatkichlar	Ijro		Kutilma	Prognoz	Mo'ljal	
	2024	2025	2026	2027	2028	2029
YIM, trln so'm	1 535	1 850	2 183	2 474	2 830	3 232
YIM o'sish sur'ati, foizda	6,7	7,7	8,1	6,9	7,1	7,4
Aholi jon boshiga YIM hajmi, AQSh doll.	3 265	3 881	4 629	5 106	5 598	6 203
Inflyatsiya (o'tgan yilning yakuniga nisbatan), foizda	9,8	7,3	6,5	5-6	5	5
Sanoat, o'sish sur'ati, foizda	6,5	6,8	8	6,7	7,1	7,9
Qurilish ishlari, o'sish sur'ati, foizda	10	14,2	12,4	8,3	8	7,6
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari, o'sish sur'ati, foizda	3,4	4,4	5	5	5,1	5,1
Bozor xizmatlari, o'sish sur'ati, foizda	13,3	14,7	16,6	14,3	14,7	15,1

8-diagramma. Iqtisodiyot tarmoqlarining YIM o'sishidagi hisssasi**9-diagramma.** Aholi jon boshiga YIM

Yangilangan qisqa va o'rta muddatli makroiqtisodiy prognozlar belgilangan budjet parametrlariga nisbatan ijobiy tomonga qayta ko'rib chiqilgan bo'lib, bu quyidagilar bilan izohlanadi:

– 2025-yil yakuni bilan iqtisodiy o'sish sur'atlarining kutilgandan yuqori shakllanishi (*kutilish 6,6 foiz, amalda 7,7 foiz*), shuningdek yil boshidan iqtisodiy faollikning ijobiy shakllanayotgani (*2026-yil I chorakda iqtisodiy o'sish 8,7 foiz*);

– jahon bozorida oltin narxining yuqoriroq shakllanayotgani, bu esa eksport tushumlari va tashqi savdo balansi bo'yicha kutilmalarga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani;

– xorijiy turistlar sonining oldingi kutilmalarga nisbatan yuqori shakllanishi hisobiga xizmatlar eksportining tezlashishi;

– iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida mavjud zaxiralarni ishga solish hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish hisobiga o'sish ko'rsatkichlarining dastlabki prognozlarga nisbatan yuqoriroq shakllanishi;

– milliy valyuta kursining AQSh dollariga nisbatan barqaror shakllanishi.

4-jadval. 2026–2027-yillar uchun yangilangan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlarning 2026-yil uchun Davlat budjeti to'g'risidagi Qonunda belgilangan prognozlardan farqi

	O'RQ-1105*		Yangilangan prognoz**		Farqi “+” ko'p, “-” kam	
	2026	2027	2026***	2027	2026	2027
YIM, trln so'm	1 976	2 256	2 183	2 474	+207	+218
YIMning o'sish sur'ati, foizda	6,6	6,8	8,1	6,9	+1,5	+0,1
Inflyatsiya, foizda	7	5-6	6,5	5-6	-0,5	–
Sanoat mahsulotlari o'sish sur'ati, foizda	6,4	6,7	8	6,7	+1,6	–
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari o'sish sur'ati, foizda	4,2	4,3	5	5	+0,8	+0,7
Bozor xizmatlari o'sish sur'ati, foizda	14,5	14,3	16,6	14,3	+2,1	–
Qurilish ishlari o'sish sur'ati, foizda	10,2	8,3	12,4	8,3	+2,2	–

* – 2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi Qonun.


** – Mazkur Fiskal strategiya bilan belgilanayotgan ko'rsatkichlar.

*** – 2026-yil oxirigacha kutilayotgan ijro.

III. Budget prognozlari

Konsolidatsiyalashgan budgetning 2027–2029-yillarga mo'ljallangan prognozlari makro-fiskal barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan asosiy yo'nalishlar, jumladan, umumiy fiskal taqchillikni YIMga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik vazifasidan kelib chiqib shakllantirildi.

10-diagramma. Konsolidatsiyalashgan budget tarkibi



* –transfertsiz

5-jadval. Konsolidatsiyalashgan budget parametrlari prognozi

trln so'm

	Ijro		Kutilma	Prognoz	Mo'ljal	
	2024	2025	2026	2027	2028	2029
Konsolidatsiyalashgan budget daromadlari	381,4	502,6	589,7	585,9	665,1	765,9
Davlat budjeti	274,4	359,8	439,7	422,3	483,1	554,1
DMJ*	55,2	65,5	79	89,1	100,5	114,8
TTJ	16	28,2	27,0	25,4	26,6	32,3
Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari	36,5	49,1	44,0	49,2	54,9	64,6
Konsolidatsiyalashgan budget xarajatlari	429,3	541,7	638,4	653,8	741,4	851,7
Davlat budjeti	310,9	383,9	457,3	454,1	519,5	596,0
DMJ*	50,2	63,9	76,6	87,0	97,1	110,2
TTJ	20,4	27,8	31,8	25,4	26,6	32,3
Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari	34,7	46,2	44,0	49,2	54,9	64,6
Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar	15,0	22,6	28,8	38,1	43,2	48,6
DMJga transfertlar	34,9	57,9	76	84,5	93	100,5
Umumiy fiskal balans**	-47,8	-39,1	-65,4	-75,4	-85,2	-97,3

5a-jadval. Konsolidatsiyalashgan budget parametrlari prognozi, YIMga nisbatan foizda


	Ijro		Kutilma	Prognoz	Mo'ljal	
	2024	2025	2026	2027	2028	2029
Konsolidatsiyalashgan budget daromadlari	24,8	27,2	27	23,7	23,5	23,7
Davlat budjeti	17,9	19,5	20,1	17,1	17,1	17,1
DMJ*	3,6	3,5	3,6	3,6	3,6	3,6
TTJ	1	1,5	1,2	1	0,9	1
Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari	2,4	2,7	2	2	1,9	2
Konsolidatsiyalashgan budget xarajatlari	28	29,3	29,2	26,4	26,2	26,4
Davlat budjeti	20,3	20,8	21	18,4	18,4	18,4
DMJ*	3,3	3,5	3,5	3,5	3,4	3,4
TTJ	1,3	1,5	1,5	1	0,9	1
Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari	2,3	2,5	2	2	1,9	2
Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar	1	1,2	1,3	1,5	1,5	1,5
DMJga transfertlar	2,3	3,1	3,5	3,4	3,3	3,1
Umumiy fiskal balans**	-3,1	-2,1	-3	-3	-3	-3

* Transfertilarsiz

** 2024–2025-yillarda taqchillik konsolidatsiyalashgan budget balansi asosida aniqlangan, 2026-yildan boshlab **umumiy fiskal balans** qoidasi asosida hisoblanmoqda.

11-diagramma. Budget taqchilligi

YIMga nisbatan foizda



* – Taqchillik 2023–2025-yillarda konsolidatsiyalashgan budget balansi asosida aniqlangan, 2026-yildan boshlab **umumiy fiskal balans** qoidasi asosida hisoblanmoqda.

3.1. Daromadlar prognozlari va tahlillari

Soliq ma'murchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari hamda jahon bozorida qimmatbaho metallarning narxi prognozlarga nisbatan ko'proq oshishi natijasida 2026-yil oxirigacha Davlat budjeti daromadlari tasdiqlangan prognozga nisbatan 19 foizga ko'p yoki **439,7 trln so'mni** tashkil etishi kutilmoqda.

Xususan, bevosita soliqlardan 149,6 trln so'm, bilvosita soliqlardan 131,6 trln so'm, resurs to'lovlari va mol-mulk solig'idan 54,5 trln so'm va boshqa daromadlardan 104 trln so'm tushishi kutilmoqda.

2027-yilda Davlat budjeti daromadlari prognozi **422,3 trln so'mni** yoki YIMga nisbatan 17,1 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

6-jadval. Davlat budjeti daromadlari

trln so'm

	Ijro		Kutilma*	Prognoz		
	2024	2025	2026	2027	2028	2029
Davlat budjeti daromadlari, jami	274,4	359,8	439,7	422,3	483,1	554,1
Bevosita soliqlar	90,9	117,8	149,6	141,9	168,7	196
Foyda solig'i	52,7	72,3	96,5	81,5	98,1	112,9
Aylanmadan olinadigan soliq	2,8	3,1	3,2	3,6	4,2	4,9
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	35,4	42,4	49,8	56,8	66,4	78,2
Bilvosita soliqlar	88,3	109,6	131,6	146,8	167,7	191,3
QQS	59,3	76	93	104,5	120,5	138,9
Aksiz solig'i	19,1	21,9	24,5	26,4	29,6	32,4
Bojxona boji	10	11,7	14,1	15,9	17,5	20,1
Resurs soliqlari	36,4	44,9	54,5	52,9	61,5	69,9
Mol-mulk solig'i	6,8	8	9,2	10	11,3	12,5
Yer solig'i	8,2	10	12,5	13,6	16	18,5
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	20,2	25,8	31,5	28	32,9	37,3
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1,2	1,1	1,2	1,2	1,5	1,5
Boshqa daromadlar	58,8	87,3	104	80,7	85,2	96,9

*) 2026-yilda budjet daromadlarining yuqori sur'atlarda o'sishi va tasdiqlangan prognozga nisbatan ko'p bo'lishi iqtisodiy faollikning prognozga nisbatan yuqori bo'lishi hamda oltin va mis narxining davlat budjeti daromadlari prognozida belgilangan narxlarga nisbatan baland bo'lishi hisobiga budjetga qo'shimcha daromadlar tushishi bilan tushuntiriladi.

2027-2029-yillar uchun daromadlar prognozida oltin va mis narxlari konservativ yondashuv asosida olingan.


2027-yilda **bevosita soliqlar 141,9 trln so'mni** yoki Davlat budjeti umumiy daromadlarining **33,6 foizini** (YIMga nisbatan **5,7 foiz**) tashkil qilishi prognoz qilingan.

Bilvosita soliqlar 146,8 trln so'mni yoki Davlat budjeti umumiy daromadlarining **34,8 foizini** (YIMga nisbatan **5,9 foiz**) tashkil qilishi prognoz qilinmoqda.

Resurs soliqlari va mol-mulk solig'i bo'yicha tushumlar 52,9 trln so'mni yoki Davlat budjeti daromadlarining **12,5 foizini** (YIMga nisbatan **2,1 foiz**) tashkil qilishi prognoz qilinmoqda.

12-diagramma. Soliq turlarining jami daromadlardagi ulushi

foizda



Davlat budjetining **boshqa daromadlari va soliqsiz tushumlari 2027-yilda 80,7 trln so'mni**, Davlat budjeti umumiy daromadlarining **19,1 foizini** yoki YIMga nisbatan **3,3 foizni** tashkil qilishi prognoz qilinmoqda.

Davlat budjeti daromadlarining 2027-yil uchun prognozi hamda 2028–2029-yillar uchun dastlabki mo'ljallari asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozidan va soliq-bojxona siyosatida ko'zda tutilayotgan o'zgarishlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Ko'zda tutilayotgan o'zgarishlar, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, Davlat budjeti daromadlarining 2028–2029-yillar uchun mo'ljallari tegishincha **483,1 trln so'm** va **554,1 trln so'm** miqdorida prognoz qilinmoqda.

3.2. Xarajatlar prognozlari va tahlili

Xarajatlarning vazifa jihatidan tasnif bo'yicha prognozlari

2026-yil davomida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari, aholi farovonligini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar hamda infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish zaruratidan kelib chiqib, Davlat budjeti xarajatlari parametrlari qayta ko'rib chiqildi. Shu munosabat bilan 2026-yil uchun Davlat budjeti xarajatlarining kutilayotgan ijrosi 457,3 trln so'mni tashkil etishi yoki tasdiqlangan budjet parametrlariga nisbatan 13,5 foizga oshishi kutilmoqda.

Budjetning qo'shimcha xarajatlari asosan ijtimoiy sohani moliyalashtirish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, davlat investitsiya dasturlarini amalga oshirish hamda davlatning ustuvor vazifalarini ta'minlashga qaratilgan xarajatlar hisobiga shakllanishi kutilmoqda. Shu bilan birga, budjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash, xarajatlarning manzilliligi va natijadorligini oshirish hamda budjet intizomini mustahkamlash bo'yicha ishlar izchil davom ettiriladi.


Davlat budjeti hamda DMJ budjetlari daromadlari va xarajatlari, shuningdek budjetdan tashqari jamg'armalar tushumlari va xarajatlarining 2026-yil yakuniga qadar kutilayotgan ijrosi bo'yicha batafsil ma'lumotlar mazkur Fiskal strategiya III bo'limida keltirilgan jadval va diagrammalarda aks ettirilgan.

Davlat budjeti xarajatlarining 2027–2029-yillar uchun prognozlari

Vazifa jihatdan tasnif bo'yicha Davlat budjeti xarajatlarining tarkibi XVJning GFS–2014 standartida keltirilgan Davlat funksiyalarini tasniflash mezoniga muvofiq shakllantirildi. Bunda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish xarajatlari (markazlashgan investitsiya) har bir soha tarkibida ko'zda tutildi.

Shuningdek, aholi uchun yetkazilgan tabiiy gaz va issiqlik ta'minoti hamda jamoat transportida aholiga past tariflar qo'llanilishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash uchun Davlat budjetidan ajratiladigan subsidiyalar ijtimoiy soha tarkibida inobatga olindi.

13-diagramma. Davlat budjeti xarajatlari tarkibi



7-jadval. Davlat budjeti xarajatlarning vazifa tasnifi bo'yicha tahlili


trln so'm

		Ijro		Kutilma	Prognoz	Mo'ljal	
		2024	2025	2026	2027	2028	2029
	Xarajatlar, jami	310,9	383,9	457,3	454,1	519,5	596
	<i>shundan, markazlashgan investitsiya</i>	<i>19,7</i>	<i>21,4</i>	<i>27,4</i>	<i>20,5</i>	<i>23</i>	<i>25</i>
1	Ijtimoiy soha	174,4	199,5	232,5	246,4	278,1	319,6
	Ta'lim	77,2	90,3	102,1	113,7	129,6	155,6
	Sog'liqni saqlash	37,6	44,9	50,7	59,1	67,8	77,5
	Madaniyat	3,3	4,7	6,4	4,7	5,5	6,6
	Sport	3,7	4,2	4,7	4,8	5,6	6,2
	Fan	2,1	2,1	2,7	3,1	4	4,9
	Nafaqalar, moddiy yordam va aholiga boshqa imtiyozli to'lovlar	15,3	14,5	17,4	18,5	21,3	24,3
	Aholi uchun past narxda yetkazilgan energo resurslar va jamoat transportida aholini tashish xarajatlarning bir qismini qoplash	15,3	14,3	14,9	13	12,6	10,5
	Aholi bandligi va farovonligini oshirish xarajatlari	1,7	1,1	3,5	3,4	3,6	3,8
	Pensiya jamg'armasiga transfertlar	16,3	20,2	23	23	25	27
	Ipoteka krediti bo'yicha subsidiyalar	1,4	2,1	2,6	3	3,1	3,2
2	Iqtisodiyot xarajatlari	40,7	56	76,6	58,5	70,2	80
3	Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari	20,2	22,4	25,8	24,5	26,3	28,1
4	O'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash hamda nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash	1,3	1,5	1,6	1,7	1,8	2
5	Zaxira jamg'armalari	2,8	3	3,2	2,4	2,5	2,7
	Yer uchastkalarining olib qo'yilishi bilan bog'liq aholi zararlarini qoplash	0,6	0,7	0,8	0,9	1	1
6	Davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha foiz to'lovlari	14,5	18,1	23,8	29,4	38,2	48,5
7	Boshqa xarajatlar	56,6	82,6	93	90,4	101,4	114,1


Izoh: Markazlashgan investitsiya xarajatlari har bir soha tarkibida inobatga olingan bo'lib, investitsiya xarajatlarning sohalar bo'yicha yoyilmasi mazkur Fiskal strategiya 8-jadvalida keltirilgan.

14-diagramma. Ijtimoiy soha xarajatlari tarkibi


trln so'm

**15-diagramma.** Ta'lim xarajatlari tarkibi

trln so'm

**16-diagramma.** Iqtisodiyot sohasi yirik xarajatlari

trln so'm



8-jadval. Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi

trln so'm

	Prognoz	Mo'ljal	
	2027	2028	2029
Jami	20,5	23	25
Ijtimoiy soha, shu jumladan:	7,3	8,2	9
Umumta'lim maktablari	3	3,5	3,9
Ijod va ixtisoslashgan maktablar	0,4	0,5	0,6
MTTlar	1,3	1,5	1,7
Tibbiy va tibbiy-ijtimoiy muassasalar	2	2,2	2,4
Oliy ta'lim muassasalari	0,2	0,2	0,1
Jismoniy tarbiya va sport	0,2	0,2	0,2
Madaniyat va san'at	0,2	0,2	0,1
Ilm-fan va innovatsiya	0,05	0,05	0,05
Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari	1,9	2,2	2,3
Suv ta'minoti va kanalizatsiya	1,2	1,4	1,4
Issiqlik ta'minoti	0,7	0,8	0,9
Yo'l-transport infratuzilmasini yaxshilash bilan bog'liq xarajatlar	3	3,6	3,7
Irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish ta'mirlash ishlari uchun	1,7	2,2	2,3
Qirg'oq bo'yi va boshqa himoya inshootlar	0,2	0,2	0,3
Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari infratuzilmasini yaxshilash bilan bog'liq xarajatlar	1,8	1,8	1,8
Turizm obyektlari atrofidagi yer maydonlari, suv va yo'l infratuzilmalarini yaxshilash	0,7	0,8	0,9
"Yangi O'zbekiston" massivlarida barpo etiladigan infratuzilma obyektlari uchun	0,5	0,6	0,7
Boshqa yo'nalishlar	3,5	3,5	4,1

Davlat dasturlari uchun ajratiladigan mablag'lar prognozlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlariga muvofiq qabul qilingan **Davlat dasturlari va tadbirlarni** amalga oshirish uchun Davlat budjetidan 2027-yilda jami **66 trln so'm** mablag' ajratilishi ko'zda tutilgan.

9-jadval. Davlat dasturlari va tadbirlar bo'yicha jami xarajatlar

		<i>trln so'm</i>				
		Ijro	Parametr	Prognoz	Mo'ljal	
		2025	2026	2027	2028	2029
	Jami xarajatlar*	51,7	54,8	66	71,4	76,1
1	Ta'lim	9,4	12,8	13,6	14,8	15,8
	Maktabgacha va maktab ta'limi	6,7	9,4	9,8	10,6	11,5
	Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalariga subsidiyalari	4	4,7	5,4	6	6,6
	Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida darsliklarni yangilash	1,3	2	2	2,1	2,2
	Oliy va o'rta-maxsus ta'lim	2,7	3,5	3,8	4,2	4,3
	Ta'lim krediti uchun tijorat banklariga maqsadli resurslar ajratish	1,7	2	2	2,2	2,2
2	Fan	1,9	2,1	2,6	2,7	2,9
3	Sog'liqni saqlash	2,9	4,8	10,9	11,9	14,5
	Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish		0,6	0,6	0,6	0,7
	Noinfekcion kasalliklarga qarshi kurashish jamg'armasi mablag'lari			6,5	7,1	7,4
4	Madaniyat	1,2	1,1	1,4	1,4	1,5
5	Sport	1,4	0,8	1,6	1,7	1,8
6	Energetika va issiqlik ta'minoti	10,5	9,7	8,8	8	5,6
	Aholiga past narxda yetkazilgan tabiiy gazdan ko'rilgan zararni qoplash	7	5,9	5	4	1,3
	Issiqlik ta'minoti korxonalarining aholiga tariflarni past narxlardan ko'rilgan zararini qoplash	3,5	3,8	3,8	4	4,3
7	Tadbirkorlik va aholi bandligini ta'minlash	1,5	1,8	2,3	2,4	2,6
	Kredit foiz xarajatlarini kompensatsiya qilish jamg'armasi xarajatlari	0,2	0,5	0,8	0,9	0,9
	Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasi	0,1	0,2	0,3	0,3	0,4
8	Qishloq va suv xo'jaligi, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish	8	5,5	5,2	5,9	6,9
	Chorvachilik majmualarini tashkil qilish hamda nasldor yirik va mayda shoxli qoramol xarid qilish loyihalarini moliyalashtirish			1	1	1
	Xarid qilingan qishloq xo'jaligi texnikasi qiymatini bir qismini qoplab berish uchun subsidiya		0,6	0,7	0,7	0,8
9	Iqtisodiyot	6,5	6,6	7,8	8,4	8,3
	"Toshkent metropoliteni" yo'lovchilar tashishni subsidiyalash	0,6	0,5	0,6	0,7	0,7
	Avtobusda yo'lovchilar tashishni brutto-shartnoma asosida moliyalashtirish uchun mablag'lar	1,6	1,9	2,3	2,5	2,7
10	Boshqalar	8,4	9,5	11,8	14,2	16,1
	Aholi tomonidan uy-joylar sotib olish uchun subsidiyalari	2,1	2,7	3	3,1	3,2

Xarajatlarning iqtisodiy tasnif bo'yicha prognozlari


Iqtisodiy tasnif bo'yicha Davlat budjeti xarajatlarining asosiy qismini **ish haqi va ijtimoiy soliq xarajatlari** tashkil etib, ushbu xarajatlar jami Davlat budjeti xarajatlarining 2027-yilda 43,1 foizini yoki YIMga nisbatan 8 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

10-jadval. Xarajatlarning iqtisodiy tasnif bo'yicha yoyilmasi

		<i>trln so'm</i>			
		Parametr	Prognoz	Mo'ljal	
		2026	2027	2028	2029
	Jami xarajatlar	402,7	454,1	519,5	596
	<i>shundan:</i>				
1	Ish haqi va ijtimoiy soliq xarajatlari	172,8	195,6	215,2	251,7
2	Stipendiyalar	2,2	2,5	2,8	3
3	Infratuzilmani rivojlantirish mablag'lari, shundan:	38,8	43,7	51,1	56,2
3.1	Markazlashgan investitsiya xarajatlari	18,5	20,5	23	25
3.2	"Tashabbusli budjet" mablag'lari	6	6,2	8	9
3.3	"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi hamda "Yangi O'zbekiston" qiyofasidagi tuman (shahar)lar va mahallalarni rivojlantirish xarajatlari	4,9	4,5	6	8
3.4	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlariga asosan hududlarni va tarmoqlarni rivojlantirish uchun xarajatlar	1,5	1,5	3	3
3.5	Ichki yo'llarni saqlash xarajatlari	0,9	1	1,1	1,2
4	Tovar va xizmatlar bo'yicha xarajatlar	29	31,9	35,1	38,7
4.1	Xizmat safarlari xarajatlari	0,4	0,4	0,4	0,4
4.2	Kommunal to'lovlar, shundan:	10,6	11	12	13,2
	elektroenergiya	8,5	8,7	9,5	10,5
	tabiiy gaz	0,7	0,7	0,7	0,8
	issiq suv va issiqlik energiyasi	0,9	1	1,1	1,3
	sovuq suv va kanalizatsiya	0,4	0,5	0,5	0,5
	chiqindi	0,1	0,1	0,1	0,1
4.3	Saqlash va joriy ta'mirlash	1,1	1,1	1,1	1,1
4.4	Tovar-moddiy zaxiralariga xarajatlar, shu jumladan:	14,7	16,3	18,2	18,3
	oziq-ovqat mahsulotlari	7,2	7,6	8,1	8,6
	dori-darmonlar va tibbiy vositalar	4,7	4,9	5,2	5,5
	yonilg'i va YoMM	1,9	2	2,1	2,3
5	Asosiy vositalar bo'yicha xarajatlar	5,3	5,3	5,3	5,3
6	Foiz to'lovlari	24,5	29,4	38,2	48,5
7	Subsidiyalar	28,6	30,1	31,4	31
8	DMJ va boshqa jamg'armalarga budjetdan transfertlar	45,2	47	51,2	54,5
9	Nafaqalar, moddiy yordam va aholiga boshqa imtiyozli to'lovlar	17	18,5	21,3	24,3

17-diagramma. Iqtisodiy tasnif bo'yicha 2027-yilgi xarajatlar ulushi

jami xarajatga nisbatan foizda



Budjetdan ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari

Budget mablag'larining cheklangan miqdorlari:

2027–2029-yillar uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning dastlabki prognozi;

2027–2029-yillar uchun Davlat budjeti daromadlari prognozi va shundan kelib chiqqan holda aniqlangan taqchilikning cheklangan miqdori;

birinchi darajali budget mablag'larini taqsimlovchilarning davlat dasturlari va tadbirlariga qo'shimcha talab etiladigan mablag'lar hisob-kitoblari;

kapital qo'yilmalar to'g'risidagi dastlabki takliflar;

mahalliy budgetlar va DMJ tomonidan transfertlarning miqdorlari bo'yicha takliflar asosida ishlab chiqildi.

Birinchi darajali budget mablag'larini taqsimlovchilarga O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan ajratiladigan budget mablag'larining cheklangan miqdorlari, shuningdek, obyektlarni loyihalashtirish, qurish (*rekonstruksiya qilish*) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalarning cheklangan miqdorlari ushbu strategiyaning **1-ilovasiga** muvofiq miqdorlarda yetkazib beriladi.

Xarajatlarning “budjet dasturlari” bo'yicha tahlili

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta’minlash uchun **fiskal barqarorlikni ta’minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish** asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan.

Bunda, ushbu maqsadga erishish uchun “Dasturiy budjetlashtirish” tizimini bosqichma-bosqich joriy etish hamda tizim bilan qamrab olingan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilar sonini 2030-yilgacha 52 taga yetkazish vazifasi yuklatilgan.

Shundan kelib chiqib, 2025-yilda Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Qishloq xo‘jaligi vazirligi, 2026-yilda yana 6 ta vazirlik va idoralarning (*Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi*) o‘rta muddatli davr uchun budjet va budjetdan tashqari mablag‘lari budjet dasturlari kesimida ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda PQ-388-son qaroriga muvofiq yuqoridagi vazirlik va idoralarga qo‘shimcha tarzda yana 6 ta vazirlik va idoralarning (*Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Madaniyat vazirligi, Sport vazirligi, Transport vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Milliy statistika qo‘mitasi*) 2027–2029-yillar uchun budjet va budjetdan tashqari mablag‘larini budjet dasturlari kesimida ishlab chiqish belgilangan.

Shundan kelib chiqib, mazkur Fiskal strategiyada jami **14 ta vazirlik va idoralarning** 2027–2029-yillar uchun budjet dasturlarining dastlabki ro‘yxati keltirilgan.

Ushbu vazirlik va idoralarning budjet dasturlari “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, sohalarni rivojlantirish dasturlari (konsepsiya va strategiya), O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, barqaror rivojlanish milliy maqsadlarida belgilangan maqsad va vazifalar asosida ishlab chiqilgan.

11-jadval. 2027–2029-yillar uchun ayrim vazirlik va idoralarning budget dasturlarining dastlabki ro'yxati

		<i>mlrd so'm</i>		
		2027 prognoz	Mo'ljal	
			2028	2029
1	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning budget dasturlari:	8 110	9 041	10 108
	Ma'muriy-boshqaruv dasturi	126	138	152
	Oliy ta'lim sohasida malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish dasturi	4 099	4 606	5 204
	Kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish dasturi	2 076	2 284	2 512
	Ilm-fan va ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirish dasturi	1 708	1 879	2 068
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	101	134	172
2	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning budget dasturlari:	67 439	78 784	92 602
	Ma'muriy boshqaruv budget dasturi	74	82	90
	Maktabgacha ta'limda qamrov darajasini oshirish va har bir bola uchun teng imkoniyat yaratish dasturi	13 867	15 254	16 780
	Ta'limni tashkil etish, xorijiy tilni ommalashtirish va o'quvchilarni kasbga yo'naltirish dasturi	51 133	60 868	72 914
	Pedagog kadrlar malakasini oshirish, maktab ta'limini raqamlashtirish va xususiy sektor ulishini kengaytirish dasturi	972	1 069	1 176
	Oliy ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish dasturi	893	981	1 079
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	500	530	563
3	Sport vazirligi va uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning budget dasturlari:	2 153	2 395	2 671
	Ma'muriy-boshqaruv dasturi	69	76	84
	Ommaviy sport bilan shug'ullanuvchilar qamrovini oshirish dasturi	144	158	174
	Sport ta'lim muassasalari faoliyatini jadallashtirish dasturi	218	240	264
	Olimpiya, paralimpiya va boshqa sport turlarini rivojlantirish dasturi	1 572	1 769	1 995
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	150	152	154
4	Madaniyat vazirligi va uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning budget dasturlari:	3 321	3 787	4 329
	Ma'muriy-boshqaruv dasturi	406	446	515
	Madaniyat vazirligi tizimida ta'limni rivojlantirish, nomoddiy madaniy merosni asrash va ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturi	1 623	1 923	2 259
	Aholining madaniy ehtiyojlarini qanoatlantirish va milliy san'atni rivojlantirish dasturi	1 211	1 334	1 467
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	81	84	88

		2027 prognoz	Mo'ljall	
			2028	2029
5	Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning budget dasturlari:	64 536	65 432	71 757
	Ma'muriy boshqaruv budget dasturi	115	126	139
	Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash budget dasturi	74	81	89
	Soliq-budget siyosatini yuritish va budget barqarorligini ta'minlash dasturi	33 876	31 920	35 112
	Markazlashgan investitsiyalarni samarali boshqarish va urbanizatsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish budget dasturi	3 058	3 150	3 246
	Davlat aktivlarini muvofiqlashtirish va davlat xususiy sheriklik budget dasturi	20	22	24
	Davlat budjeti g'azna ijrosini ta'minlash dasturi	35	39	43
	Davlat asillik darajasi nazorati budget dasturi	10	11	12
	Pensiya jamg'armasining budget dasturi	23 255	25 581	28 139
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	4 093	4 502	4 953
6	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi hamda uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning budget dasturlari:	2 145	2 264	2 338
	Ma'muriy boshqaruv budget dasturi	145	149	154
	Shaharsozlik sohasidagi norma va qoidalar dasturi	50	55	61
	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish	50	120	139
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	1 900	1 940	1 984
7	Transport vazirligi hamda uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning budget dasturlari:	8 282	8 510	8 801
	Ma'muriy boshqaruv budget dasturi	308	323	339
	Havo transportini rivojlantirish dasturi	202	212	222
	Avtomobil yo'llarini rivojlantirish dasturi	7 573	7 765	8 019
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	200	210	221
8	Qishloq xo'jaligi vazirligi va uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning budget dasturlari:	4 506	5 158	5 898
	Ma'muriy boshqaruv budget dasturi	35	40	46
	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish budget dasturi	135	154	176
	Qishloq xo'jaligida ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish budget dasturi	599	655	738
	Qishloq xo'jaligi sohasini raqamlashtirish budget dasturi	88	61	71
	Agrar sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash budget dasturi	3 116	3 671	4 241
	Respublikada veterinariya va chorvachilik sohasini rivojlantirish, epizootik barqarorlikni ta'minlash va chorva hayvonlari mahsuldorligini oshirish budget dasturi	216	249	286
	O'simliklar karantini va himoyasi budget dasturi	132	140	149
	Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish budget dasturi	184	187	191

III. Budget prognozlari

		2027 prognoz	Mo'ljal	
			2028	2029
9	Suv xo'jaligi vazirligi va uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning budget dasturlari:	10 438	11 928	13 679
	Ma'muriy boshqaruv budget dasturi	165	183	202
	Suv resurslaridan oqilona foydalanish budget dasturi	1 184	935	1 162
	Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish budget dasturi (Irrigatsiya obyektlarini boshqarish)	7 403	8 738	10 147
	Suv xo'jaligini rivojlantirish loyihalari hamda zamonaviy axborot kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni joriy etish budget dasturi	166	192	222
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	1 520	1 880	1 946
10	Milliy statistika qo'mitasi hamda uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning budget dasturlari:	350	353	357
	Ma'muriy boshqaruv budget dasturi	122	134	146
	Statistika dasturini bajarish budget dasturi	201	191	182
	Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar budget dasturi	16	17	18
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	11	11	11
11	Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi va uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning budget dasturlari:	409	439	471
	Ma'muriy boshqaruv budget dasturi	73	78	83
	"O'rmon xo'jaligi" budget dasturi	25	27	29
	"Qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish" budget dasturi	11	12	13
	"Gidrometeorologiya" budget dasturi	203	222	243
	"Ekologiya sohasida fan va ta'lim" budget dasturi	33	36	39
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	64	64	64
12	Ijtimoiy himoya milliy agentligi va uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning budget dasturlari:	23 886	28 062	33 027
	Ma'muriy boshqaruv dasturi	1 660	1 776	1 900
	Professional ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish dasturi	1 660	1 486	1 599
	Nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish dasturi	3 551	6 599	7 207
	Bolalarni ijtimoiy himoya qilish dasturi	7 094	7 591	11 075
	Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash dasturi	1 886	2 018	2 159
	Nuroniylarni tibbiy-ijtimoiy va moddiy qo'llab-quvvatlash dasturi	1 503	1 608	1 721
	Kambag'al va boshqa ehtiyojmand aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish dasturi	6 433	6 884	7 366
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	100	100	100

		2027 prognoz	Mo'ljal	
			2028	2029
13	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning budget dasturlari:	14	15	16
	Ma'muriy boshqaruv budget dasturi	7	7	8
	Davlat mulkini xususiylashtirish budget dasturi	2	2	2
	Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish budget dasturi	1	2	2
	Davlat aktivlarining hisobini yuritish budget dasturi	1	1	1
	Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish budget dasturi	3	3	3
14	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi va uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning budget dasturlari:	621	629	639
	Ma'muriy boshqaruv budget dasturi	52	56	62
	Aholi bandligini ta'minlash va daromadini oshirish dasturi	162	162	163
	Kambag'allikni qisqartirish dasturi	339	340	342
	Munosib mehnat sharoitlarini yaratish va mehnat huquqlarini himoya qilish dasturi	13	15	16
	Tomorqa va dehqon xo'jaliklari yerlaridan samarali foydalanishni rivojlantirish dasturi	55	56	56

Izoh: Vazirlik va idoralarning budget dasturlari uchun nazarda tutilgan mablag'lar budget va budgetdan tashqari mablag'larni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, bugungi kunda ushbu tizimni joriy etishni jadallashtirish maqsadida Jahon Banki "Institutsional salohiyatni oshirish" loyihasining "Barqaror fiskal siyosat doirasida dastur/natijaga asoslangan budgetlashtirishni ishlab chiqish" sub-loyihasiga muvofiq "Ernst & Young Advisory LLC (O'zbekiston) va Yecrous (Niderlandiya)" xalqaro konsalting kompaniyasi ekspertlari tomonidan davlat budjeti xarajatlarini budget dasturlari bo'yicha tasniflash hamda ularni bosqichma-bosqich dasturiy budgetlashtirish joriy etilgan pilot vazirlik va idoralarda qo'llash yuzasidan texnik ko'mak amalga oshirilmoqda.


Xarajatlarning BRMM bo'yicha tahlili

Milliy barqaror rivojlanish maqsadlarida nazarda tutilgan ko'rsatkichlarning sifatli bajarilishi, shuningdek 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga erishilishini ta'minlash maqsadida Davlat budjeti xarajatlari BRMMning 16 ta maqsadi kesimida tahlil qilindi.

2027–2029-yillarda Davlat budjeti jami xarajatlarining 80 foiz atrofida BRMMni moliyalashtirish uchun yo'naltirilishi prognoz qilinmoqda.

18-diagramma. BRMMni amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan mablag'lar tahlili

Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlar	2027		2028		2029	
	mlrd so'm	Ulushi, foizda	mlrd so'm	Ulushi, foizda	mlrd so'm	Ulushi, foizda
Jami	364 016	80,2	414 978	79,9	473 075	79,4
 1-maqsad. Barcha joylarda aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish	53 680	11,8	61 195	11,8	69 762	11,7
 2-maqsad. Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish	4 196	0,9	4 783	0,9	5 453	0,9
 3-maqsad. Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga ko'maklashish	56 112	12,4	63 968	12,3	72 924	12,2
 4-maqsad. Umumqamrovli va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash hamda barchaga butun umri davomida ta'lim olish imkoniyatini rag'batlantirish	111 061	24,5	126 610	24,4	144 335	24,2
 5-maqsad. Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish	619	0,1	706	0,1	805	0,1
 6-maqsad. Barcha uchun suv resurslari va sanitariyaning mavjudligi hamda ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash	16 000	3,5	18 240	3,5	20 794	3,5
 7-maqsad. Arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan barcha uchun umumfoydalanish imkoniyatini ta'minlash	1 379	0,3	1 572	0,3	1 792	0,3
 8-maqsad. Samarali bandlikni oshirish hamda erkaklar va xotin-qizlarni munosib ish bilan ta'minlash asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o'sishga ko'maklashish	5 954	1,3	6 787	1,3	7 737	1,3

Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlar		2027		2028		2029	
		mlrd so'm	Ulushi, foizda	mlrd so'm	Ulushi, foizda	mlrd so'm	Ulushi, foizda
	9-maqсад. Barqaror infratuzilmani yaratish, umumqamrovli va barqaror sanoatlashuv va innovatsiyalarga ko'maklashish	29 378	6,5	33 491	6,4	38 180	6,4
	10-maqсад. Mamlakat ichida tengsizlikni uning barcha ko'rinishlarida qisqartirish	687	0,2	783	0,2	893	0,1
	11-maqсад. Shaharlar va aholi yashash punktlarining ochiqligi, xavfsizligi va ekologik barqarorligini ta'minlash	35 816	7,9	40 830	7,9	46 546	7,8
	12-maqсад. Iste'mol va ishlab chiqarishning oqilona modellariga o'tishni ta'minlash	726	0,2	827	0,2	943	0,2
	13-maqсад. Iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurash bo'yicha tezkor choralarni qabul qilish	1 029	0,2	1 173	0,2	1 338	0,2
	15-maqсад. Quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga ko'maklashish, o'rmonlardan oqilona foydalanish, cho'llanishga qarshi kurashish, yerlarning yemirilishini to'xtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xillikning yo'qolib ketish jarayonini to'xtatish	1 511	0,3	1 722	0,3	1 963	0,3
	16-maqсад. Barqaror rivojlanish maqsadlari yo'lida tinchliksevar va ochiq jamiyatlar barpo etilishiga ko'maklashish, barcha uchun odil sudlov imkoniyatidan foydalanishni ta'minlash va barcha darajalarda samarali, hisobdor va keng ishtirokka asoslangan muassasalarni tashkil etish	11 954	2,6	13 627	2,6	15 535	2,6
	17-maqсад. Barqaror rivojlanish maqsadlarida Global sheriklik doirasida amalga oshirish vositalarini mustahkamlash va ishlarni faollashtirish	33 915	7,5	38 663	7,4	44 075	7,4

Izoh: O'zbekiston Respublikasi hududi okean yoki dengiz bilan chegaradosh bo'lmaganligi bois, 14-maqсад "Okean, dengiz va dengiz resurslarini saqlash va oqilona foydalanish" tasniflanmagan.

Xarajatlarning atrof-muhitga ta'siri bo'yicha tahlili

Davlat budjeti xarajatlarini "yashil" budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash 4 ta guruhga bo'lingan holda amalga oshirildi.

12-jadval. Davlat budjeti xarajatlarining "yashil" budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash natijalari

<i>trln so'm</i>						
Toifalar	2024-yil ijro	2025-yil ijro	2026-yil kutilma	2027-yil prognoz	2028-yil prognoz	2029-yil prognoz
Jami	310,9	383,9	457,3	454,1	519,5	596,0
"A" toifa	27,5	35,7	52,8	51,6	58,8	67
<i>ulushi, foizda</i>	8,8	9,3	11,5	11,4	11,3	11,2
"B" toifa	9,7	7,8	6,8	6,9	7,9	9,0
<i>ulushi, foizda</i>	3,1	2	1,5	1,5	1,5	1,5
"C" toifa	0,5	0,06	0,04	0,03	0,03	0,03
<i>ulushi, foizda</i>	0,1	0,02	0,01	0,01	0,01	0,01
"D" toifa	273,3	340,4	397,7	395,4	452,8	520,0
<i>ulushi, foizda</i>	87,9	88,7	87,0	87,1	87,2	87,2

Davlat budjeti xarajatlarining 2027-yilgi prognozi **454,1 trln so'm** bo'lib, xarajatlarni "yashil" budjetlashtirish tamoyillari asosida **tasniflash natijalariga** ko'ra:

"A" toifa bo'yicha, ya'ni, atrof-muhit maqsadlaridan kamida bittasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan va salbiy ta'sirga ega emas xarajatlar miqdori 51,6 trln so'm yoki jami xarajatlarning 11,4 foizini tashkil etadi.

Ushbu toifada:

suv xo'jaligi tashkilotlarini saqlash va suv bilan ta'minlashga oid tadbirlar xarajatlari (*suv tadbirlari iqlim o'zgarishi sharoitida muhim o'rin tutadi*);

hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va obodonlashtirish bo'yicha xarajatlar (*hududlar infratuzilmalarini rivojlantirish va obodonlashtirish iqlim o'zgarishiga moslashtirish tadbirlari hisoblanadi*);

o'rmon xo'jaligi, Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi va uning tizim tashkilotlarini saqlash xarajatlari, jamoat transporti bo'yicha xarajatlar va boshqa atrof-muhit maqsadlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan xarajatlar inobatga olingan.

"B" toifa bo'yicha, ya'ni, atrof-muhit maqsadlariga ijobiy va salbiy ta'sirlarning kombinatsiyasiga ega xarajatlar miqdori 6,9 trln so'm yoki jami xarajatlarning 1,5 foizini tashkil etadi.

Ushbu toifada:

geologiya-qidiruv ishlari xarajatlari (*faoliyat atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatsa-da, ammo zarur bo'lgan minerallarni aniqlaydi*);

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalari xarajatlari (*veterinariya xizmati hayvonlarni iqlim o‘zgarishi ta’siriga moslashtirishga yordam ko‘rsatsa-da, chorvachilik faoliyati iqlim o‘zgarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi*) ko‘zda tutilgan.

13-jadval. Atrof-muhitga ijobiy ta’sirga ega xarajatlar

mlrd so‘m

Ko‘rsatkichlar	Ijro		Kutilma	Prognoz	Mo‘ljall	
	2024	2025	2026	2027	2028	2029
Jami	27 509,6	35 708,4	52 745,6	51 570,2	58 790,1	67 020,1
<i>shu jumladan,</i>						
Suv xo‘jaligi tashkilotlarini saqlash va suv bilan ta’minlashga oid tadbirlar xarajatlari	8 550,1	9 329,2	9 089,3	9 089,3	10 361,8	11 812,4
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Transport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar transport boshqarmalarining maxsus jamg‘armalari	772,9	1 600,1	2 585,3	3 068,4	3 498	3 987,7
Metropoliten xarajatlari	419,2	852,1	926,2	987,5	1 125,7	1 283,3
Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash obyektlarini ta’mirlash va tiklash xarajatlari	319,4	777,4	591,8	700	798	909,7
Davlat o‘rmon xo‘jaliklarini saqlash xarajatlari	249,2	271,6	286	301,8	344,1	392,3
O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi huzuridagi O‘rmon va yashil hududlarni ko‘paytirish, cho‘llanishga qarshi kurashish agentligi tizimiga kiruvchi hududiy va boshqa tashkilotlar	71,5	85,3	72	76,5	87,2	99,5
O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi hamda uning hududiy bo‘linmalarini saqlash xarajatlari	233,9	268,8	275,7	294,3	335,5	382,5
Hayvonlarning o‘ta xavfli yuqumli kasalliklarining oldini olish xarajatlari	140	152,5	160	179,6	204,7	233,4
Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi huzuridagi O‘rmon va yashil hududlarni ko‘paytirish, cho‘llanishga qarshi kurashish agentligi markaziy apparatini saqlash xarajatlari	5,6	6,7	7,9	12,9	14,7	16,8

“C” toifa bo'yicha, ya'ni, atrof-muhit maqsadlaridan kamida bittasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan va ijobiy ta'sirga ega emas xarajatlar miqdori 0,03 trln so'mni tashkil etadi. Bu toifaga issiqxona gazlari emissiyalarini oshishiga olib keluvchi, suv sarfini oshiruvchi, atrof-muhitni ifloslantiruvchi tadbirlar, biologik xilmaxillik va ekotizimga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tadbirlar kiradi.

“D” toifa bo'yicha, ya'ni, atrof-muhit maqsadlarining barchasiga neytral ta'sir ko'rsatadigan xarajatlar miqdori 395,4 trln so'm yoki jami xarajatlarning 87,1 foizini tashkil etadi. Ushbu toifada iqlim o'zgarishi va atrof-muhit maqsadlariga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydigan, tashkilotlarni saqlash xarajatlari kiritiladi.

3.3. Mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarining prognozlarini

O'zbekiston Respublikasining budjet kodeksiga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari balanslashtirilgan daromadlar va xarajatlarga ega bo'lishi lozimligi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining taqchilligiga yo'l qo'yilmasligi belgilangan.

Mahalliy budjetlar xarajatlarining tegishli daromadlar prognozlaridan oshgan qismini qoplash O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar ajratish orqali amalga oshiriladi.

2027–2029-yillar uchun O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetiga va viloyatlarning viloyat budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari to'g'risidagi ma'lumotlar mazkur strategiyaning **3-ilovasida** keltirilgan.

Mahalliy budjetlar barqarorligini ta'minlash va ularning mustaqilligini oshirish uchun amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar.

1. 2027-yil 1-mayga qadar xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda "2027–2030-yillarda mahalliy budjetlarni isloh qilish strategiyasi" ishlab chiqiladi. Bunda asosan quyidagilar nazarda tutiladi:

mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjetni boshqarish sohasidagi vakolatlarini kengaytirish. Bunda respublika va mahalliy budjetlar o'rtasida taqsimlangan vakolatlarni hamda budjetlararo munosabatlarni tartibga solish, shu jumladan hududlarda qoldiriladigan daromadlar va mahalliy budjetlar xarajatlarini oshirish;

shaffof qoidalarga asoslangan budjetlararo munosabatlar tizimini joriy etish;

tuman va shaharlar budjetlari daromadlarini kelgusi uch yilda 2 barobarga oshirish hamda ularning ixtiyorida qoladigan qo'shimcha manbalarni ko'paytirish.

2. 2027–2029-yillarda tuman (shahar)lar markazlarida drenaj va kuzatuv quduqlari hamda drenaj kollektorlarini ta'mirlash va yangidan tashkil etish dasturi amalga oshiriladi. Bunda budjetdan jami 452 mlrd so'm, shundan 2027-yilda 150,8 mlrd so'm mablag' yo'naltirish ko'zda tutilmoqda.

3. 2026–2028-yillarda tuman (shahar)lar obodonlashtirish boshqarmalarini maxsus texnikalar bilan jihozlash dasturini amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, ushbu maqsadlar uchun budjetdan jami 1 trln so'm, shundan 2027-yilda 345,8 mlrd so'm mablag' yo'naltirish rejalashtirilmoqda.

4. Respublika budgetidan mahalliy budgetlarga ajratiladigan budget ssudalarining hisobini yuritish bo'yicha elektron axborot tizim yaratish choralari ko'riladi.

5. DXSh asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ajratiladigan subsidiyalar **mahalliy budgetlarda** rejalashtirilmoqda.

3.4. Davlat maqsadli jamg'armalari hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining prognozlari

I. 2027-yilda **DMJ** daromadlari 100,3 trln so'mni, xarajatlari (*budjetdan o'tkaziladigan 84,5 trln so'm va budjetga o'tkaziladigan 11,2 trln so'm transfertlarsiz*) 87 trln so'mni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

2027-yilda DMJ daromadlari budjetdan ajratiladigan transfertlar bilan birga 184,8 trln so'm yoki konsolidatsiyalashgan budjet daromadlarining 31,5 foizini, xarajatlari Davlat budjetiga o'tkaziladigan transfertlar bilan birga 182,7 trln so'm yoki konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlarining 28 foizini tashkil etishi prognoz qilingan.

2028-yilda DMJ daromadlari va xarajatlari konsolidatsiyalashgan budjetning tegishincha 30,5 foizi va 26,9 foizini tashkil etishi hamda 2029-yilda tegishincha 29,4 foizi va 25,8 foizini tashkil etishi mo'ljal qilingan.

2027-yilda DMJ tomonidan davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan budjet ssudalari, depozit va kredit mablag'lari 2,8 trln so'm hamda oldingi yillarda ajratilgan mablag'larning 0,9 trln so'm miqdorida qaytarilishini inobatga olgan holda davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun budjet ssudalari, depozit va kredit liniyalari saldosi 2 trln so'm miqdorida prognoz qilinmoqda.


Shuningdek, DMJga o'zlariga yuklatilgan davlat funksiyalarini to'liq amalga oshirishlari uchun Davlat budjetidan 84,5 trln so'm transfertlar ajratilishi ko'zda tutilgan.

2027-yilda DMJga budjetdan ajratiladigan transfertlar miqdori 2024-yilga nisbatan 2,4 barobar oshishi kutilmoqda. Bu asosan konsolidatsiyalashgan budjet qamrovini oshirish maqsadida uning tarkibiga kiruvchi DMJ sonining oshishi bilan izohlanadi.

Jumladan, 2026-yilda DMJ tarkibiga Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi, Farmatsevtika tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg'armasi, Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hamda 2027-yilda Noinfeksion kasalliklarga qarshi kurashish jamg'armasi kiritildi.

19-diagramma. DMJ va TTJ budgetlarining prognozlari

trln so'm



1. 2022-yildan boshlab konsolidatsiyalashgan budget bilan qamrab olingan **Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasiga** budgetdan ajratiladigan transfertlar miqdori 2022-yilgi 1,3 trln so'mdan (*jami budgetdan DMJga ajratilgan transfertlarning 4,7 foizi*) 2027-yilda 38,1 trln so'mgacha (*jami transfertlarning 45,1 foizi*) oshishi prognoz qilinmoqda.

Bu, o'z navbatida, davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam doirasida tibbiy xizmatlarni kengaytirish maqsadida davlat tibbiy sug'urtasi tizimi mexanizmlari respublikaning barcha hududlarida tatbiq etilayotgani bilan izohlanadi.

2. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi **Pensiya jamg'armasining** 2027-yilgi daromadlari 73,8 trln so'm yoki 2026-yilga nisbatan 14 foizga oshishi prognoz qilinmoqda. Shundan jamg'armaning asosiy tushum manbasi hisoblanadigan ijtimoiy soliq tushumlari 71,4 trln so'mni (o'sish – 14 foiz) tashkil etishi kutilmoqda.


Bundan tashqari, jamg'arma taqchilligini qoplash hamda pensiya oluvchilar oldidagi majburiyatlarni o'z vaqtida moliyalashtirish uchun respublika budgetidan 2027-yilda 23 trln so'm miqdorida transfert ajratilishi ko'zda tutilmoqda.

Jamg'armaning 2027-yilgi xarajatlari 95,7 trln so'mni yoki 2026-yilga nisbatan 11,1 foizga oshishi kutilmoqda. Bu, o'z navbatida, pensiya oluvchilar sonining 2026-yilga nisbatan 165 ming kishiga oshishi kutilayotganligi bilan izohlanadi.


14-jadval. Pensiya tizimi ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Ijro		Parametr	Prognoz	Mo'ljal	
	2024	2025	2026	2027	2028	2029
Pensiya xarajatlari, trln so'm	64	76,2	86,1	95,7	106,9	119,4
Pensiya jamg'armasi daromadlari, trln so'm	47,1	56,5	64,7	73,8	83,3	96,1
shundan, ijtimoiy soliq	45,5	54,5	62,7	71,4	80,6	93,3
Budjet transfertlari, trln so'm	16,3	20,2	23	23	25	27
Pensiya oluvchilar soni, ming kishi	4 104,5	4 282,5	4 427	4 592	4 760	4 940
O'rtacha pensiya miqdori, mln so'm	1,4	1,6	1,7	1,8	1,9	2,1

20-diagramma. Pensiya jamg'armasi moliyaviy ko'rsatkichlari



21-diagramma. Pensiya jamg'armasi jami tushumlari



3. **Ijtimoiy sug'urta jamg'armasining 2027-yilgi daromadlari** 2,2 trln so'm yoki 2026-yilga nisbatan 17 foizga oshishi prognoz qilinmoqda. Jamg'arma **xarajatlari** keyingi yilda 4,9 trln so'm miqdorida yoki joriy yilga nisbatan 44,7 foiz ko'p rejalashtirilmoqda.

2026-yildan boshlab davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha homiladorlik va tug'ish nafaqasini to'lash to'liq jamg'arma hisobidan amalga oshirilmoqda. Shuningdek, joriy yilning 1-iyulidan boshlab vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasi jamg'arma hisobidan amalga oshiriladi.

Bunda jamg'armaga 2027-yilda respublika budjetidan 2,5 trln so'm yoki joriy yilga nisbatan 1,7 barobar ko'p transfertlar o'tkazib berilishi nazarda tutilgan.

DMJ daromadlari, xarajatlari va ularga Davlat budjetidan ajratiladigan transfertlar miqdorlarining prognozlari mazkur strategiyaning **2-ilovasida** keltirilgan.

II. 2027-yil uchun TTJ tushumlari va xarajatlari balanslashgan holda 25,4 trln so'm miqdorida prognoz qilingan. 2028–2029-yillarda jamg'armaga tushumlar tegishincha 26,6 trln so'm va 32,3 trln so'mni tashkil etishi prognoz qilingan bo'lib, xarajatlari daromadlar hajmiga mutanosib ravishda shakllanishi kutilmoqda.


3.5. Budgetdan tashqari jamg'armalar tahlili

O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti qamrovini oshirish, budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda budgetdan tashqari jamg'armalar mablag'larining ishlatilishida budget tashkilotlari rahbarlarining hisobdorligini va mas'uliyatini kuchaytirish maqsadida 2022-yildan boshlab barcha budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari konsolidatsiyalashgan budget bilan qamrab olindi.

2027-yilda barcha budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari tushumlari va xarajatlari mos ravishda 49,2 trln so'm miqdorida prognoz qilingan. Bunda tushumlar shakllanishi asosan budget tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armalari, ta'lim muassasalari kontrakt tushumlari, vazirlik va idoralarning budgetdan tashqari mablag'lari hisobiga to'g'ri keladi.


22-diagramma. Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari

trln so'm



23-diagramma. 2027-yilda budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari manbalari ulushi

jamiga nisbatan foizda



3.6. Depozitlar, budjet ssudalari va kredit liniyalari

Budjet barqarorligini ta'minlash va qamrovini oshirish maqsadida 2026-yildan boshlab davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun Davlat budjeti va DMJ hisobidan ajratiladigan depozitlar, ssudalar va kredit liniyalarini umumiy fiskal ko'rsatkichlar doirasida hisobga olish tartibi joriy etildi.

Bunda 2026-yilgi Davlat budjeti to'g'risidagi Qonunda davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun depozitlar, budjet ssudalari va kredit liniyalarining saldosi umumiy fiskal balansda qamrab olindi.

O'rta muddatda depozitlar, budjet ssudalari va kredit liniyalarini inobatga olgan holda umumiy fiskal balans taqchilligini mo'tadil darajada saqlash uchun Davlat budjeti va DMJdan ajratiladigan depozitlar, ssudalar va kredit liniyalarini tartibga solib borish choralari muntazam ko'rib boriladi.

Jumladan, uy-joy va ipoteka dasturlarida davlat budjeti mablag'lari ulushini bosqichma-bosqich joriy 53 foizdan 2029-yilda 47 foizgacha pasaytirish hamda tijorat banklarining o'z mablag'lari va O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi mablag'larini oshirish choralari ko'riladi.

Bunda uy-joy sharoitini yaxshilash dasturi doirasida 2027-yilda ipoteka kreditlarini ajratish uchun Davlat budjetidan tijorat banklariga **13 trln so'm resurs mablag'lari** yo'naltirilishi prognoz qilinmoqda.

Shuningdek, **O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi** AJning **ustav kapitalini** 2030-yilga qadar **5 trln so'mga** yetkazish maqsad qilingan. Bunda Kompaniya kapitalini oshirishda budjet mablag'lari bilan bir qatorda tijorat banklari va XMI resurslarini to'g'ridan-to'g'ri jalb qilish orqali davlat ulushini **25 foizgacha** qisqartirish rejalashtirilgan.

3.7. Yangilangan prognozlarning tasdiqlangan parametrlardan farqi

Soliq va budget siyosatidagi o'zgarishlar, jumladan, tushumlarni oshirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar, 2025-yilning IV choragida va 2026-yilning o'tgan davri mobaynida qabul qilingan dastur va tadbirlar uchun qo'shimcha xarajatlarning kelib chiqishi natijasida 2026-yil uchun Davlat budjeti to'g'risidagi Qonun bilan tasdiqlangan **2026–2027-yillar uchun budget ko'rsatkichlari taqchillikning belgilangan yuqori chegarasi doirasida** qayta ko'rib chiqildi.

15-jadval. 2026–2027-yillar uchun yangilangan prognozlarning 2026-yil uchun Davlat budjeti to'g'risidagi Qonunda belgilangan prognozlardan farqi

trln so'm

		O'RQ-1105*		Yangilangan prognoz**		Farqi “+” ko'p, “-” kam	
		2026	2027	2026***	2027	2026	2027
I.	Konsolidatsiyalashgan budget daromadlari	515,8	585	589,7	585,9	+73,9	+0,9
	Davlat budjeti	368,9	425,5	439,7	422,3	+70,8	-3,2
	DMJ****	78,6	87,5	79	89,1	+0,4	+1,6
	TTJ	24,3	25,4	27	25,4	+2,7	–
	Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari	44	46,6	44	49,2	–	+2,6
II.	Konsolidatsiyalashgan budget xarajatlari	567,7	644,5	638,4	653,8	+70,7	+9,3
	Davlat budjeti****	328,7	384,9	381,3	369,6	+52,6	-15,3
	DMJ	148,4	161,2	152,6	171,5	+4,2	+10,3
	TTJ	24,3	25,4	31,8	25,4	+7,5	–
	Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari	44	46,6	44	49,2	–	+2,6
	Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar	22,4	26,4	28,8	38,1	+6,4	+11,7

* – 2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi Qonun.

** – Mazkur Fiskal strategiya bilan belgilanayotgan ko'rsatkichlar.

*** – 2026-yil oxirigacha kutilayotgan ijro.

**** – DMJga transfertlarsiz

Konsolidatsiyalashgan budget ko'rsatkichlarining qayta ko'rib chiqilishi natijasida kelib chiqqan **farqlar, asosan, quyidagilar bilan tushuntiriladi:**

2026-yil:

Konsolidatsiyalashgan budget daromadlaridagi farqning asosiy sabablari:

– iqtisodiy o'sish sur'atining kutilganidan yuqori shakllanishi hamda ishlab chiqarish, qurilish va xizmatlar hajmining kengayishi;

– yuqori iqtisodiy o'sish, shuningdek tadbirkorlik subyektlariga soliq yukining pasaytirilishi hamda ularning yiriklashishi uchun taqdim etilgan imtiyoz va preferensiyalarning qo'llanilishi natijasida soliq bazasi va to'lovchilar sonining oshishi;

– qimmatbaho metallar va mis narxlarining prognozda ko'zda tutilganiga nisbatan yuqori shakllanishi;

– yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish, shu jumladan, norasmiy iqtisodiy faoliyatni qisqartirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar natijasida budgetga qo'shimcha daromadlarning undirilishi;

– soliq ma'murchiligida xavflarga asoslangan nazorat mexanizmlarining keng joriy etilishi hisobiga yashirin aylanmalarning oldi olinishi.

Konsolidatsiyalashgan budget xarajatlaridagi farqning asosiy sabablari:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlariga muvofiq mamlakatdagi ijtimoiy farovonlikka xizmat qiladigan dasturlar va muhim infratuzilma xarajatlari uchun qo'shimcha mablag'lar ajratilishi;

– moliya yili davomida qabul qilingan qarorlar bilan strategik loyihalarni moliyalashtirish hisobiga TTJ xarajatlarining oshishi va boshqalar.

2027-yil:

Konsolidatsiyalashgan budget daromadlaridagi farqning asosiy sabablari:

– YIM o'sish sur'ati va nominal qiymati prognozlarning yuqori sur'atlarda shakllanishi;

– iqtisodiyot tarmoqlarida yuqori o'sish sur'atlarining saqlanib qolishi, xususan ishlab chiqarish, qurilish va xizmatlar sohasida iqtisodiy faollikning oshishi;

- valyuta almashinuv kursining dastlabki koʻzda tutilganiga nisbatan past boʻlishi;

- DMJ daromadlari prognozlari qayta koʻrib chiqilishi;

- budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamgʻarmalari daromadlari prognozlarning aniqlashtirilishi va boshqalar.

Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlaridagi farqning asosiy sabablari:

- Davlat budjeti xarajatlari prognozlari aniqlashtirilishi;

- Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlariga muvofiq mamlakatdagi ijtimoiy farovonlikka xizmat qiladigan dasturlar va muhim infratuzilma xarajatlari uchun qoʻshimcha mablagʻlar ajratilishi;

- yangi dasturlarni moliyalashtirish uchun tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlarning oshishi;

- budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamgʻarmalari xarajatlari prognozlarning aniqlashtirilishi;

- moliya yili davomida qabul qilingan qarorlar bilan strategik loyihalarni moliyalashtirish hisobiga TTJ xarajatlarning oshishi va boshqalar.


IV. Davlat qarzi prognozlari va maqsadli ko'rsatkichlari.

Davlat qarzining 2026-yil oxirigacha kutilmalari

Davlat qarzi qoldig'i 2026-yil 1-yanvar holatiga 46,9 mlrd AQSh dollarini (shundan, davlat tashqi qarzi – 39,8 mlrd AQSh doll., davlat ichki qarzi – 7 mlrd AQSh doll.) yoki YIMga nisbatan 31,9 foizni tashkil etdi.


XVJning mamlakatlar iqtisodiyotiga bag'ishlangan hisobotiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining davlat qarzi bugungi kunda "mo'tadil" darajada hisoblanadi. Xususan, XVJning 2025-yil iyun oyidagi 4-modda (Article IV) doirasida e'lon qilingan hisobotiga ko'ra, hozirda O'zbekiston davlat qarzi va davlat tashqi qarzi bo'yicha xatarlar past darajada va davlat qarziga xizmat ko'rsatish salohiyati "yuqori" hisoblanadi.

24-diagramma. O'zbekiston Respublikasining davlat qarzi dinamikasi



Respublikada amalga oshirilgan izchil islohotlar doirasida mamlakatimiz aholisining yashash sharoitini yaxshilashga qaratilgan loyihalar (*ichimlik suvi, barqaror elektr energiyasi, uy-joylar qurish, ta'lim va sog'liqni saqlash*) bilan birga iqtisodiyotda uzoq yillar davomida investitsiyalarga bo'lgan yuqori talab shakllangan holatda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur infratuzilmani yaratish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, ularni modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish uchun faol tashqi qarz jalb qilinishi YIMning yuqori sur'atlar bilan o'sishi uchun zamin yaratdi.


Shu o'rinda 2025-yilda muhim investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi nomidan va O'zbekiston Respublikasining kafolati ostida 2,5 mlrd AQSh doll. miqdorida tashqi qarz bitimlari imzolandi.

25-diagramma. Davlat tashqi va ichki qarzi

Izoh: 2026-yil 1-yanvar holatiga

26-diagramma. O'zbekiston Respublikasining davlat tashqi qarzi tarmoqlar kesimida

mlrd AQSh doll.



Izoh: 2026-yil 1-yanvar holatiga

Shuningdek, valyuta xatarlarini pasaytirish maqsadida 2020–2025-yillar davomida ichki va tashqi manbalardan milliy valyutada jalb qilingan qarz hajmi bosqichma-bosqich oshirib borilishi natijasida milliy valyutadagi qarzning davlat qarzidagi ulushi 2020-yildagi 5,9 foizdan 2025-yil yakuniga kelib 12,2 foizgacha oshdi.


Xususan, budget taqchilligini moliyalashtirish maqsadida chiqariladigan davlat g'aznachilik obligatsiyalari sof hajmi 2020-yildagi 3,4 trln so'mdan 2025-yilda 30 trln so'mga yetkazilishi natijasida 2025-yilda muomaladagi davlat g'aznachilik obligatsiyalari 49,9 trln so'mni tashkil qildi. Shuningdek, 2020–2025-yillar davomida milliy valyutada chiqarilgan suveren xalqaro obligatsiyalar qiymati 17,8 trln so'mni tashkil etdi.

IV. Davlat qarzi prognozlari va maqsadli ko'rsatkichlari.

Shu bilan birga, davlat qarzi portfelini diversifikatsiya qilish va ma'lum bir xorijiy valyutaga bog'liqlikni kamaytirishga qaratilgan strategiya qo'llanishi natijasida 2026-yilning 1-yanvar holatiga, davlat qarzining 63,2 foizi AQSh dollarida, 8,8 foizi yevroda, 5,7 foizi Yapon iyenasi, 4,5 foizi SDRda, 3,2 foizi Xitoy yuanida va 2,4 foizi boshqa valyutalarda shakllandi.

27-diagramma. Davlat qarzining valyutadagi ulushi, 2026-yil 1-yanvar holatiga

foizda



Davlat qarzini samarali boshqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek budget taqchilligining joriy yilgi tasdiqlangan miqdoridan oshmasligini ta'minlash natijasida **2026-yil oxirigacha davlat qarzi qoldig'i YIMga nisbatan 31 foizni tashkil etishi** prognoz qilinmoqda.

Davlat qarzining 2027-2029-yillarga prognozlari

O'rta muddatli istiqbol uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, tarmoqlarni rivojlantirish dasturlari va strategiyalarida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga asoslangan ko'p ssenariyli tahlillarga asosan davlat qarzining YIMga nisbati 2027-2029-yillarda o'rtacha **32 foizni** tashkil qilishi prognoz qilinmoqda.

V. Makro-fiskal xatarlar bahosi

5.1. Makroiqtisodiy va fiskal xatarlar

Jahonda davom etayotgan geosiyosiy keskinliklar, tovar xom-ashyo bozorlaridagi yuqori o'zgaruvchanlik, global inflyatsion bosimlar qisqa va o'rta muddatli istiqbolda makroiqtisodiy va fiskal barqarorlikka ta'sir etishi mumkin bo'lgan asosiy xatarlar sifatida baholanmoqda.

Xususan, Yaqin Sharqda davom etayotgan ziddiyatlar sharoitida global zanjir ta'minotining uzilishi, jahon bozorida neft, mineral o'g'itlar, oziq-ovqat narxining yuqori oshishi kuzatilmoqda.

Mazkur jarayon O'zbekiston iqtisodiyotiga asosan tashqi savdo va logistikaning qiyinlashuvi, jahon narxlarining oshishi, global iqtisodiy o'sishning sekinlashishi kabi kanallar orqali ta'sir etishi mumkin.

Ushbu bo'limda mazkur xatarlarning makroiqtisodiy va fiskal ta'siri muqobil ssenariy asosida baholangan.

Bunda bazaviy ssenariyda tashqi iqtisodiy sharoitlardagi ehtiyotkor farazlar ma'lum darajada inobatga olingan bo'lsa, muqobil ssenariyda tashqi va ichki xatarlarning bazaviy ssenariyga nisbatan yanada kuchayishi faraz qilinadi.


Tashqi savdo va logistika.

O'zbekistonning Yaqin Sharq mamlakatlari (Eron, Isroil, Qatar, Birlashgan Arab Amirli, Bahrayn, Quvayt, Saudiya Arabistoni) bilan tashqi savdo aylanmasi nisbatan past bo'lib, 2025-yilda 2,1 mlrd AQSh dollarini yoki jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2,6 foizni tashkil qilgan.

Xususan, ushbu mamlakatlarga eksport hajmi 933 mln AQSh dollarini (jami eksportdagi ulushi – 2,8 foiz) tashkil etib, shundan Birlashgan Arab Amirli 720 mln AQSh doll., Eronga 156 mln AQSh doll., Isroilga 32,9 mln AQSh dollari miqdorida mahsulot va xizmatlar eksport qilingan.


28-diagramma. Yaqin Sharq mamlakatlariga eksport hajmi

mln AQSh doll.



29-diagramma. Yaqin Sharq mamlakatlariga eksport tarkibi

mln AQSh doll.




Bunda, ushbu mintaqaga eksport tarkibida asosan xizmatlar, to'qimachilik mahsulotlari, oziq-ovqat, neft va neft mahsulotlari, metall va metall buyumlar yuqori ulushga ega.

Mazkur davlatlardan import hajmi esa 1,2 mlrd AQSh dollarini (jami importdagi ulushi – 2,4 foiz) tashkil etib, bunda asosan xizmatlar, mashina va asbob uskunalar, kimyo mahsulotlari, qora metall va ulardan tayyorlangan buyumlar yuqori ulushga ega.


30-diagramma. Yaqin sharq mamlakatlaridan import hajmi

mln AQSh doll.



31-diagramma. Yaqin sharq mamlakatlaridan import tarkibi

mln AQSh doll.



Shuningdek Eron portlari boshqa davlatlar bilan savdomizni bog'lovchi logistik markazlardan biri hisoblanib, 2025-yilda Eron hududi orqali 3,9 mlrd AQSh dollarlik import (jami importning 9 foizi) tranziti amalga oshirilgan.


Jumladan, 1 mlrd AQSh dollarlik texnologik uskunalar yoki jami texnologik uskunalar importining 14,8 foizi mazkur yo‘nalishga to‘g‘ri kelgan.

Shu bilan birga, Eron orqali 1,4 mlrd AQSh dollarlik tovarlar (jami oltinsiz tovarlar eksportining 10 foizi) eksport qilinib, ular asosan to‘qimachilik, metall va metall buyumlar, kimyo mahsulotlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Ushbu mintaqadagi keskinliklar O‘zbekiston tashqi savdosiga ta’siri bevosita savdo hajmining kichikligi sababli asosan Eron orqali o‘tuvchi tranzit yo‘laklaridagi uzilishlar, transport xarajatlarining oshishi va yetkazib berish muddatlarining cho‘zilishi orqali namoyon bo‘lishi mumkin.


32-diagramma. Eron orqali eksport

mln AQSh doll.



33-diagramma. Eron orqali import

mln AQSh doll.



Hisob-kitoblarga ko‘ra, yuqoridagi omillarning tashqi savdo va logistika kanali orqali iqtisodiyotga ta’siri 1,0-1,5 mlrd AQSh dollari yoki YIMga nisbatan 0,7-1 foiz atrofida baholangan.

Jahon bozorida xom-ashyo narxlarining oshishi.


Geosiyosiy keskinliklar fonida jahon bozorlarida narxlar o‘zgaruvchanligi kuchaymoqda.

Xususan, mojaro boshlanganidan so‘ng neft narxi **36 foizga** oshib, (*may holatiga*), hozirgi kunda bir barrel uchun (brent) **98 AQSh dollari** atrofida shakllanmoqda.


Urushning yanada keskinlashishi neft ta’minoti zanjirlarida cheklovlar yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi va neft narxlarining yanada oshishiga olib kelishi mumkin.

34-diagramma. Neft (Brent markali) narxi

AQSh doll.

**35-diagramma.** Oziq ovqat va mineral o'g'it narxlari

AQSh doll.



Izoh: Narxlar oy yakuniga olingan.

Shu bilan birga, mineral o'g'itlar va oziq-ovqat bozorida ham narx bosimi kuchaymoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, mineral o'g'itlar narxlari 15-20 foizga qimmatlashgan.

Shuningdek, Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil aprel oyida jahon oziq-ovqat narxlari indeksi yil boshiga nisbatan 5 foizga oshgan.

Yuqoridagi holatlar global inflyatsiyaning tezlashishiga hamda import kanallari orqali O'zbekistonda ichki inflyatsiyaga ham bosim o'tkazishi mumkin.

Xususan, XVJning aprel oyidagi yangilangan prognozlariga ko'ra global inflyatsiya 2026-yilda oldingi prognozga (yanvar oyidagi) nisbatan **0,6 foiz** bandga oshirilib, **4,4 foiz** bo'lishi prognoz qilingan.

Xatarlarning makroiqtisodiy ta'siri.

Yuqorida qayd etilgan xatarlarning makrofiskal ta'sirini baholash asosida makroiqtisodiy prognozlarning muqobil ssenariysi ishlab chiqildi. Unda mazkur omillarning barchasi bir vaqtda yuzaga kelishi faraz qilindi.

Mazkur holatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini baholashda quyidagi farazlardan foydalanilgan:

– Eron hududi orqali amalga oshiriladigan import va eksport oqimlarining bir qismi muqobil yo'nalishlarga qayta yo'naltiriladi;

– muqobil transport yo'laklaridan foydalanish natijasida tashish muddatlari uzayadi va logistika xarajatlari oshadi;

– ayrim eksport tovarlari, xususan, to'qimachilik, metall va kimyo mahsulotlari bo'yicha yetkazib berishdagi kechikishlar eksport tushumlarini vaqtincha kamaytiradi;

– jahon yoqilg'i narxlari indeksi (world energy index) 2026-yilda bazaviy prognozga nisbatan 10 foizga oshadi;

– neft narxining oshishi jahon oziq-ovqat narxlarini 2 foizga va mineral o'g'it narxlarini 1 foizga oshiradi (XV) tahlillariga ko'ra, neft narxining har 10 foiz oshishi transport va ishlab chiqarish xarajatlari orqali oziq-ovqat narxlarini 2 foizga ko'taradi; neft bilan uzviy bog'liq tabiiy gaz narxining oshishi esa azotli o'g'itlar xarajatlari orqali o'g'it narxlariga ta'sir ko'rsatadi);

– neft narxining oshishi asosiy savdo hamkor mamlakatlar milliy valyutasining mustahkamlanishiga, shuningdek iqtisodiy faollikning oshishi hisobiga ushbu mamlakatlardan pul o'tkazmalari hajmini 5 foiz bandga oshiradi va bu ichki talabni qo'llab-quvvatlash orqali shoklarni qisman yumshatadi.

Ushbu ssenariyga ko'ra YIM o'sish sur'ati qisqa muddatda bazaviy ssenariyga nisbatan 0,8 foiz bandga sekinlashadi, inflyatsiya darajasi esa 0,3-0,5 foiz bandga tezlashadi.


Iqtisodiy o'sishning sekinlashuvi va inflyatsion bosimning kuchayishi bir tomondan iqtisodiy faollikning sekinlashishi soliq bazasini pasaytirib, budget daromadlarining YIMga nisbati 0,02 foiz bandga kamaytirsam, narxlarning oshishi va ijtimoiy to'lovlarning oshishi hisobiga budget xarajatlarining YIMga nisbati 0,22 foiz bandga oshiradi.

Natijada fiskal taqchillikning yalpi ichki mahsulotga nisbati bazaviy ssenariyga nisbatan **0,24 foiz** bandga oshadi.


2027-yildan boshlab tashqi shoklar ta'sirining susayishi va logistika oqimlarining muqobil yo'nalishlarga moslashuvi natijasida iqtisodiy o'sish bazaviy trayektoriyaga bosqichma-bosqich qaytishi kutiladi.

36-diagramma. Muqobil ssenariyning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri


YIM, foiz




Eksport, mlrd AQSh doll.



Inflyatsiya, foizda



Taqchilik, YIMga nisbatan foizda



5.2. Davlat-xususiy sherikchilik loyihalarining tahlili

DXSh loyihalari portfelinig joriy holati

O'zbekistonda DXSh tamoyillari asosida amalga oshirilayotgan loyihalar portfeli sezilarli darajada kengayib bormoqda. 2025-yil yakunlari bo'yicha jami 2 818 ta loyiha ro'yxatga olinib, ularning umumiy qiymati 437,9 trln so'mni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024–2030-yillarda DXSh loyihalariga kamida 30 mlrd AQSh dollari¹¹ xususiy investitsiya jalb etish bo'yicha belgilangan strategik maqsadga erishishda ijobiy natijalarga erishilayotganini ko'rsatadi.

Jami loyihalar soni	Jami portfel qiymati	Energetika loyihalari soni	Portfel qiymatida
2 818 ta	437,9 trln so'm	86 ta	93 foizi – energetika sohasi

Tahlillarga ko'ra, DXSh loyihalari portfeli 2024-yilga nisbatan sezilarli kengaydi. Loyihalar soni 1 134 tadan 2 818 taga yetib, 2,5 barobarga oshdi, bunda asosiy o'sish energetikadan tashqari sohalar hissasiga to'g'ri keldi.

16-jadval. DXSh portfeli ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	2024-yil	2025-yil	O'zgarish (foizda)
Jami loyihalar soni (dona)	1 134	2 818	148,5%
Shundan: energetika (dona)	68	86	26,5%
Shundan: boshqa sohalar (dona)	1 066	2 732	156,3%
Jami portfel qiymati (trln so'm)	365,1	437,9	19,9%
Energetika portfeli qiymati (trln so'm)	339,8	408,1	20,1%

Shu bilan birga, jami portfel qiymati 365,1 trln so'mdan 437,9 trln so'mga, ya'ni 20 foizga ko'paydi. Energetika yo'nalishida loyihalar soni nisbatan kamroq o'sgan bo'lsa-da, ushbu soha DXSh portfeli qiymatida asosiy ulushni saqlab qolgan.

DXSh loyihalarining sohalar kesimidagi tahlili

2025-yilda DXSh loyihalari portfeli sohalar kesimida tahlil qilinganda, loyiha soni bo'yicha eng katta ulush suv xo'jaligi sohasiga to'g'ri keladi – jami 1 855 ta loyiha yoki umumiy loyihalarning 65,8 foizi shu tarmoq hissasiga to'g'ri kelgan. Undan keyingi o'rinlarni ta'lim (312 ta), ijtimoiy soha muassasalarini isitish tizimi (171 ta) va qurilish (99 ta) sohalar egallagan.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.08.2024-yildagi PQ-308-son

17-jadval. Sohalar kesimida DXSh loyihalari tahlili

Soha	Soni (dona)	Qiymati (mlrd so'm)	Ulushi	Soni ulushi
Energetika	86	408 097,8	92,6%	3,1%
Suv xo'jaligi	1 855	318,8	0,1%	65,8%
Ta'lim	312	4 294,1	1%	11,1%
Ijtimoiy soha	171	1 146	0,3%	6,1%
Qurilish	99	1 174,9	0,3%	3,5%
Sog'liqni saqlash	79	998,6	0,2%	2,8%
Ekologiya	64	1 105,9	0,3%	2,3%
Madaniyat	83	491	0,1%	2,9%
Sport	40	131,5	0,03%	1,4%
Kommunal	1	16 856,2	4,2%	0,03%
Transport	3	2 695,9	0,6%	0,1%
Soliq	2	211,7	0,1%	0,1%
Agrosanoat	6	144,5	0,03%	0,2%
Boshqalar	17	317,9	0,11%	0,6%
Jami	2 818	437 984,8	100%	100%

Qiymati bo'yicha esa asosiy ulush energetika sohasiga to'g'ri kelmoqda: 86 ta loyiha hisobiga ushbu sohaning DXSh portfelidagi umumiy hajmi 408,1 trln so'mni tashkil etib, jami portfel qiymatining 92,6 foiziga teng bo'lgan.

DXSh tamoyilidagi energetika loyihalarining tarkibi

Energetika sohasidagi DXSh loyihalari stansiya turlari kesimida tahlil qilinganda, portfelning asosiy qismi shamol va quyosh elektr stansiyalariga to'g'ri keladi. Xususan, shamol stansiyalari 25 ta loyiha bilan 196,2 trln so'mni tashkil etib, energetika portfelining 48,1 foizini, quyosh stansiyalari esa 25 ta loyiha bilan 100,8 trln so'mni yoki 24,7 foizini egallagan.


An'anaviy energiya yo'nalishida esa bug'-gaz stansiyalari 63,1 trln so'm, elektr energiyasini saqlash tizimlari 22,9 trln so'm, chiqindilarni qayta ishlash va energiya ishlab chiqarish loyihalari 12,4 trln so'm hamda gaz-porshen stansiyalari 9,2 trln so'm hajmdagi portfelni tashkil etgan. Umuman, mazkur ko'rsatkichlar energetika portfelida asosiy ulush yirik shamol va quyosh elektr stansiyalarini qurish loyihalari hissasiga to'g'ri kelayotganini ko'rsatmoqda.

18-jadval. Energetika loyihalari, stansiya turlari bo'yicha tahlil

Stansiya turi	Soni	Qiymati (mlrd so'm)	Ulushi	Energiya turi
Shamol	25	196 221,2	48,1%	Yashil
Quyosh	25	100 795,6	24,7%	Yashil
Bug'-gaz	8	63 074,2	15,5%	An'anaviy
Elektr-energiyasini saqlash tizimlari	15	22 928,1	5,6%	An'anaviy
Chiqindilarni qayta ishlash va energiya ishlab chiqarish	7	12 426,2	3%	An'anaviy
Gaz-porshen	5	9 206,4	2,3%	An'anaviy
GES	1	3 446,1	0,8%	Yashil
Jami	86	408 097,8	100%	

Yashil energetika manbalari va ularning tarkibi

Qayta tiklanuvchi elektr energiyasi manbalari (shamol, quyosh va GES) energetika portfelinig 73,6 foizini yoki 300,5 trln so'mni tashkil etadi. Shamol va quyosh elektr stansiyalari eng yirik yo'nalish bo'lib, jami 50 ta loyiha amalga oshirilmoqda va ular qiymati bo'yicha qayta tiklanuvchi energiya portfelinig 98,9 foizini egallaydi.

DXSh loyihalarining hududlar kesimidagi tahlili**37-diagramma.** DXSh loyihalari hududlar kesimida

19-jadval. Hududlar kesimida DXSh loyihalari

Hudud	Loyihalar soni	Soni ulushi	Qiymati (mlrd so'm)	Qiymat ulushi
Qashqadaryo viloyati	741	27,1%	554,9	1,9%
Samarqand viloyati	369	13,5%	1 855,6	6,2%
Farg'ona viloyati	260	9,5%	1 237,9	4,1%
Namangan viloyati	259	9,5%	562,3	1,9%
Toshkent shahri	189	6,9%	20 136,6	67,4%
Buxoro viloyati	148	5,4%	319,4	1,1%
Andijon viloyati	143	5,2%	1 105,3	3,7%
Navoiy viloyati	130	4,8%	209,8	0,7%
Surxondaryo viloyati	120	4,4%	406,8	1,4%
Sirdaryo viloyati	95	3,5%	243	0,8%
Xorazm viloyati	92	3,4%	2 095,9	7%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	81	3%	497,4	1,7%
Jizzax viloyati	58	2,1%	206,5	0,7%
Toshkent viloyati	47	1,7%	455,3	1,5%
Jami	2 732	100%	29 886,7	100%

Izoh: Energetika loyihalari inobatga olinmagan

20-jadval. Hududlar kesimidagi energetika loyihalari

Hudud	Loyihalar soni	Soni ulushi	Qiymati	Qiymat ulushi
			(trln so'm)	
Qoraqalpog'iston Respublikasi	14	16,3%	137,4	33,7%
Buxoro viloyati	13	15,1%	58,9	14,4 %
Samarqand viloyati	7	8,1%	34,5	8,5%
Toshkent viloyati	14	16,3%	28,4	7 %
Navoiy viloyati	8	9,3%	27,8	6,8%
Sirdaryo viloyati	3	3,5%	25,9	6,3%
Qashqadaryo viloyati	5	5,8%	24,3	6 %
Surxondaryo viloyati	2	2,3%	19,7	4,8%
Namangan viloyati	6	7%	16,5	4%
Jizzax viloyati	3	3,5%	14,3	3,5%
Andijon viloyati	4	4,7%	8	2 %
Farg'ona viloyati	3	3,5%	8	2 %
Xorazm viloyati	2	2,3%	2,4	0,6%
Toshkent shahri	2	2,3%	1,9	0,5%
Jami	86	100%	408,1	100%

DXSh loyihalaridan yuzaga keladigan majburiyatlar tahlili

So'nggi yillarda DXSh loyihalari hajmi va qamrovi kengayib borishi natijasida ular bilan bog'liq fiskal majburiyatlarni tizimli ravishda baholash va monitoring qilish zarurati ortib bormoqda.

2025-yil yakuniga ko'ra, ishga tushgan umumiy qiymati 22,7 trln so'mlik 750 ta loyiha doirasida **budjetdan jami 4,2 trln so'm** miqdorida to'lovlar amalga oshirilib, konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlariga (541,7 trln so'm) nisbatan 0,8 foizni tashkil etgan. Bunda eng ko'p ta'lim, kommunal va ijtimoiy soha muassasalarini isitish tizimidagi loyihalar uchun mablag'lar ajratilgan bo'lib, xususi sheriklar tomonidan qurilish, operatsion va boshqa xarajatlarni qoplash uchun berilgan.

Bundan tashqari, 2025-yil yakuni bo'yicha maktabgacha ta'lim sohasida DXSh tamoyillari asosida amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida davlat budjetidan 3,9 trln so'm ajratilgan. Shunday qilib, umumiy hisobda 2025-yilda DXSh tamoyilidagi loyihalar doirasida jami 8,1 trln so'm mablag' ajratilib, konsolidatsiyalashgan budjet xarajatiga nisbati 1,5 foizni tashkil etdi.

21-jadval. 2025-yilda davlat budjetidan DXSh loyihalari doirasida amalga oshirilgan to'lovlar

<i>trln so'm</i>		
Soha	Amalga oshirilgan to'lovlar	Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatiga nisbati (%)
Kommunal	2,8	0,5
Ijtimoiy soha obyektlarini isitish tizimlarini modernizatsiya qilish	0,6	0,1
Sog'liqni saqlash	0,1	0,02
Ta'lim	0,3	0,1
Suv xo'jaligi	0,4	0,1
Jami	4,2	0,8

Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan DXSh loyihalaridan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan majburiyatlar bo'yicha hisob-kitoblar amalga oshirildi. DXSh loyihalaridan kelib chiqadigan davlatning to'g'ridan-to'g'ri majburiyatlari asosan loyihalarni amalga oshirish uchun infratuzilmani yaratish, binolar va inshootlarni qurish, saqlash bo'yicha ajratiladigan mablag'lardan iborat.

Hisob-kitoblarga ko'ra, 2026-yil uchun barcha loyihalar bo'yicha budjetdan ajratiladigan jami to'lovlar 9 trln so'mga baholanmoqda. Bunda, budjetdan amalga oshiriladigan to'lovlarning asosiy qismi kommunal sohaga (2,9 trln so'm) va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ajratiladigan mablag'lar (4,7 trln so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ushbu majburiyatlar yildan yilga oshib, o'rtacha yillik o'sish 8,8 foizni tashkil etadi.

22-jadval. 2026–2029-yillarda DXSh loyihalari doirasida davlat budjetidan amalga oshiriladigan to'lovlar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari

trln so'm

Soha	Loyiha soni	Qiymati	Prognoz			
			2026	2027	2028	2029
Kommunal	1	16,9	2,9	2,9	2,9	2,7
Ijtimoiy soha obyektlari isitish tizimlarini modernizatsiya qilish	171	1,1	0,8	0,9	0,9	0,9
Sog'liqni saqlash	79	1	0,1	0,1	0,2	0,2
Suv xo'jaligi	1855	0,3	0,5	0,5	0,5	0,5
Ta'lim	312	4,3	4,8	5,3	5,8	6,3
Transport	3	2,6	-	-	-	-
Boshqalar	311	3,6	-	-	-	-
Jami	2 732	29,8	9,2	9,7	10,3	10,8

Izoh: Maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan loyihalar uchun faqat budjet to'lovlari inobatga olingan (loyihalar soni va qiymati aks ettirilmagan)

23-jadval. DXSh loyihalari doirasida davlat ishtirokidagi korxonalarining to'lovlari bo'yicha ma'lumot

trln so'm

Soha	Loyihalar soni	Loyihalar qiymati	Fakt	Prognoz			
			2025	2026	2027	2028	2029
Energetika	86	408,1	11,4	19,9	28,8	35,8	35,4

Energetika sohasida 2025-yil yakuniga qadar jami 100,6 trln so'mlik DXSh tamoyilidagi 26 ta loyiha ishga tushgan bo'lib, mazkur loyihalar doirasida davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan amalga oshirilgan to'lovlar 11,4 trln so'mni tashkil etgan. Baholashlarga ko'ra, o'rta muddatli davrda amalga oshirilayotgan DXSh tamoyilidagi loyihalar doirasidagi davlat ishtirokidagi korxonalarining to'lov majburiyatlari 2026-yilda 19,9 trln so'mni, 2029-yilga kelib esa 35,4 trln so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Majburiyatlarning oshishi yangi elektr stansiyalarining ishga tushishi bilan bog'liq.


24-jadval. Ishga tushirilgan DXSh tamoyilidagi energetika loyihalari

Stansiya turi	Soni	Qiymati, trln so'm
Issiqlik elektr stansiyalari	9	40,7
Quyosh elektr stansiyalari	10	30,1
Shamol elektr stansiyalari	4	25,3
Elektr energiyasini saqlash tizimi	2	3,6
Yashil vodorod ishlab chiqarish loyihasi	1	0,8
Jami	26	100,6

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, DXSh loyihalari doirasidagi majburiyatlar tarkibida energetika sohasi ulushi kelgusi yillar uchun yuqoriligicha qolmoqda. 2026–2029-yillar oralig'ida davlat ishtirokidagi korxonalarning majburiyatlari 1,8 barobarga oshishi kutilmoqda. Energetika loyihalari doirasida davlat ishtirokidagi korxonalarning to'lovlari sezilarli darajada o'sishi kutilayotgan bo'lsa, ta'lim va boshqa ijtimoiy yo'nalishlardagi raqamlarda esa keskin o'zgarishlar kutilmayapti.


38-diagramma. DXSh tamoyilidagi loyihalar doirasidagi to'lovlarning sohalar kesimidagi prognoz ko'rsatkichlari

trln so'm



Shu bilan birga, kelgusi yillarda DXSh loyihalari doirasidagi to'g'ridan-to'g'ri majburiyatlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga nisbati barqaror va pasayuvchi dinamikaga ega ekanligini ko'rish mumkin. Xususan, ushbu to'lovlar YIMga nisbatan 2028-yilgacha 0,4 foiz darajasida o'zgarmasdan saqlanib qolishi kutilayotgan bo'lsa, budget daromadlariga nisbatan ulushi 2027-yildagi eng yuqori nuqtadan (1,7 foiz) keyin izchil kamayib, 2029-yilga kelib 1,4 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Bu iqtisodiy o'sish va budget daromadlarining kengayishi fonida DXSh majburiyatlarining davlat moliyasi uchun yuklamasi mutanosib ravishda maqbullashib borishini anglatadi.

39-diagramma. DXSh loyihalari doirasidagi to'g'ridan-to'g'ri majburiyatlarning YIM va davlat budjeti daromadlari prognoz ko'rsatkichlariga nisbati




DXSh loyihalaridan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan shartli majburiyatlar tahlili

Ushbu majburiyatlarning tarkibiy tahlili shuni ko'rsatadiki, umumiy hajmning eng katta qismi energetika sohasiga to'g'ri kelmoqda. Bu holat energetika yo'nalishidagi loyihalarning yuqori kapital sig'imi va ularning DXSh portfelidagi strategik ulushi bilan izohlanadi. Boshqa sohalar (ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jaligi va boshqalar) bo'yicha shartli majburiyatlar miqdori energetika sektoriga nisbatan ancha past darajada shakllangan.

40-diagramma. Bitimlarni muddatidan oldin bekor qilish holatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kompensatsiyaning maksimal miqdori

trln so'm




Garchi barcha loyihalarning bir vaqtda bekor qilinishi ehtimoli amaliyotda juda past bo'lsada, ushbu ko'rsatkichlarni hisobga olish davlatning uzoq muddatli to'lov qobiliyatini saqlash va fiskal buferlarni to'g'ri rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

DXSh loyihalari doirasidagi jami majburiyatlarning YIMga nisbati tahlili

2026–2029-yillar uchun DXSh loyihalari bo'yicha davlatning umumiy majburiyatlari dinamikasini va uning mamlakat iqtisodiyoti (YIM) hajmidagi ulushi 41-diagrammada aks ettirilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'rib chiqilayotgan davrda majburiyatlarning mutlaq qiymati ortib borishi bilan bir qatorda, ularning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri ham ortib bormoqda.

41-diagramma. DXSh bitimlari doirasidagi jami to'g'ridan-to'g'ri va shartli majburiyatlar va uning YIM prognoz ko'rsatkichlariga nisbati



Izoh: Shartli majburiyatlarga energetika bitimlari doirasida davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar va DXSh bitimlarini muddatidan oldin bekor qilishdan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kompensatsiya to'lovlari kiritilgan

To'g'ridan-to'g'ri va shartli majburiyatlarning jami hajmi 2026-yildagi 314 trln so'mdan 2029-yilga kelib 390 trln so'mgacha oshishi prognoz qilinmoqda. Ushbu o'sish, asosan, energetika va infratuzilma sohalarida amalga oshirilayotgan yirik DXSh loyihalarining bosqichma-bosqich ishga tushirilishi hamda ular doirasida kiritilgan investitsiyalarning faol fazaga o'tishi bilan bog'liq. Natijada, mazkur loyihalar bo'yicha davlat zimmasiga tushadigan to'lov majburiyatlari hajmi ham ortib borishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, jami majburiyatlarning YIMga nisbati 2026-yilda 14,4 foizni tashkil etishi hamda 2027-yilda yangi loyihalarining ishga tushishi hisobiga 14,9 foizgacha yetishi mumkin. 2028-yilda ushbu nisbat 13,8 foiz va 2029-yilga kelib esa 12,1 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Muddatidan oldin bekor qilingan DXSh loyihalari tahlili

Muddatidan oldin bekor qilingan DXSh shartnomalari bo'yicha 2026-yil 1-yanvar holatiga o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, suv xo'jaligi, ijtimoiy soha obyektlarini isitish tizimlarini modernizatsiya qilish, ta'lim, hunarmandchilik va boshqa tarmoqlarda jami 134 ta bitim bekor qilingan. Mazkur loyihalarining umumiy qiymati 594,1 mlrd so'mni tashkil etadi.

25-jadval. Muddatidan oldin bekor bo'lgan DXSh loyihalari to'g'risida ma'lumot

Soha nomi	Bekor bo'lgan bitimlar soni	Qiymati (mlrd so'm)	Kompensatsiya to'lovi
Ijtimoiy soha obyektlarini isitish tizimlarini modernizatsiya qilish	46	270,5	0
Suv xo'jaligi	61	144,3	0
Ta'lim	8	111,7	0
Madaniyat	4	16,9	0
Kommunal	2	13,9	0
Sog'liqni saqlash	2	11,4	0
Hunarmandchilik	8	3,6	0
Qishloq xo'jaligi	1	0,2	0
Boshqalar	2	21,5	0
Jami	134	594,1	0


Bekor qilingan loyihalarining qariyb 80 foizi suv xo'jaligi va ijtimoiy soha obyektlariga to'g'ri keladi. Bu jarayon amaldagi loyihalar portfelini qayta ko'rib chiqish hamda o'rta muddatli moliyaviy rejalashtirish ko'rsatkichlarini muvofiqlashtirishga xizmat qildi.

Ushbu shartnomalarni bekor qilish jarayoni asosan tomonlarning o'zaro kelishuvi hamda monitoring natijalari asosida amalga oshirilgan. Bitim shartlariga muvofiq, shartnomalar to'xtatilgani munosabati bilan davlat tomonidan xususiy sheriklarga kompensatsiya to'lovlari to'lab berilmagan.

DXSh loyihalari bo'yicha yillik cheklovlar (limitlar) va ularning tahlili

DXSh portfelining jadal o'sishi va istiqboldagi fiskal majburiyatlarni tartibga solish maqsadida, 2025-yilda ilk bor yangi imzolanadigan loyihalar qiymatiga yillik limit o'rnatish amaliyoti joriy etildi. O'tgan yil yakunlariga ko'ra, jami 1 777 ta loyiha imzolangan bo'lib, ularning umumiy qiymati 3,7 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich qonun bilan belgilangan 6,5 mlrd AQSh dollarlik yillik cheklovning 56 foiz qismi o'zlashtirilganini ko'rsatmoqda.

Imzolangan loyihalarining asosiy qismi energetika sohasiga to'g'ri keladi (3,3 mlrd AQSh doll.), bunda ushbu yo'nalishda loyihalar soni nisbatan kam (19 ta) bo'lishiga qaramay, ularning o'rtacha hajmi yuqoriligi kuzatilgan.

42-diagramma. 2025-yilda imzolangan loyihalar soni va qiymati

Boshqa sohalarda, xususan transport (134,3 mln AQSh doll.), ta'lim (108,7 mln AQSh doll.) va qurilish (74,6 mln AQSh doll.) yo'nalishlarida loyiha qiymatlari ancha past darajada shakllangan. Sog'liqni saqlash (30 mln AQSh doll.), madaniyat (20,4 mln AQSh doll.), sport (7,9 mln AQSh doll.) va boshqa sohalarda ham qiymatlar nisbatan kichik. Shu bilan birga, suv ta'minoti va xo'jaligi sohasida loyihalar soni juda ko'p (1397 ta) bo'lsada, ularning umumiy qiymati atigi 3,8 mln AQSh dollarini tashkil etadi.

Umuman olganda, qiymat bo'yicha taqsimot yirik hajmdagi loyihalar energetika sohasida jamlanganini, boshqa yo'nalishlarda esa ko'proq kichik loyihalar ustunligini ko'rsatadi.

XVJ tavsiyalari hamda davlatning shartli majburiyatlari miqdorini nazorat qilish zarurati asosida, ushbu amaliyot 2026-yilda ham davom ettirildi. "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonunga muvofiq yangi imzolanadigan loyihalar qiymatining cheklangan miqdori 6,5 mlrd AQSh dollari darajasida belgilandi.

Ushbu limit davlat tomonidan majburiyatlar qabul qilinishi (sotib olinishi yoki to'lanishi) hamda tasdiqlovchi xatlar berilishi talab etiladigan barcha yangi bitimlarga nisbatan tatbiq etiladi. Bunday cheklovchi mexanizmning o'rnatilishi o'rta muddatli istiqbolda fiskal barqarorlikni ta'minlash, budjet yuklamasini prognozlashtirish va davlatning moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi potensial xatarlarni boshqarishda asosiy instrument bo'lib xizmat qiladi.


Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning DXSh doirasidagi majburiyatlarga ta'siri

DXSh loyihalari uzoq muddatli xarakterga ega ekani hamda bitimlarda xarajatlarni indeksatsiya qilish mexanizmlari ko'zda tutilgani sababli, davlatning ushbu yo'nalishdagi fiskal majburiyatlari makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning kutilayotgan prognozlardan chetlashishiga sezuvchan hisoblanadi. Xususan, inflyatsiya darajasining o'zgarishi loyiha doirasidagi ekspluatatsion xarajatlar va subsidiyalar hajmining bevosita ortishiga, valyuta kursidagi tebranishlar esa xorijiy valyutada denominatsiyalangan tariflar bo'yicha to'lovlarning keskin oshishiga sabab bo'ladi.

Joriy yilgi sezuvchanlik tahlilida inflyatsiya kutilmalarining bazaviy prognozlarga nisbatan chetlashishi bo'yicha to'rt xil ssenariy model sifatida tanlab olindi. Ushbu ssenariylar mamlakat iqtisodiyotining oldingi yillardagi dinamikasi va istiqboldagi ehtimoliy bosimlarni to'liq qamrab olishga qaratilgan.

Mazkur ssenariylar asosida DXSh loyihalari bo'yicha davlat budjetidan ajratiladigan to'lovlarning 2026–2029-yillar uchun kutilayotgan hajmi va ularning YIM hamda budjet daromadlariga nisbati baholandi. Quyida ushbu ssenariylarning amalga oshishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qo'shimcha fiskal yuklamaning tahliliy ko'rsatkichlari keltirilgan.


43-diagramma. Inflyatsiya ssenariylarining DXSh to'lovlariga ta'siri



Izoh: Tahlillar inflyatsiyaning barcha loyihalarga (energetika sektoridan tashqari) ta'siri farazi asosida quyidagi ssenariylarda o'tkazildi: bazaviy (joriy prognoz), 1-ssenariy (+3% standart chetlashuv), 2-ssenariy (+6% oxirgi 15 yillik tarixiy minimum) va 3-ssenariy (+14% maksimal shok holati)

2026–2029-yillarda DXSh loyihalari doirasidagi to'g'ridan-to'g'ri majburiyatlarning budget daromadlaridagi ulushi bazaviy ssenariyda 2026-yil uchun 1,6 foiz, 2029-yilga kelib esa 1,4 foizgacha tushishi mumkinligi prognoz qilinmoqda. Inflyatsiya darajasining DXSh bitimlarida belgilangan indeksatsiya qiymatlaridan yuqori darajada shakllanishi ushbu ko'rsatkichni oshirishi mumkin. Masalan, +14 foizlik maksimal shok ssenariysida yuklama 1,6 foizgacha ko'tarilishi mumkin.

44-diagramma. To'g'ridan-to'g'ri majburiyatlarning ssenariylar bo'yicha tahlillari



Baholashlarga ko'ra, inflyatsiya omili turli ssenariylar doirasida hisobga olingan taqdirda ham DXSh loyihalari bo'yicha davlatning to'g'ridan-to'g'ri majburiyatlarining YIMga nisbati umumiy hisobda past va barqaror darajada saqlanib qoladi. Xususan, bazaviy va 1-ssenariyda ushbu ko'rsatkich barcha yillar davomida 0,4 foiz darajasida shakllanganligini ko'rish mumkin.

Nisbatan yuqori inflyatsiya farazlari qo'llangan 2- va 3-ssenariylarda esa 2026-yilda qisqa muddatli oshish kuzatilib (0,5 foizgacha), keyingi yillarda yana 0,4 foiz darajasiga tushgan. Bu esa inflyatsiya shoklari ta'sirida majburiyatlar nisbatan oshishi mumkin bo'lsa-da, ularning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga nisbatan yuklamasi keskin o'zgarishsiz qolishini bildiradi.

Valyuta kursi tebranishlarining energetika loyihalari majburiyatlariga ta'siri


Energetika sohasida DXSh tamoyillari asosida imzolangan elektr energiyasini sotib olish va saqlash bitimlariga muvofiq, davlat ishtirokidagi korxonalarning to'lov majburiyatlari xorijiy valyutada kafolatlangan.

Bu esa mazkur loyihalar bo'yicha kelgusidagi fiskal majburiyatlarning milliy valyuta kursi o'zgarishlariga yuqori darajada bog'liqligini (sezuvchanligini) anglatadi. Valyuta kursining so'nggi yillardagi dinamikasidan kelib chiqib, tahlil doirasida yillik o'rtacha valyuta kursining 3 foizga chetlashishi ssenariylari¹² ko'rib chiqildi.

¹² 1-ssenariyda milliy valyuta kursining AQSh dollariga nisbatan qadrsizlanishi va 2-ssenariyda mustahkamlanishi tanlab olindi

Xususan, milliy valyutaning 3 foizga qadrsizlanishi nazarda tutilgan 1-ssenariyda to'lovlar bazaviy ssenariyga nisbatan yuqoriroq shakllanib, 2026-yilda 20,5 trln so'mni, 2029-yilga kelib esa 36,5 trln so'mni tashkil etgan. Aksincha, milliy valyutaning mustahkamlanishi nazarda tutilgan 2-ssenariyda to'lovlar hajmi kamayib, mos ravishda 19,3 trln so'mdan 34,4 trln so'mgacha shakllanishi mumkin.

45-diagramma. Energetika sohasidagi DXSh loyihalarining ssenariylar bo'yicha tahlillari



Shu bilan birga, energetika loyihalari bo'yicha to'lovlarning YIMga nisbati yuzasidan o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, barcha ssenariylarda ushbu ko'rsatkich o'rta muddatli davrda bosqichma-bosqich oshib boradi.

Xususan, bazaviy ssenariyda to'lovlar YIMga nisbatan 2026-yilda 0,91 foizni va 2029-yilga kelib 1,1 foizni tashkil etishi mumkinligi prognoz qilinmoqda. Yuqori valyuta shoklari nazarda tutilgan 1-ssenariy hamda nisbatan ijobiy sharoitlar aks etgan. 2-ssenariyda esa davlat korxonalari majburiyatlari mos ravishda YIMga nisbatan 2029-yilda 1,13 va 1,06 foizni tashkil etishi mumkin.

Umuman olganda, barcha ssenariylarda umumiy o'sish tendensiyasi saqlanib qoladi, bu esa loyihalarining bosqichma-bosqich ishga tushirilishi bilan bog'liq hisoblanadi. Natijalar energetika sohasidagi DXSh loyihalari bo'yicha to'lov majburiyatlari milliy valyutaning qadrsizlanishi sharoitida davlat korxonalari zimmasidagi moliyaviy yukning yanada ortishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

¹³ DXSh tamoyilida imzolangan barcha energetika bitimlaridan kelib chiqadigan to'lovlar davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan amalga oshiriladi

5.3. Davlat korxonalari va banklarining moliyaviy holati va transformatsiya jarayonlari

Iqtisodiy islohotlar doirasida davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatining davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirishga bog'liqligini kamaytirish maqsadida moliyalashtirish tizimi diversifikatsiya qilinib, tashqi investitsiyalarni jalb etish ustuvor yo'nalishga aylandi. Natijada, korxonalarning xalqaro moliya bozorlariga chiqishi va investitsiya faolligi oshib, bu jarayon yagona nazorat hamda samarali tartibga solish mexanizmlarini joriy etishni talab etdi.

Mazkur yo'nalishda 2022-yildan boshlab davlat korxonalari tomonidan tashqi qarzlarini jalb etish tartibini takomillashtirishga qaratilgan yangi yondashuv joriy etildi.


2026-yilda mavjud tizim yanada takomillashtirildi. Yangi tartibga ko'ra, monitoring doirasi kengaytirilib, moliyaviy majburiyatlari 50 mln AQSh dollaridan ortiq bo'lgan barcha yirik xo'jalik yurituvchi subyektlar, jumladan xususiy korxonalar ham qamrab olindi.

Hozirgi kunda 28 ta davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyati tizimli ravishda tahlil qilinmoqda.

26-jadval. Moliyaviy ko'rsatkichlari tahlil qilingan yirik davlat korxonalari ro'yxati

1	"O'zbektelekom" AJ	15	"O'zbekiston metallurgiya kombinati" AJ
2	"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ	16	"Uzbekistan airports" AJ
3	"O'zbekneftgaz" AJ	17	"Navoiyazot" AJ
4	"Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ	18	"Uzbekgidroenergo" AJ
5	"Issiqlik elektr stansiyalari" AJ	19	"Navoiyuran" DK
6	"O'zavtosanoat" AJ	20	"Toshkent metropoliteni" UK
7	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ	21	"O'zbekko'mir" AJ
8	"O'ztransgaz" AJ	22	"Toshshahartransxizmat" AJ
9	"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ	23	"Texnopark" MChJ
10	"Uzbekistan airways" AJ	24	"Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi" AJ
11	"O'zsuvta'minot" AJ	25	"Universal Mobile Systems" MChJ
12	"Hududgazta'minot" AJ	26	"O'zekspomarkaz" AJ
13	"O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ	27	"Sharg'unko'mir" AJ
14	"Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MChJ	28	"O'zenergosotish" AJ

46-diagramma. Moliyaviy holati baholanib boriladigan yirik davlat ishtirokidagi korxonalar soni, tarmoqlar kesimida




27-jadval. Yirik davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlari


	2021	2022	2023	2024	2025
Jami aktivlar, <i>trln so'm</i>	558,4	628	679,5	730,1	807,8
Jami majburiyatlar, <i>trln so'm</i>	296,9	365	395,1	417,1	451,9
O'z mablag'lari, <i>trln so'm</i>	261,4	263,1	284,4	313	355,9
Sof foyda, <i>trln so'm</i>	26,8	26,5	32,4	53,8	90,2
To'g'ridan-to'g'ri tashqi qarz qoldig'i (<i>mlrd AQSh doll</i>)	3	4,5	5,4	6,3	9,8
Davlat kafolati ostida jalb qilingan qarz qoldig'i (<i>mlrd AQSh doll</i>)	5,4	5,1	4,6	4,2	3,8

2025-yilda 28 ta davlat ishtirokidagi korxonalarning jami aktivlari 730,1 trln so'mdan 807,8 trln so'mga (10,6 foiz) oshib, sezilarli o'sish qayd etdi. Shu davrda majburiyatlar 417,1 trln so'mdan 451,9 trln so'mga (8,3 foiz) ko'paygan bo'lsa, o'z mablag'lari 313 trln so'mdan 355,9 trln so'mga (13,7 foiz) yetib, korxonalarning moliyaviy barqarorligi yanada mustahkamlanganini ko'rsatdi.

47-diagramma. Korxonalarning moliyaviy holati



48-diagramma. Davlat korxonalarining to'g'ridan-to'g'ri tashqi qarzi va ularga taqdim etilgan davlat kafolati



Sof foyda 53,8 trln so'mdan 90,2 trln so'mga (67,7 foiz) keskin oshdi. Bu o'sish umumiy operatsion natijalarning ijobiy dinamikaga ega ekanini tasdiqlaydi.

Joriy aktivlar 223,4 trln so'mdan 262,1 trln so'mga (17,3 foiz) oshib, likvidlikning yaxshilanishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, uzoq muddatli aktivlar 506,7 trln so'mdan 545,8 trln so'mga (7,7 foiz) o'sdi. Natijada, qisqa muddatli to'lov qobiliyati mustahkamlandi va aktivlar tarkibida likvid aktivlar ulushi ortdi.

Joriy majburiyatlar 173,3 trln so'mdan 175,4 trln so'mga (1,2 foiz) oshgan bo'lsa, uzoq muddatli majburiyatlar 243,8 trln so'mdan 276,5 trln so'mga (13,4 foiz) ko'paydi. Bu holat qarz yukining asosiy qismi uzoq muddatli manbalarga to'g'ri kelayotganini va qayta moliyalashtirish xatarlari nisbatan past darajada ekanini anglatadi.


To'g'ridan-to'g'ri tashqi qarz qoldig'i 2025-yilda 6,3 mlrd AQSh dollaridan 9,8 mlrd AQSh dollariga (55,6 foiz) oshib, YIMdagi ulushi 5,2 foizdan 6,7 foizga ko'tarildi. Shu bilan birga, davlat kafolati ostidagi qarzlar 4,2 mlrd AQSh dollaridan 3,8 mlrd AQSh dollariga (9,5 foiz) kamaydi. Bu esa korxonalar bosqichma-bosqich davlat kafolatiga tayanmasdan, bozor mexanizmlari orqali mustaqil moliyalashtirishga o'tayotganini hamda davlat budjetiga tushadigan yuk kamayib borayotganini ko'rsatadi.

Umumiy tendensiyaga nazar tashlasak, so'nggi 5 yil ichida ham barqaror o'sish kuzatilgan. Jami aktivlar 558,4 trln so'mdan 807,8 trln so'mga (44,7 foiz), majburiyatlar 296,9 trln so'mdan 451,9 trln so'mga (52,2 foiz), o'z mablag'lari esa 261,4 trln so'mdan 355,9 trln so'mga (36,2 foiz) oshgan.

Shu bilan birga, sof foyda 26,8 trln soʻmdan 90,2 trln soʻmga (236,6 foiz) keskin koʻpaygan boʻlib, korxonalar rentabelligi sezilarli darajada yaxshilanganini koʻrsatadi. Tashqi qarz qoldigʻi esa 3 mlrd AQSh dollaridan 9,8 mlrd AQSh dollariga (226,7 foiz) oshgan boʻlsada, davlat kafolati ostidagi qarzlar 5,4 mlrd dollardan 3,8 mlrd dollarga (29,6 foiz) kamaygani moliyalashtirishda xususiy va bozor asosidagi mexanizmlar ulushi ortib borayotganini anglatadi.

49-diagramma. 2026–2030-yillar davomidagi toʻgʻridan-toʻgʻri tashqi qarz qoldigʻi hamda toʻlovlari

mlrd AQSh doll.



Izoh: Mazkur koʻrsatkichlar hisobot sanasidagi (2025-yil yakuni) mavjud qarz portfeli boʻyicha hisoblangan boʻlib, kelgusida jalb qilinadigan yangi qarzlarni oʻz ichiga olmaydi.

Taqdim etilgan maʼlumotlar korxonalarning toʻgʻridan-toʻgʻri tashqi qarz portfeli 2026-yildan 2030-yilgacha boʻlgan davrda barqaror va ijobiy dinamikada namoyon etishini koʻrsatadi. Umumiy tahlil shuni tasdiqlaydiki, korxonalarning tashqi qarz yuki bosqichma-bosqich yengillashib bormoqda va prognoz davri oxiriga kelib deyarli toʻliq yopilishi kutilmoqda.


Qarz qoldigʻi 2026-yil oxirida 8,3 mlrd AQSh dollarini tashkil etishi, 2030-yilga borib 0,9 mlrd AQSh dollarigacha kamayishi kutilmoqda. Yaʼni prognoz davrida qarz hajmi 7,4 mlrd AQSh dollariga yoki 89,2 foizga qisqaradi. Bu koʻrsatkich korxonalarning moliyaviy majburiyatlar yukidan samarali xalos boʻlib borayotganini va uning qarz barqarorligi pozitsiyasi sezilarli darajada mustahkamlanayotganini aks ettiradi.

Tahlil qilinayotgan davrda jami 8,5 mlrd AQSh dollarlik asosiy qarz qaytariladi. Ushbu toʻlovlarning eng katta qismi, yaʼni 3,1 mlrd AQSh dollari yoki 36,5 foizi 2028-yilga toʻgʻri keladi. Boshqa yillarda toʻlovlar nisbatan tekis taqsimlangan.

Foiz to'lovlari prognoz davrida izchil pasayib boradi. 2026-yilgi 0,5 mlrd AQSh dollaridan 2030-yilga borib 0,2 mlrd AQSh dollarigacha, yoki 60 foizga kamayadi. Shuningdek, qarzga xizmat ko'rsatish tarkibida foiz ulushi 2026-yilgi 27,8 foizdan 2030-yilda 10 foizgacha pasayadi. Bu ko'rsatkichlar qarzning sog'lom amortizatsiyalanishini, qimmat turadigan foiz yukining asta-sekin bartaraf etilayotganini va moliyaviy samaradorlik oshayotganini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi tahlil natijalari korxonalarning to'g'ridan-to'g'ri tashqi qarz bo'yicha holati ijobiy baholanishi uchun yetarli asos yaratadi. Qarz qoldig'ining barqaror va sezilarli darajada pasayish tendensiyasi, foiz xarajatlarning yildan-yilga kamayib borishi, to'lov jadvalining oldindan aniq belgilanganligi hamda 2030-yilga kelib qarz portfelining deyarli to'liq yopilishi, bularning barchasi korxonalarning qarz yukini boshqarish siyosati samarali ekanligini ko'rsatadi. Ushbu omillarni inobatga olgan holda, korxonalarning to'g'ridan-to'g'ri tashqi qarz bo'yicha xatar darajasi past deb baholanishi mumkin. Ayni paytda, 2028-yilga mo'ljallangan yuqori hajmdagi asosiy to'lovni o'z vaqtida va uzluksiz bajarish uchun pul oqimlarini oldindan rejalashtirish va zarur zaxira manbalarini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

50-diagramma. 2026–2030-yillardagi to'g'ridan-to'g'ri tashqi qarz qoldiqlarining YIMga nisbati prognozlari.



Asosiy taxminlar


- ✓ Bazaviy ssenariyda valyuta kurslari 2025-yilning o'rtacha darajasida 2030-yilgacha o'zgarmasdan saqlanadi.
- ✓ Stress ssenariylarda 2025-yil o'rtacha kursga nisbatan +5 foiz, +10 foiz, -5 foiz va -10 foiz kurs o'zgarishi qo'llaniladi.
- ✓ Shok faqat kurslarga ta'sir qiladi, YIM prognozi barcha ssenariylarda bir xil qoladi.
- ✓ To'g'ridan-to'g'ri tashqi qarz bir nechta valyutada shakllangan: AQSh dollari, yevro, Xitoy yuani va boshqa valyutalar.
- ✓ «+» belgisi so'mning zaiflashishini (devalvatsiya), «-» belgisi so'mning mustahkamlanishini anglatadi.

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, to'g'ridan-to'g'ri tashqi qarzning YIMga nisbati barcha besh ssenariylarda 2026-yildan 2030-yilga qadar izchil pasayib boradi. Bazaviy ssenariyda nisbat 2026-yildagi 4,91 foizdan 2030-yilga 0,34 foizga kamayadi, ya'ni, deyarli 14 baravar qisqaradi. Bu tendensiya qarz qoldig'ining mavjud amortizatsiya jadvaliga muvofiq kamayishi va YIMning izchil o'sishining birgalikdagi natijasi hisoblanadi.

Eng og'ir stress ssenariyda (so'mning 10 foizlik zaiflashuvi) 2026-yilda nisbat 5,40 foizni, eng yengil ssenariyda (kursning 10 foizga mustahkamlanishi) esa 4,42 foizni tashkil etadi. Bazaviy holatdan maksimal chekinish 0,49 foiz banddan oshmaydi, bu esa qarz portfelining valyuta kursi o'zgarishiga past sezgirligini ko'rsatadi.

Shuningdek, ssenariylararo farqlar vaqt o'tishi bilan torayib boradi. 2026-yilda eng yengil va eng og'ir ssenariylar o'rtasidagi tafovut 0,98 foiz bandni tashkil etsa, 2030-yilga kelib atigi 0,07 foiz bandga qisqaradi. Bu qarz qoldig'ining muttasil kamayishi bilan kurs shokining kumulyativ ta'siri ham proporsional ravishda cheklanishini anglatadi, ya'ni, prognoz davrining oxiriga kelib tizim valyuta kursi o'zgarishiga deyarli sezgir bo'lmay qoladi.

51-diagramma. 2026–2030-yillardagi to'g'ridan-to'g'ri tashqi qarz qoldiqlarining YIMga nisbati prognozlari.



Asosiy taxminlar

- ✓ Bazaviy ssenariyda 2026–2030-yillar uchun valyuta kurslari prognozidan foydalanildi.
- ✓ Tashqi qarz majburiyatlari asl valyutalarida (USD, EUR, CNY va boshqalar) hisobga olinib, kurslar prognozi orqali AQSh dollariga aylantirildi.
- ✓ Aylantirilgan qarz qoldig'i YIM (AQSh doll.) ga nisbatan hisoblandi va Qarz/YIM (foiz) ko'rsatkichi aniqlandi.
- ✓ Stress ssenariylarda bazaviy prognoz kurslarga nisbatan +3 foiz va -3 foiz og'ish qo'llanildi, ya'ni, kurslar mos ravishda 3 foiz yuqori yoki past deb taxmin qilindi.
- ✓ Og'ish faqat valyuta kurslariga tatbiq etilgan; YIM prognozi barcha ssenariylarda o'zgarishsiz qolgan.

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, to'g'ridan-to'g'ri tashqi qarzning YIMga nisbati barcha uch ssenariyda 2026-yildan 2030-yilga qadar izchil pasayib boradi. Bazaviy ssenariyda nisbat 2026-yildagi 5,05 foizdan 2030-yilda 0,39 foizga kamayadi, ya'ni, deyarli 13 baravar qisqaradi. Bu tendensiya qarz qoldig'ining mavjud amortizatsiya jadvaliga muvofiq kamayishi va YIMning izchil o'sishining birgalikdagi natijasi hisoblanadi.

Valyuta kursi +3 foizga zaiflashgan stress ssenariyda 2026-yilda nisbat 5,20 foizni, -3 foizga mustahkamlangan ssenariyda esa 4,90 foizni tashkil etadi. Bazaviy holatdan maksimal chekinish 0,15 foiz banddan oshmaydi, bu esa qarz portfelining valyuta kursi o'zgarishiga past sezgirligini ko'rsatadi.

28-jadval. Davlat ishtirokidagi korxonalarning fiskal xatar ko'rsatkichlari

	2021	2022	2023	2024	2025
Likvidlik					
Joriy likvidlik darajasi (nisbat)	1,25	1,23	1,42	1,29	1,49
Tez likvidlik darajasi (nisbat)	0,9	0,85	1	0,84	1
Kunlik debitor qarzlarni aylanmasi (kun)	37,3	44,1	34,2	34,9	34,4
To'lov qobiliyati					
Majburiyatlarning kapitalga nisbati	1,14	1,39	1,39	1,33	1,27
Majburiyatlarning aktivlarga nisbati	0,53	0,58	0,58	0,57	0,56
Daromadlik					
Sof foyda marjasi, foizda	10,4	9,3	8,2	11,4	15,9
Operatsion foyda marjasi, foizda	22,6	18,3	17,1	21,2	27,4
Aktivlarning rentabelligi, foizda	4,8	4,2	4,8	7,4	11,2
Kapitalning rentabelligi, foizda	10,3	10,1	11,4	17,2	25,3

Izoh: Davlat ishtirokidagi korxonalar taqdim etgan ma'lumotlar asosida tayyorlandi.

Shuningdek, ssenariylararo farqlar vaqt o'tishi bilan torayib boradi. 2026-yilda eng yuqori va eng past ssenariylar o'rtasidagi tafovut 0,30 foiz bandni tashkil etsa, 2030-yilga kelib atigi 0,02 foiz bandga qisqaradi. Bu qarz qoldig'ining muttasil kamayishi bilan kurs shokining kumulyativ ta'siri ham proporsional ravishda cheklanishini anglatadi, ya'ni, prognoz davrining oxiriga kelib tizim valyuta kursi o'zgarishiga deyarli sezgir bo'lmay qoladi.

2025-yilning yakuni bo'yicha, 28 ta davlat ishtirokidagi korxonalarning likvidlik hamda to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari yaxshilandi. Shuningdek, korxonalarning daromadlik qobiliyati ko'rsatkichlarida sezilarli darajada o'sish kuzatildi.


Joriy likvidlik darajasi 2025-yilda 1,49 ni tashkil etdi va 2024-yilga nisbatan (1,29) sezilarli yaxshilandi, ya'ni 0,2 punktga oshdi. Mazkur ko'rsatkich o'rta xatar toifasida saqlanib qoldi, biroq past xatar chegarasiga yaqinlashdi. Ushbu ijobiy o'zgarish joriy aktivlarning 223,4 trln so'mdan 262,1 trln so'mga sezilarli oshgani, joriy majburiyatlarning esa nisbatan past sur'atlarda o'sgani bilan izohlandi. Natijada, korxonalarning qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash qobiliyati mustahkamlandi.

Tez likvidlik darajasi 2025-yilda 1,0 ni tashkil etdi va 2024-yilgi 0,8 ga nisbatan 0,2 punktga oshdi. Natijada ko'rsatkich o'rta xatar darajasidan chiqib, past xatar toifasiga yetdi. Bu esa eng likvid aktivlar hisobidan qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash imkoniyati sezilarli yaxshilanganini ko'rsatdi.

Umuman olganda, so'nggi besh yil davomida joriy likvidlik darajasi 1,25 dan 1,49 gacha o'zgarib bordi. 2021–2022-yillarda ko'rsatkich yuqori xatar chegarasiga yaqin bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda yaxshilandi va keyingi yillarda o'rta xatar darajasida barqarorlashdi, 2025-yilda esa past xatar chegarasiga yaqinlashdi.

Tez likvidlik darajasi 0,9 dan 1,0 oralig'ida shakllandi: 2024-yilda 0,8 gacha pasayib, o'rta xatar darajasining quyi chegarasiga tushdi, 2025-yilda esa tiklanib, past xatar toifasiga yetdi. Natijada, korxonalarining likvidlik darajasi va qisqa muddatli to'lov qobiliyati ijobiy dinamikani namoyon etdi.

52-diagramma. Davlat ishtirokidagi korxonalarning likvidlik ko'rsatkichlari



Korxonalarning to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari joriy yil natijalariga ko'ra, "o'rta xatar" darajasini saqlab qoldi. Jumladan, majburiyatlarning kapitalga nisbati 2025-yilda 1,27 ni tashkil etdi va 2024-yilga nisbatan (1,33) 0,06 punktga pasaydi. Mazkur ko'rsatkich o'rta xatar toifasida saqlanib qoldi, biroq qarz yukining kapitalga nisbatan bosimi biroz kamayganini ko'rsatdi.


Bu o'zgarish, asosan, o'z mablag'larining 313,0 trln so'mdan 355,9 trln so'mga tezroq o'sishi fonida, majburiyatlarning nisbatan pastroq sur'atda oshgani bilan izohlandi. Natijada, kapital tuzilmasi nisbatan barqarorlashdi va moliyaviy mustaqillik darajasi yaxshilandi. Majburiyatlarning aktivlarga nisbati 2025-yilda 0,56 ni tashkil etdi va 2024-yildagi 0,57 ga nisbatan biroz pasaydi.

Ushbu ko'rsatkich ham o'rta xatar darajasida qolgan bo'lsada, aktivlarning majburiyatlarga nisbatan tezroq o'sishi hisobiga umumiy qarz yukining aktivlar bilan qoplanish darajasi yaxshilandi. Bu holat korxonalarning umumiy moliyaviy barqarorligi mustahkamlanganini anglatdi.

Umuman olganda, so'nggi besh yil davomida qarzning kapitalga nisbati 1,14 dan 1,39 gacha oshib, 2022–2023-yillarda eng yuqori darajaga yetdi va keyingi yillarda pasayish tendensiyasini namoyon etdi hamda 2025-yilda 1,27 gacha tushdi. Bu davrda ko'rsatkich doimiy ravishda o'rta xatar toifasida saqlanib qoldi.

Qarzning aktivlarga nisbati esa 0,53 dan 0,58 gacha oshib, 2022–2023-yillarda yuqori nuqtaga chiqdi, so'ngra 2025-yilda 0,56 gacha pasaydi va o'rta xatar darajasida barqarorlashdi.

53-diagramma. Davlat ishtirokidagi korxonalarning to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari



Natijada, korxonalarda qarz yukining nisbiy darajasi pasayish yo'liga o'tdi, kapital bazasi mustahkamlandi va umumiy to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari ijobiy tomonga o'zgardi, biroq ular hali ham o'rta xatar darajasida saqlanib qoldi.

Sof foyda marjasi 2025-yilda 15,9 foizni tashkil etdi va 2024-yilga nisbatan (11,4 foiz) 4,5 punktga oshdi. Mazkur ko'rsatkich butun davr davomida past xatar toifasida saqlanib keldi, 2025-yilda esa sezilarli darajada yaxshilandi. Bu o'sish sof foydaning 53,8 trln so'mdan 90,2 trln so'mga tez sur'atlarda oshgani hamda asosiy faoliyat daromadlarining barqaror kengaygani bilan izohlandi.

Operatsion foyda marjasi 2025-yilda 27,4 foizni tashkil etdi va 2024-yilga nisbatan (21,2 foiz) 6,2 punktga oshdi. Ko'rsatkich barcha yillarda past xatar darajasida bo'ldi, biroq 2022–2023-yillarda nisbatan pasayish kuzatilganidan so'ng, 2024–2025-yillarda keskin tiklandi. Bu operatsion foydaning 100,4 trln so'mdan 155,2 trln so'mga o'sishi bilan bog'liq bo'ldi.

Aktivlarning rentabelligi 2025-yilda 11,2 foizga yetdi va 2024-yilgi 7,4 foizga nisbatan 3,8 punktga oshdi. Ko'rsatkich barcha yillarda past xatar toifasida shakllandi, 2025-yilda esa aktivlardan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada oshdi.

Bu holat sof foydaning aktivlarga nisbatan tezroq o'sishi bilan izohlandi. Kapitalning rentabelligi 2025-yilda 25,3 foizni tashkil etdi va 2024-yilga nisbatan (17,2 foiz) 8,1 punktga oshdi. Ushbu ko'rsatkich ham barcha yillarda past xatar darajasida saqlandi va 2025-yilda eng yuqori darajaga chiqdi. Bu o'z mablag'lari asosida yaratilgan daromadlilikning keskin oshganini ko'rsatdi.

Umuman olganda, so'nggi besh yil davomida rentabellik ko'rsatkichlari barqaror ijobiy dinamikani namoyon etdi. Sof foyda marjasi 10,4 foizdan 15,9 foizgacha oshdi, operatsion foyda marjasi 22,6 foizdan 27,4 foizgacha ko'tarildi. Aktivlarning rentabelligi 4,8 foizdan 11,2 foizgacha, kapitalning rentabelligi esa 10,3 foizdan 25,3 foizgacha oshdi. 2022–2023-yillarda ayrim ko'rsatkichlarda qisqa muddatli pasayish kuzatilgan bo'lsada, 2024–2025-yillarda keskin o'sish qayd etildi.


Natijada, korxonalarning daromadlilik darajasi yuqori bo'lib qoldi, barcha asosiy rentabellik ko'rsatkichlari past xatar toifasida shakllandi va 2025-yilda moliyaviy samaradorlikning sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

2025-yil yakunlariga ko'ra tarmoqlar kesimidagi tahlil strategik sohalarda operatsion daromadlilik shakllanganini, leveraj darajalari bo'yicha esa xatarlar turlicha taqsimlanganini ko'rsatdi. Energetika tarmog'ida 8,9 trln so'm sof foyda va 16,8 trln so'mlik EBITDA qayd etildi, bunda 3,6 darajadagi qarz/EBITDA ko'rsatkichi yuqori xatar darajasida shakllandi.


Shunga o'xshash holat transport tarmog'ida ham kuzatildi: sof foyda 3,1 trln so'mni, EBITDA 10,1 trln so'mni tashkil etdi va leveraj 4,0 darajasida yuqori xatar toifasida saqlanib qoldi. Neft va gaz sohasida 11,8 trln so'm sof foyda va 23,7 trln so'm EBITDA qayd etildi, leveraj koeffitsiyenti esa 2,9 darajasida bo'lib, o'rta xatar darajasini ko'rsatdi.

54-diagramma. Davlat ishtirokidagi korxonalarning daromadlik ko'rsatkichlari.**A. Sof foyda marjasi:**


- hisoblanishi: $\frac{\text{sof foyda(zarar)}}{\text{jami daromadlar}}$
- past xatar darajasi – 8 foiz dan yuqori*

**B. Operatsion foyda marjasi:**

- hisoblanishi: $\frac{\text{operatsion foyda(zarar)}}{\text{jami daromadlar}}$
- past xatar darajasi: 10 foiz dan yuqori*

**C. Aktivlarning rentabelligi:**

- hisoblanishi: $\frac{\text{sof foyda(zarar)}}{\text{jami aktivlar}}$
- past xatar darajasi – 4 dan yuqori*

**D. Kapitalning rentabelligi:**

- hisoblanishi: $\frac{\text{sof foyda(zarar)}}{\text{jami o'zmaslag'leri}}$
- past xatar darajasi: 8 dan yuqori*


* Vazirlar Mahkamasining 670-son qaroriga asosan

29-jadval. 2025-yilda davlat ishtirokidagi korxonalarning tarmoqlar bo'yicha moliyaviy hamda leveraj ko'rsatkichlari

trln so'm

Tarmoq	Sof foyda	EBITDA	Jami qarz	Qarz / EBITDA
Neft va gaz	11,7	23,7	67,7	2,9
Transport	3,1	10,1	40,7	4,0
Energetika	8,8	16,8	60,9	3,6
Aloqa va kommunikatsiya	0,7	4,0	9,1	2,3
Sanoat	5,4	10,9	22,4	2,1
Tog'-kon sanoati	60,5	119,4	85,6	0,7 ¹⁴


¹⁴ EBITDA – foizlar, soliqlar va amortizatsiya xarajatlari hisobga olinmagan holdagi asosiy operatsion foyda

55-diagramma. 2025-yilda davlat ishtirokidagi korxonalarning leveraj ko'rsatkichi

Shu bilan birga, sanoat va aloqa-kommunikatsiya tarmoqlarida nisbatan muvozanatli holat kuzatildi: sanoatda sof foyda 5,5 trln so'm, EBITDA 10,9 trln so'mni tashkil etdi va leveraj 2,1 darajasida o'rta xatar toifasida shakllandi, aloqa va kommunikatsiya tarmog'ida esa 0,8 trln so'm sof foyda va 4,0 trln so'm EBITDA fonida leveraj¹⁵ 2,3 darajasida bo'lib, o'rta xatar darajasida saqlandi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, tog'-kon sanoatida 60,6 trln so'm sof foyda va 119,4 trln so'mlik EBITDA shakllandi hamda leveraj 0,7 darajasida bo'lib, eng past xatar ko'rsatkichini namoyon etdi.


Umuman olganda, energetika va transport tarmoqlarida leveraj darajasining yuqoriligi yirik investitsion va modernizatsiya loyihalari bilan bog'liq bo'ldi, sanoat, neft-gaz hamda aloqa tarmoqlarida esa qarz yukining nisbatan muvozanatli darajada saqlanishi kuzatildi. Shu bilan birga, barcha tarmoqlarda ijobiy EBITDA mavjudligi operatsion faoliyat orqali majburiyatlarga xizmat ko'rsatish imkoniyati yetarli ekanini ko'rsatdi, tog'-kon sanoati esa yuqori daromadlilik va past qarz yukining kombinatsiyasi bilan ajralib turdi.

56-diagramma. Sanoat sohasidagi davlat ishtirokidagi korxonalarining leveraj ko'rsatkichlari¹⁵ Leveraj – jami qarz/EBITDA

2025-yil yakunlari 2024-yil bilan qiyoslanganda, strategik tarmoqlarda operatsion samaradorlikning jadal o'sishi va moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishi kuzatildi. Xususan, tog'-kon sanoatida sof foyda bir yil ichida 38,7 trln so'mdan 60,6 trln so'mga (56,5 foiz o'sish), EBITDA esa 80,1 trln so'mdan 119,4 trln so'mga (49 foiz o'sish) yetishi fonida leveraj koeffitsiyenti 1,0 dan 0,7 ga tushib, past xatar darajasini saqlab qoldi.

Sanoat tarmog'ida ham ijobiy dinamika qayd etilib, sof foyda 3,9 trln so'mdan 5,5 trln so'mga oshishi va jami qarzning 23,7 trln so'mdan 22,5 trln so'mga qisqarishi natijasida leveraj 2,8 dan 2,1 gacha pasayib, soha barqaror o'rta xatar chegarasida saqlandi. Umumiy besh yillik tendensiya tahlili shuni ko'rsatadiki, 2021–2025-yillar davomida har ikki tarmoqda ham EBITDA va sof foydaning bir necha barobar ortishi hisobiga leveraj koeffitsiyentlari sezilarli darajada optimallashti va korxonalarining qarz yuklamasini mustaqil boshqarish salohiyati tubdan yaxshilandi.

57-diagramma. Transport, aloqa va kommunikatsiya sohalaridagi davlat ishtirokidagi korxonalarining leveraj ko'rsatkichlari



2025-yil yakunlari bo'yicha transport hamda aloqa va kommunikatsiya sohalarida operatsion ko'rsatkichlarning jadal o'sishi hisobiga moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi. Xususan, transport tarmog'ida sof foyda 2024-yildagi 1,0 trln so'mdan 3,1 trln so'mga, EBITDA esa 7,5 trln so'mdan 10,1 trln so'mga ko'tarildi, bu esa o'z navbatida leveraj koeffitsiyentining 5,1 dan 4,0 gacha pasayishini ta'minladi.


Aloqa va kommunikatsiya yo'nalishida ham yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi: EBITDA hajmi bir yil ichida 60 foizga ortib, 4,0 trln so'mga yetdi va leveraj darajasini 3,5 dan 2,3 gacha tushirib, sohani yuqori xatarli hududdan o'rta xatar chegarasiga olib o'tdi.

Umumiy besh yillik dinamikaga nazar tashlasak, 2021–2025-yillar davomida har ikki tarmoqda qarz majburiyatlarining mutlaq qiymati ortgan bo'lsada, operatsion foyda olish salohiyatining yanada jadalroq o'sishi natijasida leveraj ko'rsatkichlarini optimallashtirishga va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga erishildi.

2025-yil natijalariga ko'ra, neft-gaz va energetika sektorlarida operatsion samaradorlikning ortishi fonida leveraj darajasi va xatarlar dinamikasida turlicha o'zgarishlar qayd etildi. Energetika tarmog'i hisobot yilida salmoqli natijalarni namoyon etib, sof foydani 2024-yildagi -0,4 trln so'mdan 8,9 trln so'mga, EBITDA hajmini esa 6,0 trln so'mdan 16,8 trln so'mga oshirishga erishdi, bu esa leveraj koeffitsiyentining 9,3 dan 3,6 gacha keskin pasayishini ta'minladi. Neft va gaz sohasida esa 2025-yilda jami qarz miqdorining 67,7 trln so'mga yetishi va EBITDA ko'rsatkichining 23,7 trln so'mga tushishi natijasida leveraj darajasi 2,3 dan 2,9 gacha ko'tarilib, xatar darajasi o'rta darajada saqlanib qoldi.

Besh yillik umumiy tendensiyanı baholaganda, energetika tarmog'ida leverajning 14,1 dan 3,6 gacha tizimli ravishda pasayishi moliyaviy barqarorlikning tiklanayotganidan dalolat bersa, neft-gaz sektorida qarz majburiyatlarining o'zgaruvchan dinamikasi va investitsion ehtiyojlar leveraj koeffitsiyentining tebranishiga asosiy sabab bo'lmoqda.

58-diagramma. Energetika va neft-gaz sohasidagi davlat ishtirokidagi korxonalarning leveraj ko'rsatkichlari



Davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG¹⁶ tamoyillarining joriy etilishi va transformatsiya jarayonlari

ESG tamoyillari joriy qilingan davlat ishtirokidagi korxonalar.

2025-yil davomida transformatsiya jarayonidagi 13 ta yirik davlat korxonalari tomonidan xalqaro SASB¹⁷ va GRI¹⁸ standartlariga muvofiq barqaror rivojlanish hisobotlari tayyorlandi. Xususan, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati”, “Navoiyuran”, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati”, “O‘zbekneftgaz”, “O‘ztransgaz”, “Issiqlik elektr stansiyalari”, “Hududiy elektr tarmoqlari”, “O‘zbekgidroenergo”, “Navoiyazot”, “Uzbekistan airways”, “Toshshahartransxizmat”, “O‘zavtosanoat” (shu jumladan “UzAuto Motors” nomidan) hamda “O‘zbektelekom” ushbu jarayonni amalga oshirgan korxonalar sirasiga kiradi.

Transformatsiya qilinadigan davlat ishtirokidagi korxonalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-avgustdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-283-son qaroriga asosan, davlat ishtirokidagi 22 ta yirik korxonalar ustav kapitalidagi davlat aksiya (ulushlari) paketlari Iqtisodiyot va moliya vazirligiga o‘tkazilgan bo‘lib, 2025-yil davomida ushbu korxonalarda quyidagi yo‘nalishlarda faol ishlar amalga oshirildi.

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va audit. 22 ta korxonada 2024-yilgi moliyaviy hisobotlarni IFRS¹⁹ asosida tayyorlash va auditdan o‘tkazish bo‘yicha tender jarayonlari tashkil etildi. Hozirgi kunga qadar 19 ta korxonaning 2024-yilgi IFRS asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlari auditdan o‘tkazildi.

ESG reytinglari. 8 ta korxona tomonidan ESG reytinglari olindi, 2 ta korxona – “O‘zmetkombinat” va “O‘zbekgidroenergo” tomonidan esa mavjud reytinglar yaxshilandi. Natijada, ESG reytingiga ega korxonalar soni jami 11 taga yetdi: “Navoiy KMK”, “Navoiyuran”, “Olmaliq KMK”, “O‘zbekneftgaz”, “Hududiy elektr tarmoqlari”, “Uzbekistan airways”, “Uzbekistan airports”, “O‘zbektelekom”, “O‘zmetkombinat”, “O‘zbekgidroenergo” va “O‘zkimyosanoat”.

Xalqaro obligatsiyalar. Jami 2 mlrd AQSh dollariga teng xalqaro obligatsiyalar London fond birjasida joylashtirildi. Jumladan: “Navoiy KMK” – 500 mln AQSh doll, “O‘zbekneftgaz” – 850 mln AQSh doll., “Navoiyuran” – 300 mln AQSh doll., “UzAuto Motors” – 350 mln AQSh doll.

¹⁶ **ESG-reyting** –atrof-muhitga ta’siri, ijtimoiy mas’uliyati va korporativ boshqaruv sifati bo‘yicha baholovchi reyting.

¹⁷ The Sustainability Accounting Standards Board - investorlar uchun muhim bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor qilish standartlari tizimi

¹⁸ Global Reporting Initiative - tashkilotlarning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta’sirlari haqida hisobot tayyorlash uchun qo‘llaniladigan xalqaro barqarorlik hisobotlari standarti

¹⁹ Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari

Forenzik audit. 12 ta korxonaning 2024-yilgi xaridlar tizimi forenzik auditdan o'tkazildi: "Navoiy KMK", "Navoiyuran", "Olmaliq KMK", "O'zbekneftgaz", "O'ztransgaz", "Hududgazta'minot", "O'zgaztrejd", "Hududiy elektr tarmoqlari" va "O'zavtosanoat".

2025-yilda tegishli xususiylashtirish dasturlariga muvofiq **41 trln so'mlik** aktivlar va yer uchastkalari savdolarga chiqarildi.

Yirik davlat aktivlari – “Samarqand avtomobil zavodi” MChJ QK, “Invest Group Centre” MChJ, “O'zBAT A.O.” AJ QK, “Avto climate control” MChJ, “Avtooyna” MChJ, “Uz truck and Bus Motors” MChJ ustav kapitalidagi davlat ulushlari xususiylashtirildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi "Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni xalqaro bozorlarda xususiylashtirish to'g'risida"gi PQ-145-son qaroriga asosan 12 ta yirik korxonalarni xalqaro va mahalliy fond bozorlarida aksiyalarining birlamchi (IPO) va (yoki) ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifini o'tkazish belgilandi.

Davlat ishtirokidagi yirik korxonalar ommaviy savdolarga chiqarilishi qayd etildi. Xususan, "O'zagrosug'urta" AJ, "UzAuto Motors" AJ, "UzAuto Motors Powertrain" AJning aksiyalar paketlari ommaviy savdolarga chiqarilishi rejalashtirildi.

“Universal Mobile Systems” MChJ (MobiUz) ustav kapitalidagi 100 foiz davlat ulushini xususiylashtirish jarayoni yakuni bo'yicha AQShning "McKim and Company" kompaniyasi boshchiligidagi moliyaviy investorlar va sohaviy texnologik hamkor "JVR Enterprises LLC" (DBA – "JVR Capital Group") ishtirokidagi konsorsium taklifi g'olib deb topildi.

Xalqaro kredit reytingga ega davlat ishtirokidagi korxonalar

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining kredit reytingi davlatning nisbatan past darajadagi davlat qarzi, yuqori iqtisodiy o'sish sur'ati va iqtisodiyotni liberallashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar natijasida "S&P" kredit agentligi tomonidan (barqaror) kutilmali "BB", "FITCH" reyting agentligi tomonidan (ijobiy) kutilmali "BB", "Moody's" kredit agentligi tomonidan esa (barqaror) kutilmali "Ba2" reyting darajasida baholandi.

Davlat ishtirokidagi 28 ta korxonaning 12 tasi ushbu xalqaro kredit reyting tashkilotlari tomonidan baholangan. 2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, ularning aksariyati (barqaror) "BB" uzoq muddatli kredit reyting natijasiga ko'ra toifalandi.

30-jadval. Xalqaro kredit reytingiga ega davlat ishtirokidagi korxonalar

	“FITCH”	“S&P”	“Moody’s”
O‘zbekiston Respublikasi	BB (Barqaror)	BB (Barqaror)	Ba3 (Barqaror)
Davlat korxonalari			
“Navoiy KMK” AJ	BB(Barqaror)	BB (Barqaror)	-
“Olmaliq KMK” AJ	BB (Barqaror)	BB- (Barqaror)	-
“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	BB (Barqaror)	-	-
“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ	BB (Barqaror)	-	-
“O‘zbekgidroenergo” AJ	BB (Barqaror)	-	-
“UzAuto Motors” AJ	BB - (Barqaror)		Ba3 (Barqaror)
“Uzmetkombinat” AJ	B+ (Barqaror)	-	-
“O‘zbekneftgaz” AJ	BB (Barqaror)	BB - (Barqaror)	-
“Navoiyuran” DK	BB (Barqaror)	BB -(Ijobiy)	-
“O‘zbektelekom” AJ	BB (Barqaror)	-	-
“Navoiyazot” AJ	BB - (Barqaror)	-	-
“Uzbekistan Airports” AJ	BB (Barqaror)	-	-

Izoh: 2026-yil 1-aprel holatiga

Davlat banklarining moliyaviy holati va transformatsiya jarayonlari **Institutsional va me’yoriy-huquqiy o‘zgarishlar**

Bank tizimini isloh qilish davrida aholining moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabini qondirish va hududiy qamrovni ta’minlash maqsadida davlat ishtiroki ustuvor ravishda O‘zmilliybank, Agrobank va Mikrokreditbankda saqlab qolinadi, bunda O‘zmilliybank strategik korxonalar hamda investitsiya loyihalariga bozor shartlari asosida xizmat ko‘rsatuvchi tizimli ahamiyatga molik muassasa hamda xalqaro tajriba asosida loyihalarni ishlab chiqish, moliyalashtirish va amalga oshirishning yagona mexanizmi – “loyihalar fabrikasi”ni joriy etuvchi asosiy bo‘g‘in sifatida belgilangan.

Davlat banklarini transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini nufuzli xalqaro moliya institutlari ko‘magida amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Jumladan, “O‘zsanoatqurilishbank” Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC), “Aloqabank” YeTTB va OTB, “Asaka” bank esa YeTTB bilan hamkorlikda isloh qilinishi, shuningdek, “Turon bank”ni xalqaro konsultantlarni jalb etgan holda xususiylashtirish masalalarini ko‘rib chiqish belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 20-apreldagi PQ-149-son qarori bilan “Asakabank” AJni xususiylashtirishga tayyorlash va bank faoliyatini bozor tamoyillariga moslashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar tasdiqlandi. YeTTB bankning 15 foiz ulushini sotib olishi bo‘yicha kelishuv imzolangan bo‘lib, jarayonga xalqaro moliya konsultantlari jalb etiladi hamda bankning barcha noprofil va unga xos bo‘lmagan yuklatilgan vazifalari to‘xtatiladi.

Me'yoriy-huquqiy o'zgarishlar

2026-yil 27-martda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1126-sonli Qonun mamlakatimizda islomiy bank xizmatlarini tashkil etishning huquqiy poydevorini yaratdi. Mazkur hujjat bilan islomiy bank litsenziyasini olish tartibi va unga qo'yiladigan talablar, litsenziya egalarining huquq va majburiyatlari hamda ruxsat etilgan islomiy moliya operatsiyalarining turlari qonuniy jihatdan mustahkamlab qo'yildi.

Bank sektorida kiberxavfsizlikni ta'minlash maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining 2026-yil 13-fevralda "Lizing xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalariga qo'shimchalar va o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi qo'shma qarori 2265-5 raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Davlat banklarining moliyaviy holati



To'qqizta davlat banki balansining umumiy hajmi 2025-yilda sezilarli o'sdi, ayni paytda uning tarkibida muhim o'zgarishlar yuz berdi. 2025-yil oxiriga kelib davlat banklari jami aktivlari 586,9 trln so'mga yetib, yil davomida 16,6 foizga oshdi. Majburiyatlar ham qariyb shu sur'atda (+16,7%) o'sib, 505,5 trln so'mni tashkil etdi. Eng muhimi — depozit bazasi 37,6 foizga kengaydi (bu so'nggi o'n yildagi eng yuqori ko'rsatkich), kredit portfeli esa 10,3 foizga o'sdi. Bu ko'rsatkich umumiy bank tizimi kredit portfelinig 67 foizini tashkil etmoqda.

31-jadval. Davlat banklari jami balans ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich						<i>trln so'm</i>
	2021	2022	2023	2024	2025	Yillik o'rtacha o'sish
Aktivlar	362,4	435,1	441,6	503,2	586,9	13%
Majburiyatlar	304,7	373,2	378,5	433,0	505,5	14%
Kreditlar	280,1	324,7	333,2	366,7	404,5	10%
Depozitlar	104,2	135,5	124,3	154,5	212,7	21%
Kapital	57,7	61,9	63,2	70,2	81,4	9%

59-diagramma. Davlat banklari jami balansi

trln so'm

**60-diagramma.** Davlat banklarining sof foydasi va uning o'rtacha aktivlarga nisbati (ROA)

So'nggi besh yil davomida davlat banklari aktivlari har yili o'rtacha 13 foizga, kreditlar 10 foizga, kapital esa 9,0 foizga o'sdi. Depozitlarning yillik o'rtacha o'sish sur'ati esa 21 foizni tashkil etdi – bu aktivlar o'sishidan ancha yuqori. 2025-yilda depozitlar hajmining aktivlarga (kreditlarga) qaraganda ancha tez o'sishi bank tizimidagi ijobiy o'zgarishlarni tasdiqlaydi. Bu jarayon davlat banklarining faqat budjet mablag'lari va tashqi qarzga tayanib ishlashdan voz kechib, aholi hamda biznesning omonatlari (depozitlari) hisobidan faoliyat yurituvchi mustaqil tijorat banklariga aylanayotganini ko'rsatadi.


Shu bilan birgalikda, davlat ishtirokidagi banklar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari natijalari bo'yicha 2025-yilni 4,7 trln so'm foyda bilan yakunladi.

Davlat banklarining kapitallashuv darajasi

Davlat banklari jami kapitali 2025-yilda 16,0 foizga o'sib, 81,4 trln so'mga yetdi. Kapitalning o'sish sur'ati aktivlar o'sishiga yaqin bo'lganligi sababli, kapitalning aktivlarga oddiy nisbati 13,9 foizda o'zgarmay qoldi.

2025-yil davomida barcha davlat ishtirokidagi banklarda o'z sarmoyasini (kapitalini) muttasil ko'paytirish tendensiyasi saqlanib qolgan. Hisobot davrida kapital bazasini mutlaq qiymatda oshirish bo'yicha Milliy bank va Agrobank eng yuqori ko'rsatkichlarni saqlab qolgan bo'lsa, o'sish sur'atlari bo'yicha Mikro kreditbank (+61,6%) va Xalq banki (+32,8%) yetakchilik qilgan.

61-diagramma. Davlat banklari kapitali va uning aktivlarga nisbati



Kapitalning aktivlarga nisbati tahlili shuni ko'rsatadiki, Xalq banki, Mikro kreditbank va Biznesni rivojlantirish bankida ushbu ko'rsatkich sezilarli darajada oshgan. Boshqa bir qator banklarda mazkur nisbatning biroz o'zgarishi esa aktivlar hajmining kengayishi bilan bog'liq holda shakllangan. Umumiy hisobda, sektor bo'yicha kapital bazasining aktivlar o'sishiga mos ravishda mustahkamlanib borishi kuzatilgan.

32-jadval. Davlat banklari kapitalining o'zgarishi


Bank	Kapital 2024 (mlrd so'm)	Kapital 2025 (mlrd so'm)	O'zgarish	Kap/Akt 2024	Kap/Akt 2025
Milliybank	18 860	19 969	+5,9%	14,0%	13,8%
Sanoatqurilishbank (SQB)	10 025	11 875	+18,5%	11,4%	11,6%
Asakabank	8 016	8 237	+2,8%	13,8%	13,3%
Agrobank	12 427	13 774	+10,8%	15,7%	13,3%
Xalq banki	8 000	10 623	+32,8%	17,2%	20,4%
Biznesni rivojlantirish banki	4 295	5 269	+22,7%	13,4%	13,8%
Mikrokreditbank	3 551	5 739	+61,6%	15,1%	18,7%
Aloqabank	3 082	3 847	+24,8%	13,3%	12,2%
Turonbank	1 919	2 092	+9,0%	10,9%	9,6%

Manba: Markaziy bank statistikasi; kapitalning aktivlarga oddiy nisbati (xavfsiz-o'rtacha emas).

Kreditlarning depozitlarga nisbati

Davlat banklarida kreditlarning depozitlarga nisbati 2024-yil oxiridagi 2,37 dan 2025-yil oxirida 1,90 gacha pasaydi. Bu ko'rsatkich hali ham butun bank tizimi bo'yicha o'rtacha 1,45 dan yuqori. Lekin 2021-yildan beri davlat banklari bilan umumiy tizim o'rtasidagi farq eng past darajaga tushdi.

Bu yaxshilanish asosan depozitlar hisobiga yuz berdi: depozitlar 58,2 trln so'mga oshdi, kreditlar esa 37,7 trln so'mga ko'paydi. Taqqoslash uchun, 2021-yil oxirida davlat banklarida bu nisbat 2,69 bo'lgan, ya'ni tizim o'rtachasidan qariyb 45 foiz yuqori edi.

62-diagramma. Kreditlarning depozitlarga nisbati: davlat banklari va bank tizimi


Umumiy holat yaxshilangan bo'lsada, chakana depozit bazasi kichik bo'lgan ayrim banklarda kreditlarning depozitlarga nisbati hali ham yuqori. Jumladan, bu ko'rsatkich Agrobankda 2,41, Milliybankda 2,09, Sanoatqurilishbankda 2,06 va Mikro kreditbankda 2,08 ni tashkil etadi.

Davlat banklarining muammoli kreditlari tahlili


Davlat banklari bo'yicha muammoli kreditlar ulushi 2024-yil oxiridagi 3,9 foizdan 2025-yil oxirida 3,2 foizga tushdi – bu islohotlardan keyingi davrdagi eng past ko'rsatkichdir. 2022-yildan beri birinchi marta muammoli kreditlarning absolyut miqdori ham kamaydi: 14,3 trln so'mdan 12,8 trln so'mga, ya'ni 1,5 trln so'mga qisqardi.

Umumiy hisobda jami ko'rsatkich 2025-yilda 3,17 foizga tushib, 74 bazis punktga pasaygan. Deyarli barcha yirik banklarda kamayish kuzatilgan: Agrobankda 4,88 foizdan 3,33 foizga (-155 b.p.), Biznesni rivojlantirish bankida 8,50 foizdan 4,52 foizga (-398 b.p.), Xalq bankida 4,23 foizdan 3,07 foizga (-116 b.p.), Asakabankda 4,53 foizdan 3,62 foizga (-91 b.p.) tushgan. Shuningdek, Milliybank va Sanoatqurilishbankda ham mos ravishda -19 va -29 bazis punkt pasayish qayd etilgan.

63-diagramma. Davlat banklarining muammoli kreditlari



64-diagramma. Muammoli kreditlar ulushi banklar kesimida: 2024 va 2025-yil oxiri



Shu bilan birga, ayrim banklarda o'sish kuzatilgan. Xususan, Aloqabankda muammoli kreditlar ulushi 1,87 foizdan 2,54 foizga (+67 b.p.), Turonbankda 2,82 foizdan 3,41 foizga (+59 b.p.) oshgan. 2025-yil yakunida eng past ko'rsatkichlar Sanoatqurilishbank (2,53%) va Milliybank (2,84%)da, eng yuqori ko'rsatkichlar esa Biznesni rivojlantirish banki (4,52%) va Mikro kreditbank (4,41%)da kuzatildi. Umuman, banklar kesimida muammoli kreditlar darajalari o'rtasida sezilarli farq saqlanib qolmoqda.

33-jadval. Muammoli kreditlarning banklar kesimidagi tahlili

Bank	Kreditlar 2025 (mlrd so'm)	Muammoli kreditlar (mlrd so'm)	Ulush 2024	Ulush 2025	O'zgarish (b.p.)
Milliybank	105 382	2 989	3,03%	2,84%	-19
Sanoatqurilishbank (SQB)	64 936	1 642	2,82%	2,53%	-29
Asakabank	41 464	1 502	4,53%	3,62%	-91
Agrobank	81 108	2 698	4,88%	3,33%	-155
Xalq banki	33 600	1 032	4,23%	3,07%	-116
Biznesni rivojlantirish banki	24 552	1 110	8,50%	4,52%	-398
Mikro kreditbank	20 278	894	4,62%	4,41%	-21
Aloqabank	18 810	477	1,87%	2,54%	+67
Turonbank	14 338	489	2,82%	3,41%	+59
Jami	404 469	12 834	3,91%	3,17%	-74

Davlat banklarining bank tizimidagi ulushi va jalb qilingan moliyaviy mablag'lari tahlili

Davlat banklari tomonidan jalb qilingan kafolatlanmagan tashqi qarz hajmi 2022–2025-yillarda muntazam oshib borgan. 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 5,3 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 6,8 AQSh mlrd dollariga, 2024-yilda 8,6 AQSh mlrd dollariga va 2025-yil yakunida 11,1 mlrd AQSh dollarga yetgan.


Yillik o'sish sur'atlari 27–29 foiz oralig'ida saqlanib qolgan. 2025-yilda o'sish sur'ati 28,9 foizni tashkil etib, oldingi yillarga nisbatan biroz yuqoriroq darajada shakllangan. Bu davr davomida tashqi qarz hajmi barqaror ravishda kengayib borgan.

2023-yilda tashqi qarz hajmi 2022-yilga nisbatan 1,5 AQSh mlrd dollariga oshgan bo'lsa, 2024-yilda qo'shimcha o'sish 1,8 AQSh mlrd dollarini tashkil etgan. 2025-yilda esa bu ko'rsatkich 2,5 AQSh mlrd dollariga yetgan. Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillarda davlat banklarining tashqi moliyalashtirishga bo'lgan hajmi ortib borayotganini kuzatish mumkin.

Davlat banklarining bank tizimidagi aktivlar, kreditlar va depozitlar bo'yicha ulushi 2021–2025-yillar kesimida diagrammada keltirilgan. 2025-yil oxiriga kelib davlat banklarining aktivlardagi ulushi 63,5 foizni tashkil etgan, bu 2020-yil oxiridagi 81,5 foizga nisbatan past ko'rsatkichdir.


Shu davrda kreditlardagi ulush 88 foizdan 67 foizgacha kamaygan. Depozitlar bo'yicha pasayish nisbatan tezroq bo'lib, 2021-yilda qariyb 65 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil oxirida 51 foizgacha tushgan. Bu davrda xususiy banklarning depozit jalb qilishdagi ulushi oshgan.

65-diagramma. Davlat banklarining bank tizimidagi ulushi



66-diagramma. Davlat banklari tomonidan jalb qilingan kafolatlanmagan tashqi qarz hajmi

mlrd AQSh doll.



Xalqaro kredit reytinglari

2025-yil davlat ulushi mavjud banklarning xalqaro reytinglari BB darajadagi reytingda va asosan “barqaror” prognozi bilan baholangan.

34-jadval. Xalqaro kredit reytingga ega davlat ishtirokidagi banklar

Bank nomi	“FITCH”dan kredit reyting bahosi va kutilmasi	“S&P” dan kredit reyting bahosi va kutilmasi	“Moody’s”dan kredit reyting bahosi va kutilmasi
Agrobank	BB (Barqaror)		Ba3 (Barqaror)
Aloqabank	BB (Barqaror)		Ba3 (Barqaror)
Asaka bank	BB (Barqaror)	BB - (Barqaror)	Ba3 (Barqaror)
Biznesni rivojlantirish banki	BB (Barqaror)		B1 (Barqaror)
Mikrokreditbank	BB (Barqaror)		Ba3 (Barqaror)
Milliybank	BB (Barqaror)	BB (Barqaror)	Ba3 (Barqaror)
Sanoatqurilishbank	BB (Barqaror)	BB - (Barqaror)	
Turonbank	BB - (Barqaror)	B (Barqaror)	
Xalq banki	BB/B (Barqaror)		

Bu holat bank tizimida makroiqtisodiy barqarorlik saqlanayotganini, shu bilan birga, reytinglarni yanada yaxshilash uchun kapitallashuvni kuchaytirish, aktivlar sifatini oshirish va korporativ boshqaruvni rivojlantirish muhimligini ko'rsatadi.

Banklar reytinglarining BB / Ba3 darajasida barqaror saqlanishi ularga xalqaro moliya bozorlaridan resurs jalb qilish imkonini beradi. Natijada kredit liniyalari mavjud va nisbatan qulaylashib boradi, ammo reytinglar investitsion darajaga yetmagani sababli to'liq arzonlashuv cheklangan bo'lib qolmoqda.

VI. Davlat moliyasi tizimini isloh qilish rejalari

Davlat moliyasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish hamda natijadorlikka asoslangan budjet tizimini joriy etish ishlarini jadallashtirish, shuningdek, sohadagi islohotlarni tizimlashtirgan holda davom ettirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-son qarori bilan “2025–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi” tasdiqlandi.

Strategiyaning ustuvor yo‘nalishlari sifatida budjet intizomini ta‘minlash mexanizmlarini kuchaytirish, o‘rta muddatli budjetlashtirishda strategik ustuvorlikni ta‘minlash, davlat xarajatlari va investitsiyalarining samaradorligi hamda natijadorligini oshirish belgilangan.

Strategiyaning amalga oshirishda 16 ta maqsad belgilab olingan bo‘lib, mazkur maqsadlarga bosqichma-bosqich erishishni ta‘minlovchi chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan.

Joriy yil may-iyun oylarida Jahon banki tomonidan strategiya doirasida 2025-yil davomida amalga oshirilgan ishlar baholandi. Baholash natijalari bo‘yicha ma‘lumotlar mazkur Fiskal strategiyaning **11-ilovasida** keltirilgan.

6.1. “Dasturiy budjetlashtirish” amaliyotiga o‘tish

2025–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasiga muvofiq budjetni shakllantirishda dasturiy budjetlashtirish tizimini bosqichma-bosqich 2030-yilga qadar to‘liq joriy etilishi belgilangan.

Mazkur vazifadan kelib chiqib, 2027–2029-yillarda dasturiy budjetlashtirish tizimiga o‘tish bo‘yicha amalga oshiriladigan istiqboldagi rejalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Davlat budjeti xarajatlarining budjet dasturlari bo‘yicha tasnifini ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich dasturiy budjetlashtirish joriy etilgan vazirlik va idoralarda qo‘llash;

- Budjet kodeksiga dasturiy budjetlashtirish jarayonlarini aks ettiruvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

- xalqaro ekspertlar ko‘magida budjet dasturlarining samaradorligi va natijadorligi bo‘yicha o‘rganish o‘tkazish (budjet dasturlari ijrosini baholash bo‘yicha sinov amaliyotini o‘tkazish) va sinov natijasidan kelib chiqib budjet dasturlari ijrosini baholash uslubiyotini ishlab chiqish;

- mahalliy budjet xarajatlarini budjet dasturlari asosida ishlab chiqish bo‘yicha 2 ta tumanda sinov o‘tkazish va mazkur sinov natijalaridan kelib chiqib, mahalliy budjet xarajatlarini budjet dasturlari kesimida shakllantirish, monitoring qilish, ularning hisobotini tuzish va taqdim etish tartibini ishlab chiqish;

- mahalliy budjet xarajatlarini bosqichma-bosqich budjet dasturlari kesimida shakllantirish amaliyotiga o‘tish.

6.2. Budjetni shakllantirishda fuqarolar ishtirokini yanada oshirish

2026-yildan boshlab “Tashabbusli budjet” jarayonida aholining ishtirokini yanada kengaytirish va joylardagi eng dolzarb muammolarni tezkor hal etishga qaratilgan yangi mexanizmlar – **birgalikda moliyalashtirish** va “**deputat tashabbusi**” amaliyotlari yo'lga qo'yildi.

Ushbu amaliyotlar budjet jarayonlarida aholi faolligini yanada oshirishga xizmat qilib, davlat va jamiyat o'rtasidagi **hamkorlikni mustahkamlashda** muhim qadam bo'ldi.

Mazkur amaliyotlarni keng targ'ib qilish maqsadida barcha tuman va shaharlarda seminarlar tashkil etildi, aholiga tushuntirish ishlari olib borildi hamda maxsus tarqatma materiallar yetkazildi. Natijada fuqarolar yangi mexanizmning mazmun-mohiyatini anglab, unda faol qatnashishni boshladi.

2026-yilning birinchi mavsumida jami **561 ta** sheriklik loyihasi ilgari surilib, jami qiymati **6,7 milliard** so'mlik **16 ta** loyiha bo'yicha mablag'larning teng yarmi yoki **3,3 milliard** so'm aholi tomonidan to'planib, ushbu loyihalar g'olib deb topildi.

G'olib loyihalarining asosiy qismi ichki yo'llarni ta'mirlashga qaratilgani aholi uchun kundalik hayot sifatiga ta'sir etuvchi infratuzilma masalalari ustuvor ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi.

Shu bilan birga, aholi tomonidan asosan qiymati 50 milliondan 500 million so'mgacha bo'lgan loyihalar qo'llab-quvvatlangani fuqarolar, avvalo, tez amalga oshiriladigan va natijasi qisqa muddatda seziladigan tashabbuslarga qiziqish bildirganini anglatadi.

Mavsum yakunida **2 ming nafar** respondent ishtirokida o'tkazilgan so'rovnomalar ham aholi o'rtasida ushbu yangi mexanizmlarga qiziqish ortayotganini ko'rsatdi. Fuqarolar, ayniqsa, o'z mablag'i hisobiga amalga oshirilgan loyihalarining **sifatli va manzilli bo'lishiga** ishonch yuqori ekanini ta'kidlagan.

“Deputat tashabbusi” amaliyoti esa aholi va deputatlar o'rtasidagi amaliy muloqotni yangi bosqichga olib chiqdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari o'z saylov okruglarida g'olib bo'lmagan, ammo aholi uchun dolzarb hisoblangan loyihalarni joyiga chiqqan holda o'rgandi.

Saylovchilar bilan o'tkazilgan muhokamalar natijasida umumiy qiymati **239 milliard** so'mlik **149 ta loyiha** “qo'shimcha g'olib” deb topildi.

67-diagramma. Deputatlar tashabbusi va sheriklik asosida qayd etilgan natijalar.




Bunda ichki yo'llarni ta'mirlash bo'yicha **61 ta**, maktablar bo'yicha **24 ta**, maktabgacha ta'lim tashkilotlari bo'yicha **15 ta**, tibbiyot muassasalari bo'yicha **10 ta** loyihaning tanlab olingani ijtimoiy infratuzilma masalalari **eng ustuvor yo'nalish** bo'lib qolayotganini anglatadi.

“Deputat tashabbusi” amaliyoti doirasida **39 ta mahalla ilk bor** g'olib deb topildi. Bu esa avvalgi mavsumlarda yetarlicha imkoniyatga ega bo'lmagan hududlar ham **qo'shimcha mexanizmlar orqali** qo'llab-quvvatlanayotganini ko'rsatadi.

Tashabbusli budjet jarayonini yanada takomillashtirish va fuqarolar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida jarayonga zamonaviy texnologiyalarni kengroq joriy qilish choralari ko'riladi. Jumladan, tizimga **sun'iy intellekt** va **raqamli yechimlarni** keng joriy etish choralari ko'riladi.

Shuningdek, **“deputat tashabbusi”** va **birgalikda moliyalashtirish** amaliyotlarini yanada takomillashtirish orqali **deputatlarning jarayondagi roli yanada oshiriladi** hamda aholi va davlat o'rtasida sheriklik loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlari kengaytiriladi.

68-diagramma. Deputat tashabbusi amaliyoti.

Jumladan, deputatlar ularga **ajratilgan mablag'lar doirasida** "Tashabbusli budjet"da yetarli ovoz to'plagan, ammo g'olib bo'lmay qolgan loyihalardan **bir yoki bir nechtasini** qo'shimcha ravishda g'olib deb e'lon qilishi mumkin bo'ladi.

Shu bilan birga, aholi va davlat o'rtasidagi sheriklik loyihalarini soddalashtirish maqsadida **aholi tomonidan yig'ilgan mablag'lar** faqat qurilish va ta'mirlash ishlarining o'ziga sarflanishi nazarda tutilmoqda. Bu aholi uchun **katta yengillik yaratadi** va sheriklik loyihalarida fuqarolarni **faol ishtirok etishini** rag'batlantiradi.

Bundan tashqari, sheriklik loyihalari uchun **elektron to'lov imkoniyatlarini** yaratish choralari o'rganib chiqilmoqda. Bunda fuqarolar mablag'larni **onlayn tarzda to'lash** imkoniga ega bo'ladi, bu esa jarayonning shaffofligi va qulayligini oshiradi.

6.3. Davlat budjeti xarajatlarini BRMMga muvofiqligi va yashil budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash

Davlat budjeti xarajatlarini BRMMga muvofiqligi asosida tasniflash (keyingi o'rinlarda – xarajatlarni BRMM asosida tasniflash) nafaqat hukumat, balki investorlar o'rtasida BRMMga erishish uchun resurslar va budjet ustuvorliklarining dolzarbligi to'g'risida xabardorlikni oshirishga imkon beradi. Bu manfaatdor tomonlarning BRMMni moliyalashtirishga qiziqishini oshiradi, yangi moliyalashtirish mexanizmlari va vositalarini yaratishga hissa qo'shadi.

Xarajatlarni BRMM asosida tasniflash Davlat budjeti mablag'lari ajratilishida yetishmovchiliklar mavjud maqsadlarni aniqlash imkonini beradi va dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilishni kuchaytiradi.

Shu bilan birga, xarajatlarni BRMM asosida tasniflashda bir xarajat qatorini bir nechta BRMM yoki vazifalar bilan bog'lash jarayonining murakkabligi sababli ushbu jarayon standartlashtirilgan qoidalar bilan amalga oshiriladi hamda to'liq avtomatlashtirish imkoniyatlari cheklangan.

Hozirda davlat moliyasini boshqarish tizimida islohotlar davom ettirilayotganligi, jumladan, dasturiy budjetlashtirish tizimi bosqichma-bosqich joriy etilayotganligini inobatga olib, xarajatlarni BRMM asosida tasniflash ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda budjet tizimi budjetlarining vazifalar jihatidan tasnifiga va ikkinchi bosqichda budjet dasturlari tasnifiga asoslangan ma'lumotlarga ko'ra tahlillarni o'z ichiga oladi.

Bunda xarajatlarni BRMM asosida tasniflash amaliyoti birinchi bosqichda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi hamda har bir budjet xarajatlari qatorining maqsadlari tahlil qilinadi. Ikkinchi bosqichda vazirlik va idoralar tomonidan vazifa jihatdan tasnifni budjet dasturlari tasnifiga o'zgartirilgan holda amalga oshiriladi.

Xarajatlarni BRMM asosida tasniflash jarayonida Davlat budjeti xarajatlari qamrab olinadi.

Davlat budjeti xarajatlarini yashil budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash (keyingi o'rinlarda – xarajatlarni yashil tasniflash) amalga oshirilib kelinayotganligini inobatga olib, xarajatlarni BRMM asosida tasniflash jarayonida yashil tasniflash natijalari ham inobatga olinishi kerak.

Xarajatlarni yashil tasniflash bo'yicha uslubiy qo'llanmaga muvofiq Davlat budjeti xarajatlari iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatish, iqlim o'zgarishiga moslashtirish, atrof-muhit masalalari bilan bog'liq boshqa ta'sirlar bo'yicha tasniflanadi hamda ijobiy yoki salbiy ta'sirlariga qarab 4 ta guruhga (A, B, C, D) ajratiladi.

Xarajatlarni yashil tasniflash amaliyoti bilan xarajatlarni BRMM asosida tasniflash jarayonining o'zaro muvofiqligini ta'minlash va uyg'unlashtirish zarur.

Xarajatlarni yashil tasniflashda mablag'lar bir necha iqlim o'zgarishi hamda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlariga hissa qo'shsada, ular o'rtasida taqsimlanmaydi. Xarajatlarni BRMM asosida tasniflash esa keng ko'lamli maqsadlar uchun sarflangan xarajatlarni aniqlashga qaratilgan bo'lib, bir budjet qatorining bir nechta BRMM maqsadlariga bog'liq bo'lishi, ajratilgan mablag'larni ikki yoki undan ortiq qismlarga bo'lish imkoniyatini beradi. Jumladan, bir budjet qatori BRMMning 15 hamda 10-maqsadlariga bir vaqtda hissa qo'shsa, mablag'lar hajmlari bo'linadi.

Xarajatlarni BRMM asosida tasniflashda dastlab har bir budjet xarajatlari qatorining maqsad va vazifalari quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilgan holda aniqlanadi:

- budjet xarajatlari qatorining qisqa tavsifi;
- budjet xarajatlari qatorining umumiy maqsadi;
- budjet xarajatlari qatorining maqsadli guruhi;
- taqdim etilayotgan tovarlar va xizmatlar.

Birinchi navbatda xarajatlarni yashil tasniflash, ikkinchi navbatda – BRMM asosida tasniflash amalga oshiriladi.

Davlat budjeti xarajatlarini BRMM asosida tasniflashda xarajatlarni ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlariga ta'siri bo'yicha quyidagi 5 ta toifa, jumladan, (i) iqlim o'zgarishi, (ii) suv va dengiz resurslaridan barqaror foydalanish hamda ularni muhofaza qilish, (iii) aylanma iqtisodiyotga o'tish, (iv) ifloslanishning oldini olish va nazorat qilish, (v) biologik xilma-xillik va ekotizimlarni muhofaza qilish hamda tiklash.

Mazkur toifalashning Davlat budjeti xarajatlarini yashil tasniflashda qo'llanilgan toifalashdan farqi shundaki, iqlim o'zgarishi toifasida iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatish va iqlim o'zgarishiga moslashtirish ta'sirini yagona toifa sifatida birlashtirilgan hamda atrof-muhit masalalari bilan bog'liq boshqa ta'sirlar esa alohida 4 ta mustaqil toifalar sifatida ajratilgan. Bu esa har bir budjet qatorini ushbu toifalarning har biri bo'yicha ta'siriga ko'ra tahlil qilish imkonini beradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, xarajatlarni yashil tasniflash natijalarini Davlat budjeti xarajatlarini BRMM asosida tasniflashda quyidagi qoidalariga amal qilinishi zarur:

– agar xarajatlarni yashil tasniflash natijalari bo'yicha beshta ekologiya va atrof-muhit maqsadidan biri yoki bir nechta bo'yicha ijobiy kutilayotgan ta'sir aniqlansa, xarajatlarni BRMM asosida tasniflashda ushbu maqsadlar asosiy yoki ikkilamchi hissa sifatida vazifalar bo'yicha tasniflanishi zarur;

– xarajatlarni yashil tasniflash natijalari bo'yicha ekologiya va atrof-muhit maqsadlaridan bir yoki bir nechta bo'yicha salbiy ta'sir aniqlangan taqdirda, xarajatlarni BRMM asosida tasniflashda ushbu atrof-muhit toifasiga mos keluvchi BRMM vazifalariga hissa qo'yilishi mumkin emas. Bu qoida xarajatlarni yashil va BRMM asosida tasniflash o'rtasida izchillikni ta'minlash uchun zarurdir. Masalan, xarajatlarni yashil tasniflashda "Ifloslanishning oldini olish va nazorat qilish" bo'yicha salbiy ta'sir aniqlansa, bunday holatda xarajatlarni BRMM asosida tasniflashda 9.4, 11.2, 11.6, 11.a va 12.4 BRMM vazifalariga asosiy yoki ikkilamchi hissa sifatida tasniflash mumkin emas;

– xarajatlarni yashil tasniflash natijalari bo'yicha budjet qatori barcha atrof-muhit toifalariga neytral ta'sir ko'rsatsa, xarajatlarni BRMM asosida tasniflash mezonlariga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Xarajatlarni BRMM asosida tasniflashda har bir budjet qatori bo'yicha to'rttagacha BRMM vazifasiga hissalar belgilanadi. Bunda, bitta asosiy va uchta ikkilamchi hissa belgilanadi. Shu bilan birga, ayrim budjet qatorlari hech bir BRMM vazifasiga hissa qo'shmasligi ham mumkin.

Budjet qatorining barqaror rivojlanishga qo'shgan hissasini baholash uchun ushbu budjet qatoriga ajratilgan resurslar yordamida amalga oshiriladigan maqsadlar, maqsadli aholi guruhi va/yoki taqdim etiladigan tovarlar hamda xizmatlar haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Ushbu ma'lumotlar asosida tegishli mezonlarni qo'llagan holda xarajat qatorlarining BRMM vazifalariga qo'shgan hissalar (asosiy yoki ikkilamchi) aniqlanadi.

Budjet qatori BRMM vazifasi tavsifida keltirilgan maqsadlardan kamida bittasiga to'g'ridan-to'g'ri mos kelganda yoki BRMM vazifalari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanganda ushbu budjet qatorining BRMM vazifalariga **asosiy hissasi** deb belgilanadi.

Budjet qatori BRMM vazifasiga bevosita bog'liq bo'lmasada asosiy hissasidan tashqari boshqa BRMM vazifalariga ham bilvosita ijobiy ta'sir ko'rsatsa BRMM vazifalariga ikkilamchi hissasi deb belgilanadi.

Budjet qatorining BRMM vazifalariga asosiy va ikkilamchi hissalar aniqlanganidan so'ng, har bir hissaning ulushi aniqlanishi zarur:

faqat bitta asosiy hissa aniqlanganda – 100 foiz asosiy hissa ustuniga;

asosiy va bitta ikkilamchi hissa aniqlanganda – 70 foiz asosiy hissa ustuniga va 30 foiz ikkilamchi hissa ustuniga;

asosiy va ikkita ikkilamchi hissa aniqlanganda – 70 foiz asosiy hissa ustuniga va 15 foizdan har bir ikkilamchi hissa ustuniga;

asosiy va uchta ikkilamchi hissa aniqlanganda – 70 foiz asosiy hissa ustuniga va 10 foizdan har bir ikkilamchi hissa ustuniga taqsimlanadi.

Davlat budjeti xarajatlarini tasniflashda BRMM va yashil maqsadlarni uyg'unlashtirish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar Fiskal strategiyaning **5-10-illovalarda** taqdim etilgan.

6.4. “Yashil” budjetlashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish

Iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatish va uning oqibatlariga moslashtirish bo'yicha baholash hamda atrof-muhit masalalari bilan bog'liq boshqa ta'sirlarni inobatga olish maqsadida 2024-yildan boshlab Davlat budjeti xarajatlari “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflanmoqda.

Xarajatlarni “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflashda, birinchi navbatda, iqlim o'zgarishi va atrof-muhitga ijobiy yoki salbiy ta'sirga ega tadbirlar quyidagi **3 ta guruhga** (atrof-muhit maqsadlari) ajratiladi hamda ushbu guruhlarining har biri “ijobiy” va “salbiy” ta'siri bo'yicha tahlil qilinadi:

- 1) Iqlim o'zgarishi **ta'sirini yumshatish** tadbirlari;
- 2) Iqlim o'zgarishi **oqibatlariga moslashish** tadbirlari;
- 3) **Atrof-muhit masalalari bilan bog'liq** boshqa ta'sirlar.

Xarajatlarni “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda har bir budjet satri yuqorida keltirilgan 3 ta atrof-muhit maqsadlariga ta'sir ko'rsatishi nuqtayi nazaridan baholansa, ikkinchi bosqichda baholangan har bir budjet satri quyidagi 4 ta toifalar bo'yicha guruhlanadi:

“A” toifa – atrof-muhit maqsadlarining kamida bittasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan va salbiy ta'sirga ega bo'lmagan xarajatlar;

“B” toifa – atrof-muhit maqsadlariga ijobiy va salbiy ta'sirlarning kombinatsiyasiga ega xarajatlar;

“C” toifa – atrof-muhit maqsadlaridan kamida bittasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan va ijobiy ta'sirga ega bo'lmagan xarajatlar;

“D” toifa – atrof-muhit maqsadlarining barchasiga neytral ta'sir ko'rsatadigan xarajatlar.

Mazkur sohadagi islohotlarning davomi sifatida Davlat budjeti xarajatlarining 2027-yilgi loyihasi “yashil” budjetlashtirish bo'yicha tasniflanadi hamda yashil tasniflash jarayonini “DMBAT-2”da avtomatlashgan holda amalga oshirilishini takomillashtirish ishlari davom ettiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda PQ-388-son qaroriga ko'ra dasturiy budjetlashtirish amaliyoti joriy etilgan (etilayotgan) vazirlik va idoralar 2027-yildan boshlab budjet dasturlarini shakllantirishda “yashil” maqsadlar bo'yicha indikatorlarning inobatga olinishini ta'minlashi belgilangan.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar ekspertlari bilan hamkorlikda vazirlik va idoralarda “yashil” budjetlashtirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar ishlab chiqilmoqda.

“O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetini tuzish va ijro etish qoidalari”ga (ro'yxat raqami 3558-4-son, 20.02.2026-y.) ko'ra budjet jarayonining ilk bosqichlaridayoq ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlari inobatga olinishi belgilangan hamda “yashil” budjetlashtirish – bu ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlarini inobatga olgan holda soliq-budjet siyosatini yuritish va davlat budjetini shakllantirish, tasdiqlash, ijrosini ta'minlash va hisobot taqdim etish jarayoni deb ta'rif berilgan.

Shuningdek, rivojlantirish dasturi budjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan uch yil muddatga tuziladi va budjet mablag'larini taqsimlovchi faoliyatining barcha sohalari bo'yicha rivojlanishning asosiy yo'nalishlari, maqsadlari va vazifalarini, shuningdek sifat va miqdor, shu jumladan, ayollar va erkaklarga teng imkoniyatlar yaratish hamda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlarini inobatga olgan ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

BMTTD bilan hamkorlikda Davlat moliyasini boshqarish tizimida “yashil” budjetlashtirishni joriy etish rejalari (keyingi o'rinlarda - Rejalar) 2030-yilga qadar mamlakatimizda “yashil” budjetlashtirishni joriy etishning rejalari belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

Davlat moliyasini boshqarish jarayoniga “yashil” budjetlashtirish amaliyotining joriy etilishi soliq-budjet siyosatining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlari bilan uyg'unlashtirilishiga imkon yaratadi.

Bunda atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan loyihalarni ishlab chiqish, moliyalashtirish, hisobini yuritish va nazorat qilish hamda ekologik barqarorlikni rag'batlantiruvchi soliq-budjet tizimini rivojlantirish choralari ko'riladi.

Rejalarda belgilangan choralar qisqa muddatli davr – 2026–2027-yillar, o'rta muddatli davr – 2028–2029-yillar hamda uzoq muddatli davr 2030-yil va undan keyingi yillarni qamrab oladi.

2030-yilga qadar davlat moliyasini boshqarish tizimida “yashil” budjetlashtirishni joriy etish istiqbollari (i) budjet siyosati, (ii) soliq siyosati, (iii) DIB hamda (iv) ichki audit va hisobdorlik yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.

Rejalarni amalga oshirish orqali davlat moliyasini boshqarish sohasida quyidagi natijalarga erishish nazarda tutilmoqda:

 xalqaro tajribadan kelib chiqib “yashil” budjetlashtirish tizimini joriy etish, davlat budjetida iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va yashil rivojlanish bo‘yicha aniq va ishonchli ma’lumotlar asosida xarajatlarni rejalashtirishga o‘tish uchun zamin yaratish;

 tabiiy resurslardan samarali foydalanishga va ekologik barqaror rivojlanishga hissa qo‘shish;

 fuqarolar va jamoatchilik vakillarining “yashil” budjetlashtirish natijalaridan xabardorligi oshirilib, ularning atrof-muhitdagi muammolarga bo‘lgan e’tibori kuchaytiriladi.

6.5. Genderga yo'naltirilgan budjetlashtirishni bosqichma-bosqich joriy etish

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi SQ-297-IV-son Qarori hamda "Dasturiy budjetlashtirish joriy etilayotgan pilot vazirlik va idoralarda Genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish bo'yicha 2025–2026-yillarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar" (yo'l xaritasi) bilan Davlat moliyasini boshqarish tizimiga "Genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish"ni budjet jarayonlariga bosqichma-bosqich joriy etish belgilangan.

"O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetini tuzish va ijro etish qoidolari"ga (ro'yxat raqami 3558-4-son, 20.02.2026-y.) ko'ra budjet jarayonining ilk bosqichlaridayoq gender jihatlarini inobatga olinishi belgilangan hamda genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish – bu ayollar va erkaklarga teng imkoniyatlar yaratish maqsadini inobatga olgan holda soliq-budjet siyosatini yuritish va davlat budjetini shakllantirish, tasdiqlash, ijrosini ta'minlash va hisobot taqdim etish jarayoni deb ta'rif berilgan.

Shuningdek, budjet mablag'larini taqsimlovchilar va budjet tashkilotlarining joriy xarajatlaridagi sifat va miqdor ko'rsatkichlarining o'zgarishiga doir ma'lumotlar hamda budjet tashkilotining, budjet mablag'lari oluvchining va budjet mablag'larini taqsimlovchining budjet tizimi budjetlari mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq faoliyatining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oluvchi, o'tgan yilda erishilgan natijalar va joriy yilda kutilayotgan natijalar to'g'risidagi tahliliy hisobotda ayollar va erkaklar bo'yicha ma'lumotlar taqdim etilishi ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasining "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 26-dekabrda PQ-388-son Qaroriga ko'ra dasturiy budjetlashtirish amaliyoti joriy etilgan (etilayotgan) vazirlik va idoralar 2027-yildan boshlab budjet dasturlarini shakllantirishda gender tengligi bo'yicha indikatorlarning inobatga olinishini ta'minlanishi belgilangan.

Ushbu normativ-hujjatlarda genderga yo'naltirilgan budjetlashtirishni O'zbekistonda joriy etishning konseptual asoslari belgilangan bo'lib, O'zbekistonda genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish quyidagi 2 bosqichda joriy etilishi rejalashtirilgan:

- amaldagi budjet tizimiga joriy etish;
- dasturiy budjetlashtirishda joriy etish.

Genderga yo'naltirilgan budjetlashtirishni amaldagi budjet tizimiga joriy etish bo'yicha Davlat budjeti mablag'larining erkaklar va xotin-qizlarga qanday ta'sir ko'rsatishini alohida tahlil qilish maqsadida joriy yildan boshlab UzASBO-2 dasturiy majmuasida budjet tashkilotlarining genderga aloqador ko'rsatkichlarini shakllantirish imkoniyatini yaratish ishlari boshlangan.

Bu o'z navbatida, Davlat budjeti mablag'larining erkaklar va xotin-qizlarga ta'siri bo'yicha tahlil o'tkazish hamda budjet sohasidagi gender tengsizliklarni aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, har chorak yakunlari bilan xotin-qizlarni qo'llab quvvatlash maqsadlariga yo'naltirilgan Davlat budjeti mablag'lari to'g'risidagi tahliliy ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga kiritilib borilmoqda.

Genderga yo'naltirilgan budjetlashtirishni dasturiy budjetlashtirishga joriy etish bo'yicha Osiyo taraqqiyot banki va "BMT Ayollar" tuzilmasi ekspertlari bilan hamkorlikda dasturiy budjetlashtirish tizimi joriy etiladigan vazirlik va idoralarda gender tengligiga doir maqsadli ko'rsatkichlar ishlab chiqilmoqda.

O'zbekistonda genderga yo'naltirilgan budjetlashtirishning joriy etilishi natijasida Davlat budjeti mablag'larining erkaklar va xotin-qizlar uchun adolatli taqsimlanishiga hamda davlat moliyasini boshqarishda shaffoflik, hisobdorlik va samaradorlikni oshirishga erishiladi.

Mazkur sohadagi islohotlarni kelgusi yillarda ham davom ettirish va amaldagi uslubiy qo'llanmalarni takomillashtirib borish rejalashtirilgan.

6.6. Davlat sektorida ichki nazorat va ichki audit xizmatini takomillashtirish

Davlat organlarining ichki audit tuzilmalari faoliyati budjet xarajatlarining samaradorligini oshirish, budjet qonunchiligi buzilishi profilaktikasini kuchaytirish hamda masofaviy auditni kengaytirishga qaratilmoqda.

Natijada, 2024-yilda PEFA (Davlat moliyasini boshqarishni Davlat xarajatlari va moliyaviy hisobdorlik mezonlari asosida baholash) mezonlari bo'yicha baholashda "ichki audit" komponenti B+ (yaxshi) darajasida baholandi.

Davlat organlari ichki audit tuzilmalarining faoliyatini tartibga solishga oid 10 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan Ichki audit xizmatlari to'g'risida namunaviy nizom, ichki audit milliy standartlari, ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash hamda ichki auditorlarni sertifikatlash, malakasini oshirish va samaradorligini baholash tartiblari belgilandi.

Shu bilan birga davlat organlarida ichki nazorat tizimini joriy etish bo'yicha ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish konsepsiyasi, davlat organlarida xavflarni boshqarish tartibi va Xavflarni boshqarish qo'mitasi to'g'risida namunaviy nizom Hukumat qarorlari bilan tasdiqlandi.

Shuningdek, davlat organlarida ichki nazorat va ichki audit tizimlarini raqamlashtirishning huquqiy asosi sifatida Davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit faoliyatini raqamlashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi.

Yuqorida sanab o'tilgan normativ-huquqiy hujjatlarning amaliyotga joriy etilishi natijasida 61 ta davlat organlari va tashkilotlarida, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida ichki audit xizmatlari tashkil etildi hamda ularda 250 dan ortiq ichki auditorlar faoliyat yuritmoqda.

Shu bilan birga davlat organlarining budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlarini ichki audit xizmatlari tomonidan baholash amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Ichki audit xizmatlari xodimlari malakasini sertifikatlashni tashkil etish va ularning malakasini oshirish tizimi yo'lga qo'yilishi natijasida bugungi kunga qadar 1 069 dan ortiq talabgor malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirib, ichki audit milliy sertifikatiga ega bo'ldi.

Bundan tashqari, 2024–2025-yillarda xavf tahlili asosida 15 ta vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari tanlab olinib, ularda ichki audit faoliyatini sohaga oid qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash hamda faoliyatni takomillashtirib borish maqsadida baholash amalga oshirildi.

Baholash davomida vazirlik va idoralarda ichki audit xizmatlari faoliyatini tashkil etish, tegishli ichki hujjatlarni qabul qilish, ichki audit tadbirlarini xavf tahlili asosida o'tkazish bo'yicha uslubiy hamda amaliy yordam ko'rsatildi. Shuningdek, baholash natijalari yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga yarim yillik va yillik hisobotlar taqdim etildi.

Davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit faoliyati bilan jamoatchilikni tanishtirib borish, tegishli ma'lumotlarni ochiqlash maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-saytida maxsus "Davlat ichki audit" bo'limi ochildi. Unda ichki audit faoliyatiga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, qo'llanmalar, ichki audit malaka sertifikat reyestri, ichki audit faoliyatini baholash hamda xalqaro hamkorlikka oid ma'lumotlar joylashtirilib borilmoqda.

Shu bilan birga, davlat sektorida ichki nazorat va ichki audit tizimini rivojlantirish bo'yicha **2027–2029-yillarda quyidagi ishlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda:**

- davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit sohasiga oid munosabatlarni tartibga solish, amaldagi normativ-huquqiy normalarni mustahkamlash, birlashtirish va tizimlashtirish maqsadida Davlat ichki nazorati va ichki audit to'g'risidagi qonun loyihasini qabul qilish;

- Ichki audit milliy standartlari (*AV 3394, 2022-yil 24-oktabr*) va Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasi (*AV 3406, 2022-yil 27-dekabr*) hamda Ichki audit xizmati xodimlarining faoliyati samaradorligini baholash tartibini (*AV 3583, 2024-yil 12-dekabr*) yangilangan xalqaro standartlarga muvofiq qayta ko'rib chiqish;

- ichki audit faoliyati yo'lga qo'yilmagan davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit faoliyatini autsorsing asosida amalga oshirish tartibini belgilash;

- davlat organlarida ichki nazorat tizimini tashkil etish tartibini belgilash;

- davlat organlarida ichki nazorat tizimini tashqi baholashdan o'tkazish tartibini belgilash;

- davlat organlarida ichki nazorat va ichki audit tizimlarini raqamlashtirish maqsadida "Davlat ichki nazorati" axborot tizimini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish;

- davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari faoliyatini tartibga soluvchi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini ichki audit xizmatlari xodimlariga tizimli ravishda yetkazish maqsadida xalqaro va milliy darajada kasbiy rivojlantirish hamda malaka oshirishga qaratilgan o'quv-uslubiy tadbirlarni tashkil etish.

6.7. Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish

Pensiya ta'minoti tizimida so'nggi yillarda kuzatilayotgan tendensiyalar uning moliyaviy barqarorligiga nisbatan tizimli bosim shakllanayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, pensiya xarajatlarining barqaror o'sish sur'atlari hamda daromad manbasi bazasining cheklanganligi natijasida Pensiya jamg'armasining daromadlari bilan majburiyatlarni to'liq qoplash imkoniyati qisqarib, budget transfertlariga bo'lgan ehtiyoj mavjud. Mazkur tendensiya o'rta muddatli istiqbolda fiskal yukning saqlanib qolinishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

2024–2025-yillarda pensiya tizimini moliyalashtirishda Davlat budgetidan ajratiladigan transfertlar ulushining ortishi tizimning budget resurslariga bog'liqligini kuchaytirdi.

Bunda transfertlar miqdori 2024-yilda 16,3 trln so'm va 2025-yilda 20,2 trln so'mni tashkil etdi. Shuningdek 2024-yilda jamg'arma xarajatlari 64 trln so'm yoki YIMga nisbatan 4,2 foizni hamda 2025-yilda 76,7 trln so'm yoki YIMga nisbatan 4,2 foizni tashkil etdi.

Demografik omillar va qamrovning kengayishi natijasida 2026-yilda pensiya xarajatlarining o'sishi saqlanib qolib, transfertlarga ehtiyoj yuqori darajada qolishi kutilmoqda. 2026-yilda jamg'armaning daromadlari prognozi **64,7 trln so'm**, xarajatlari **86,1 trln so'm** (YIMga nisbatan 4,1 foiz) miqdorida tasdiqlangan. Bunda respublika budgetidan **23 trln so'm** transfert ajratilishi belgilangan.

2027–2029-yillarda islohotlar amalga oshirilmagan taqdirda pensiya tizimining budgetga bog'liqligi yuqori darajada saqlanib qolishi kutilmoqda.

Mavjud holat tahlili norasmiy bandlik tufayli daromadlar bazasining cheklangani va ijtimoiy soliq to'lovi bo'yicha ayrim toifadagi yuridik shaxslarga imtiyozlar berilishi kabi asosiy muammolarni ko'rsatadi.

Shundan kelib chiqib, quyidagi **chora-tadbirlarni amalga oshirish** taklif etiladi:

1. Aholini pensiya tizimi bilan qamrab olish va Pensiya jamg'armasi daromadlarini oshirish yo'nalishida:

- ro'yxatdan o'tgan, ijtimoiy soliq to'lamaydigan o'zini o'zi band qilgan shaxslarni ijtimoiy soliq to'loviga bosqichma-bosqich o'tkazish;
- rasmiy daromadga ega fuqarolarga ishlamaydigan oila a'zolarining ish stajini shakllantirish maqsadida ixtiyoriy ijtimoiy soliq to'lash imkoniyatini yaratish;

– jamg'arma daromadlari barqarorligini ta'minlash maqsadida ijtimoiy soliq bo'yicha yangi imtiyozlar berilishini cheklash va mavjud imtiyozlarni bosqichma-bosqich bekor qilish.

2. To'langan ijtimoiy soliq va pensiya miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash va Pensiya jamg'armasi xarajatlarini optimallashtirish yo'nalishida:

– ijtimoiy soliq bilan bevosita bog'liq bo'lmagan ijtimoiy xarajatlarni respublika budjeti hisobidan moliyalashtirish tizimiga o'tkazish;

– fuqaroning butun mehnat faoliyati davomida Pensiya jamg'armasiga qo'shgan hissasini to'liqroq aks ettirish maqsadida pensiya hisobida ish haqi inobatga olinadigan davrni bosqichma-bosqich kengaytirish;

– pensiya hisoblashda ish haqining yuqori chegarasi belgilanganligi sababli o'rta va undan yuqori ish haqi oluvchilarga teng miqdorda pensiya tayinlanadi. Shu sababli ijtimoiy soliq to'langan yuqori ish haqi oluvchi fuqarolarni mos ravishda pensiya bilan ta'minlash maqsadida pensiya hisoblashdagi mavjud ish haqi chegarasini bosqichma-bosqich qayta ko'rib chiqish;

– elektron ma'lumotlar to'liq shakllanmagan davrlar bo'yicha ish stajini tasdiqlashda fuqarolar uchun ortiqcha ma'muriy yukni kamaytirish maqsadida ushbu davrlarni tasdiqlash va inobatga olish tartibini soddalashtirish;

– pensiyaga chiqish uchun eng kam ish staji muddati qisqaligi fuqarolarning rasmiy ishlashga bo'lgan qiziqishini kamaytirmoqda. Rasmiy bandlikni rag'batlantirish maqsadida mazkur mehnat staji va pensiya olish davrini xalqaro standartlarga moslab, bosqichma-bosqich oshirib borish taklif etiladi.

3. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini rivojlantirish yo'nalishida:

– fuqarolarning jamg'argan mablag'iga to'lanayotgan daromad foizi tijorat banklari takliflariga nisbatan pastligi sababli ushbu tizimda ixtiyoriy ishtirok etishdan manfaatdorlik past. Tizim jozibadorligini oshirish maqsadida xorijiy tajribaga asoslangan holda kam daromadli fuqarolarning to'lovlariga davlat tomonidan qo'shimcha mablag' qo'shib berish (matching) hamda yuqori ish haqini rasmiylashtirishni rag'batlantirish (carve out) mexanizmlarini joriy etish choralari ko'rish;

– fuqarolarning keksalik uchun qo'shimcha mablag' jamg'arishini rag'batlantirish maqsadida jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va tizimda ishtirok etish jozibadorligini oshirish;

– jamg'arma mablag'larini moliyaviy instrumentlarga joylashtirilishi va daromadlari haqida ma'lumotlar cheklangan. Tizim shaffofligini ta'minlash va fuqarolarning ishonchini oshirish maqsadida, aholiga o'z pensiya jamg'armalarini boshqarishda ishtirok etish imkoniyatini bosqichma-bosqich yaratib berish lozim.

Yuqoridagi chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida erishiladigan natijalar:

– pensiya tizimi qamrovi kengayadi, o'zini o'zi band qilgan hamda ro'zg'orda band bo'lgan fuqarolar uchun pensiya huquqini shakllantirish imkoniyati yaratiladi;

– to'langan ijtimoiy soliq va fuqaroning pensiya miqdori uzviy bog'lanadi, natijada rasmiy daromadni ko'rsatish va ijtimoiy to'lovlarda ishtirok etish rag'bati kuchayadi;

– Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligi ta'minlanib, Davlat budjetiga bog'liklik bosqichma-bosqich kamayishiga erishiladi;

– past daromadli fuqarolar uchun qo'shimcha pensiya jamg'armalarini shakllantirish imkoniyati kengayadi, yuqori daromadni rasmiylashtirish va kelgusida yuqori pensiya daromadiga ega bo'lish instrumentlari yaratiladi;

– jamg'arib boriladigan pensiya tizimi rivojlanishi hisobidan fuqarolarning keksalikdagi daromad manbalari diversifikatsiya qilinadi hamda iqtisodiyot uchun uzoq muddatli investitsiya resurslari shakllanadi.

Asosiy tushunchalar

Benchmark obligatsiyalari – bozorda yuqori likvidlikka ega va foiz stavkalari uchun etalon (me'yor) vazifasini bajaradigan g'aznachilik obligatsiyalari.

Davlat budgetining birlamchi taqchilligi/profitsiti – muayyan davr uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti xarajatlaridan davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha foiz to'lovlarni chiqarib tashlagan holda hisoblanadigan Davlat budjeti taqchilligi/profitsiti.

Birlamchi dilerlik – davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirish va ularning ikkilamchi bozorda aylanishini ta'minlovchi maxsus moliyaviy institutlar tizimi.

Ijtimoiy reyestr – “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimi bo'lib, davlat ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etiladigan oilalar (shaxslar)ni aniqlash va ularning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholash vazifalarini bajaradi.

BRM (Barqaror rivojlanish maqsadlari) – Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan kambag'allik, tengsizlik, sog'liq va atrof-muhit bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish hamda farovonlikni ta'minlashga qaratilgan choralar.

Ichki nazorat – xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning qonuniyligini, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini, aktivlarning but saqlanishini ta'minlash, talon-toraj qilish hollari va xatolarning oldini olish hamda aniqlash maqsadida tashkil etilgan chora-tadbirlar tizimi.

Dasturiy budjetlashtirish – istiqbolli davlat dasturlarini hisobga olgan holda, strategik maqsadlar asosida ishlab chiqiladigan dasturlarni amalga oshirish natijalari bilan davlat xarajatlarini taqsimlash jarayonining bog'liqligini ta'minlovchi budjetni shakllantirish, ijro etish va ijrosini nazorat qilish metodologiyasi.

Ichki audit – vazirlik va idoralarda budjet intizomini mustahkamlash, budjet to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlarining oldini olish, budjet tizimi budjetlari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalardan foydalanish samaradorligini baholashga qaratilgan mustaqil faoliyat.

Konsolidatsiyalashgan budjet – budjet tizimi budjetlarining barcha tushumlari va xarajatlarini hisobga olish va tahlil qilish maqsadida shakllantiriladigan budjet. Konsolidatsiyalashgan budjet tarkibiga Davlat budjeti, DMJ budjetlari, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari va O'zbekiston Respublikasi TTJ mablag'lari kiradi.

“Yashil” davlat moliyaviy boshqaruvi – davlat moliyasini boshqarish jarayonlari va tizimlarini (ayniqsa, budjet jarayoni) iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish choralari bilan uyg'unlashtiruvchi tizim.

Umumiy fiskal balans — O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjetini hamda davlat dasturlarini amalga oshirish uchun Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari hisobidan ajratiladigan depozit, budjet ssudalari va kredit liniyalari hamda ularning qaytarilishi o'rtasidagi farqni o'z ichiga olgan jamlanma balans.

Fiskal qoidalar – davlat moliyasi holatini, ya'ni davlat qarzi, taqchilligi, davlat xarajatlari va daromadlarini tavsiflovchi miqdoriy maqsadli mo'ljallar va fiskal indikatorlar orqali ifodalanadigan soliq-budjet siyosatining uzoq muddatli cheklovleri.

Fiskal siyosat – davlatning soliq solish va budjet xarajatlari sohasidagi iqtisodiyotni tartibga solish maqsadida olib boradigan siyosati.

“Yashil” audit – vazirlik va idoralarga budjetdan “yashil maqsadlar” uchun ajratilgan mablag'lardan manzilli foydalanilishini baholash tizimi.

Natijaga yo'naltirilgan budjet – moliyalashtirish tuzilmasi va hajmlarining budjet mablag'lari oluvchilarning faoliyati natijalari bilan bog'liq bo'lgan budjetni rejalashtirish tizimi

Gender tenglikka yo'naltirilgan budjetlashtirish – fiskal siyosat va davlat moliyaviy boshqaruvi instrumentlaridan foydalangan holda, gender tenglikni ta'minlashga hamda jamiyatda xotin-qizlar manfaatlariga xizmat qiluvchi budjetlashtirish jarayoni.

“Yashil” budjetlashtirish – budjet xarajatlarini iqlim o'zgarishlariga qarshi choralarga yo'naltirishni nazarda tutuvchi budjet jarayoni.

“Yashil” iqtisodiyot – atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda barqaror rivojlanishni ta'minlovchi iqtisodiyot.

“Yashil” tasniflash – budjet xarajatlarining atrof muhitga ijobiy, salbiy yoki neytral jihatdan ta'sirini tasniflash jarayoni

PIMA (Public investment management assesment) – davlat investitsiya boshqaruvi samaradorligini baholash tizimi.

**Birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarga respublika budjetidan
ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari**

mlrd so'm

T/r	Birinchi darajali budjet mablag'lari taqsimlovchilari nomi	2027-yil uchun prognoz					2028-yil uchun mo'ljal					2029-yil uchun mo'ljal				
		JAMI	shundan				JAMI	shundan				JAMI	shundan			
			budjet mablag'lari	shundan, kapital qo'yilmalar	Davlat dasturlarini amalg'a oshirish uchun jalb qilinadigan tashqi qarz mablag'lari	budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari		budjet mablag'lari	shundan, kapital qo'yilmalar	Davlat dasturlarini amalg'a oshirish uchun jalb qilinadigan tashqi qarz mablag'lari	budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari		budjet mablag'lari	shundan, kapital qo'yilmalar	Davlat dasturlarini amalg'a oshirish uchun jalb qilinadigan tashqi qarz mablag'lari	budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari
	Jami	415 661,5	348 246,8	12 007,0	38 123,4	29 291,3	479 290,5	403 368,7	12 568,7	43 232,7	32 689,1	557 412,8	470 425,0	12 856,6	48 578,1	38 409,7
1	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi	69 552,7	67 438,7	500,0	639,6	1 474,4	81 223,2	78 784,0	530,0	793,8	1 645,4	95 782,8	92 602,1	563,0	1 247,3	1 933,4
2	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi	16 298,3	8 110,0	100,9	161,6	8 026,6	17 998,7	9 041,0	134,4		8 957,7	20 633,9	10 108,6	171,2		10 525,3
3	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi	18 670,0	13 409,4	413,6	2 257,5	3 003,1	20 867,1	15 553,9	413,6	1 961,8	3 351,4	23 669,4	18 118,3	413,6	1 613,3	3 937,9
4	O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi	3 591,2	3 320,9	80,7		270,3	4 088,2	3 786,5	84,3		301,7	4 683,9	4 329,4	88,2		354,5
5	O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi	2 355,9	2 153,1	150,0		202,8	2 621,1	2 394,8	152,0		226,3	2 936,6	2 670,7	154,2		265,9
6	O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi	4 389,6	2 145,4	1 900,0	2 121,1	123,0	3 907,0	2 264,6	1 940,0	1 505,1	137,3	3 734,4	2 338,2	1 984,0	1 234,8	161,4
7	O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi	6 426,1	4 506,4		953,3	966,5	6 680,7	5 157,8		444,3	1 078,6	7 267,0	5 897,6		102,0	1 267,3
8	O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi	13 251,4	10 437,8	1 520,0	2 586,7	226,9	15 797,0	11 927,6	1 880,0	3 616,2	253,2	17 036,2	13 678,7	1 946,0	3 060,0	297,5
9	O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi	523,1	410,3			112,9	637,2	511,2			125,9	800,2	652,3			148,0
10	O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi	15 570,5	8 282,4	200,0	6 236,1	1 052,0	17 370,0	8 509,9	210,0	7 686,0	1 174,1	21 311,5	8 801,2	221,0	11 130,8	1 379,5
11	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi	1 267,2	409,3	64,4	538,7	319,2	1 300,5	438,7	64,4	505,6	356,2	1 169,4	471,0	64,4	279,9	418,6
12	O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi	182,5	98,8			83,7	210,2	116,8			93,4	250,4	140,6			109,8
13	O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi	1 380,6	896,9			483,7	1 495,6	955,7			539,8	1 699,7	1 065,4			634,3
14	O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi	82,5	14,5			68,0	91,8	15,8			75,9	106,6	17,4			89,2
15	O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	183,3	13,9			169,4	204,1	15,0			189,0	238,4	16,3			222,1
16	O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi	775,4	621,0		86,1	68,4	705,7	629,4			76,3	728,3	638,6			89,7
17	O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi	350,1	350,1	11,0			353,3	353,3	11,0			356,7	356,7	11,0		
18	O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi	1 562,5	1 266,9	104,2		295,5	1 615,9	1 286,1	104,2		329,8	1 694,6	1 307,1	104,2		387,5
19	O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi	2 045,8	1 703,3			342,5	2 232,6	1 850,4			382,2	2 464,9	2 015,8			449,1
20	O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi	1 225,7	452,5	14,0		773,3	1 384,2	521,2	14,0		863,0	1 616,4	602,4	14,0		1 014,0
21	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi	1 075,6	366,5	22,0		709,1	1 169,7	378,3	22,0		791,4	1 321,2	391,3	22,0		929,8
22	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi	103 101,4	97 503,1	4 093,1	4 927,3	671,1	110 324,4	108 154,3	4 164,7	1 421,3	748,9	121 932,8	120 160,3	4 243,5	892,5	880,0
23	O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi	548,9	228,8			320,0	604,5	247,4			357,1	687,3	267,7			419,6
24	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi	3 050,4	2 971,8			78,6	3 515,0	3 427,3			87,7	4 091,3	3 988,2			103,1
25	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi	5 208,8	3 550,2			1 658,6	5 620,2	3 769,2			1 851,0	6 212,0	4 037,1			2 174,9
26	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati	135,3	135,3				146,2	146,2				158,0	158,0			
27	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi	239,6	239,6				255,1	255,1				272,1	272,1			
28	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)	26,1	26,1				28,3	28,3				30,8	30,8			
29	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi	4 769,2	3 336,6	165,5		1 432,6	5 250,1	3 651,3	171,1		1 598,8	5 875,8	3 997,2	177,1		1 878,6
30	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi	2 316,7	2 200,6	35,9		116,1	2 537,4	2 407,8	37,1		129,6	2 787,9	2 635,6	38,4		152,2
31	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi	23,7	23,7				25,6	25,6				27,8	27,8			
32	O'zbekiston Respublikasi Sudyalari Oliy kengashi	72,8	66,8			6,0	79,8	73,1			6,7	87,9	80,0			7,9
33	O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi	34,1	34,1				37,2	37,2				40,7	40,7			

T/r	Birinchi darajali budget mablag'lari taqsimlovchilari nomi	2027-yil uchun prognoz					2028-yil uchun mo'ljal					2029-yil uchun mo'ljal				
		JAMI	shundan				JAMI	shundan				JAMI	shundan			
			budjet mablag'lari	shundan, kapital qo'yilmalar	Davlat dasturlarini amalga oshirish uchun jalb qilinadigan tashqi qarz mablag'lari	budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari		budjet mablag'lari	shundan, kapital qo'yilmalar	Davlat dasturlarini amalga oshirish uchun jalb qilinadigan tashqi qarz mablag'lari	budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari		budjet mablag'lari	shundan, kapital qo'yilmalar	Davlat dasturlarini amalga oshirish uchun jalb qilinadigan tashqi qarz mablag'lari	budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari
	Jami	415 661,5	348 246,8	12 007,0	38 123,4	29 291,3	479 290,5	403 368,7	12 568,7	43 232,7	32 689,1	557 412,8	470 425,0	12 856,6	48 578,1	38 409,7
34	O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi	1 062,1	925,5	76,0		136,6	1 135,7	983,3	76,0		152,4	1 225,9	1 046,9	76,0		179,1
35	O'zbekiston Milliy axborot agentligi	50,5	46,9			3,6	55,3	51,3			4,0	60,8	56,1			4,7
36	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi	83,5	80,1			3,4	86,8	83,0			3,8	90,6	86,2			4,4
37	Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi	22,8	18,8			4,0	24,9	20,5			4,5	27,5	22,3			5,3
38	O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi	400,0	400,0				400,0	400,0				400,0	400,0			
39	O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi	875,7	695,3	46,1		180,4	947,5	746,1	47,1		201,3	1 040,8	804,2	48,2		236,6
40	O'zbekiston Badiiy akademiyasi	288,5	261,2	56,0		27,3	307,4	276,9	56,0		30,5	330,1	294,3	56,0		35,8
41	O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi	47,9	47,9				51,9	51,9				56,3	56,3			
42	O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi	218,3	187,8			30,5	238,8	204,8			34,0	263,4	223,4			40,0
43	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi	150,2	147,1			3,1	163,2	159,8			3,4	177,7	173,6			4,0
44	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi	49,1	28,5			20,6	53,6	30,6			22,9	59,9	33,0			27,0
45	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani)	15,7	15,7				16,1	16,1				16,5	16,5			
46	"Sog'lom avlod uchun" hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi	1,0	1,0				1,1	1,1				1,2	1,2			
47	Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi	12,3	12,3				13,1	13,1				14,1	14,1			
48	O'zbekiston Respublikasi Milliy antidoping agentligi	10,3	9,2			1,1	11,0	9,8			1,2	11,9	10,5			1,4
49	O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi	251,9	179,8			72,1	276,3	195,8			80,5	308,0	213,4			94,6
50	O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi	1 952,9	260,3	55,1		1 692,6	2 167,6	278,6	55,1		1 889,0	2 517,9	298,3	55,1		2 219,6
51	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi	24 905,7	23 886,3	100,0	307,5	711,9	29 297,0	28 061,5	100,0	441,0	794,5	34 323,3	33 026,7	100,0	363,1	933,5
52	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi	1 552,2	1 552,2				1 595,7	1 595,7				1 674,4	1 674,4			
53	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi	478,1	473,6			4,5	572,7	567,7			5,0	688,0	682,1			5,9
54	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi	262,6	168,9			93,6	278,2	173,7			104,5	301,8	179,0			122,8
55	O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi	62,0	62,0				64,2	64,2				66,6	66,6			
56	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi	90,2	55,6			34,7	99,0	60,3			38,7	110,9	65,5			45,4
57	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligi	223,2	71,2			152,0	252,0	82,3			169,6	294,7	95,4			199,3
58	O'zbekiston Respublikasi Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi	15,9	3,1			12,8	17,7	3,4			14,3	20,5	3,7			16,8
59	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi	417,1	30,7			386,3	464,6	33,5			431,2	543,1	36,5			506,6
60	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi	22,0	10,8			11,3	24,3	11,7			12,6	27,6	12,8			14,8
61	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi	101,8	50,6			51,1	107,7	50,7			57,0	117,7	50,7			67,0
62	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi	63,9	10,7			53,2	71,0	11,7			59,3	82,4	12,7			69,7
63	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Energiya samaradorligi milliy agentligi	710,1	710,1				739,4	739,4				765,7	765,7			
64	O'zbekiston Respublikasi Telekommunikatsiyalarni tartibga solish agentligi	7,7	7,7				8,5	8,5				9,4	9,4			
65	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi	148,7	148,7				166,3	166,3				186,1	186,1			
66	O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi	17,4	17,4				18,9	18,9				20,6	20,6			

T/r	Birinchi darajali budget mablag'lari taqsimlovchilari nomi	2027-yil uchun prognoz					2028-yil uchun mo'ljal					2029-yil uchun mo'ljal				
		JAMI	shundan				JAMI	shundan				JAMI	shundan			
			budget mablag'lari	shundan, kapital qo'yilmalar	Davlat dasturlarini amalga oshirish uchun jalb qilinadigan tashqi qarz mablag'lari	budgetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari		budget mablag'lari	shundan, kapital qo'yilmalar	Davlat dasturlarini amalga oshirish uchun jalb qilinadigan tashqi qarz mablag'lari	budgetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari					
	Jami	415 661,5	348 246,8	12 007,0	38 123,4	29 291,3	479 290,5	403 368,7	12 568,7	43 232,7	32 689,1	557 412,8	470 425,0	12 856,6	48 578,1	38 409,7
67	O'zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi	434,9	360,4	200,0		74,5	451,0	367,8	200,0		83,2	473,6	375,9	200,0		97,7
68	Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi	102,4	102,4				109,5	109,5				117,2	117,2			
69	Boshqa tashkilotlar	100 266,2	80 482,5	2 098,6	17 307,8	2 475,9	128 625,1	101 004,3	2 101,8	24 857,7	2 763,1	159 279,7	127 378,6	2 105,4	28 654,5	3 246,7

Izoh:
O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti parametrlarini shakllantirishda aniqlik kiritiladi.
Mahalliy budgetlarga transfertlarsiz

Davlat maqsadli jamg'armalariga ajratiladigan transfertlarning cheklangan miqdorlari

mlrd so'm

Davlat maqsadli jamg'armalar nomi		2027-yil uchun prognoz			2028-yil uchun mo'ljal			2029-yil uchun mo'ljal		
		Daromad	Transfert	Xarajat	Daromad	Transfert	Xarajat	Daromad	Transfert	Xarajat
	JAMI — Davlat maqsadli jamg'armalari	100 282,1	84 501,2	182 722,2	109 712,8	92 986,4	199 322,4	124 345,1	100 478,3	220 162,3
1	“El-yurt umidi” jamg'armasi		891,1	879,0		1 050,0	1 057,4		1 120,0	1 125,9
2	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo'yicha respublika maqsadli jamg'armasi		900,0	900,0		1 000,0	1 000,0		1 000,0	1 000,0
3	Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi	73 810,2	23 000,0	95 736,1	83 273,5	25 000,0	106 946,2	96 135,4	27 000,0	120 059,4
4	Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi	226,6	150,0	365,9	257,6	170,0	402,5	289,1	195,0	461,8
5	Migratsiya jamg'armasi	128,0	50,0	207,0	138,0	50,0	207,0	149,0	50,0	207,0
6	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi	2 387,4		2 450,7	2 704,8		2 663,6	3 066,1		3 107,2
7	Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	510,0		512,2	555,0		553,1	600,0		602,4
8	Davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha kafolat jamg'armasi	1 203,7		1 458,7	1 916,5		1 513,7	2 026,0		2 189,9
9	Budjetdan tashqari Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg'armasi	13 225,0		13 225,0	11 225,0		11 225,0	11 525,0		11 525,0
10	Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi	7,0	38 076,3	38 077,3	8,0	41 883,9	41 884,9	9,0	46 072,3	46 073,3
11	Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi	713,5	2 000,0	960,4	830,0	2 200,0	1 100,0	950,0	2 200,0	1 250,0
12	Avtomobil yo'llarini rivojlantirish maqsadli jamg'armasi	7,1	7 532,0	7 532,0		8 505,2	8 505,2		9 125,7	9 125,7
13	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi		1 200,0	1 200,0		1 400,0	1 400,0		1 400,0	1 400,0
14	Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	77,1	960,0	1 038,7	84,8	1 000,0	1 084,8	93,2	1 050,0	1 143,2
15	Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi	1 937,5		2 171,7	2 012,0		2 337,4	2 081,4		2 237,6
16	Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi	50,0	250,0	301,4	50,0	250,0	300,0	50,0	250,0	300,9
17	Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasi	231,5	250,0	435,9	263,0	275,0	473,2	295,0	275,0	511,0
18	Agrosanoatni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi	7,5	150,0	184,2	8,0	150,0	168,2	9,0	150,0	159,0
19	Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi	163,3		77,8	174,2		89,6	192,0		101,5
20	Farmatsevtika tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg'armasi	280,3		308,4	308,3		336,9	339,1		327,3
21	Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi	2 168,2	2 500,0	4 852,4	2 459,7	2 870,0	5 329,7	2 766,0	3 100,0	5 866,0
22	Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	79,3	50,0	236,8	68,7	50,0	236,1	56,5	50,0	234,8
23	Umummilliy ekologik muammolarni bartaraf etish davlat maqsadli jamg'armasi	3 068,8		3 068,8	3 375,6		3 375,6	3 713,2		3 713,2
24	Noinfekcion kasalliklarga qarshi kurashish jamg'armasi		6 541,8	6 541,8		7 132,3	7 132,3		7 440,2	7 440,2

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarini shakllantirishda aniqlik kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi respublika budjeti va mahalliy budjetlar o'rtasidagi transfertlarning cheklangan miqdorlari

mlrd so'm

Hududlar nomi		2027-yil uchun prognoz				2028-yil uchun mo'ljal				2029-yil uchun mo'ljal			
		Daromad	Xarajat	Respublika budjetidan mahalliy budjetlarga transfert	shundan, aksiz solig'i bo'yicha tushumlar hisobidan ajratiladigan mablag'lar	Daromad	Xarajat	Respublika budjetidan mahalliy budjetlarga transfert	shundan, aksiz solig'i bo'yicha tushumlar hisobidan ajratiladigan mablag'lar	Daromad	Xarajat	Respublika budjetidan mahalliy budjetlarga transfert	shundan, aksiz solig'i bo'yicha tushumlar hisobidan ajratiladigan mablag'lar
Jami		85 426,5	107 473,9	22 047,4	3 905,5	92 625,0	117 953,0	25 327,9	4 219,8	100 171,0	127 528,8	27 357,8	4 625,2
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 236,5	7 009,1	2 772,6	209,7	4 575,0	7 667,3	3 092,3	226,6	4 941,0	8 348,2	3 407,2	248,4
2	Andijon viloyati	5 840,4	8 842,4	3 001,9	359,7	6 308,0	9 744,1	3 436,1	388,7	6 813,0	10 488,6	3 675,6	426,0
3	Buxoro viloyati	6 120,5	6 832,2	711,8	215,2	6 610,0	7 491,0	881,0	232,5	7 139,0	8 068,0	929,0	254,9
4	Jizzax viloyati	3 451,6	4 752,4	1 300,9	160,0	3 728,0	5 216,8	1 488,8	172,9	4 026,0	5 629,7	1 603,7	189,5
5	Qashqadaryo viloyati	6 814,5	8 418,4	1 603,9	379,7	7 360,0	9 301,3	1 941,3	410,2	7 949,0	10 004,9	2 055,9	449,6
6	Navoiy viloyati	4 606,0	4 719,5	113,6	113,6	5 049,7	5 172,5	122,7	122,7	5 455,9	5 590,4	134,5	134,5
7	Namangan viloyati	5 155,1	8 008,0	2 852,9	325,9	5 567,0	8 798,9	3 231,9	352,1	6 012,0	9 503,4	3 491,4	386,0
8	Samarqand viloyati	8 311,2	10 157,4	1 846,2	447,3	8 976,0	11 181,9	2 205,9	483,4	9 694,0	12 086,2	2 392,2	529,8
9	Surxondaryo viloyati	4 449,1	6 965,5	2 516,4	307,5	4 805,0	7 657,0	2 852,0	332,3	5 189,0	8 253,0	3 064,0	364,2
10	Sirdaryo viloyati	2 653,3	3 385,5	732,3	96,7	2 866,0	3 697,1	831,1	104,4	3 095,0	3 990,2	895,2	114,5
11	Toshkent viloyati	8 218,5	8 541,4	322,8	322,8	8 961,3	9 310,1	348,8	348,8	9 678,7	10 061,0	382,3	382,3
12	Farg'ona viloyati	7 945,2	10 417,2	2 472,0	431,3	8 581,0	11 437,7	2 856,7	466,0	9 267,0	12 391,1	3 124,1	510,8
13	Xorazm viloyati	4 412,4	5 888,0	1 475,5	211,3	4 765,0	6 453,7	1 688,7	228,4	5 146,0	6 964,3	1 818,3	250,3
14	Toshkent shahri	13 212,3	13 536,9	324,6	324,6	14 473,0	14 823,7	350,7	350,7	15 765,4	16 149,8	384,4	384,4

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarini shakllantirishda aniqlik kiritiladi.

Respublika budjeti xarajatlarining vazifa tasnifi bo'yicha tahlili

mlrd so'm

Xarajat yo'nalishi		Ijro		Parametr	Prognoz	Mo'ljal	
		2024	2025	2026	2027	2028	2029
	Xarajatlar, jami	224 115,8	274 722,9	308 721,4	348 246,8	403 368,7	470 425,0
	<i>shundan, markazlashgan investitsiya</i>	<i>14 073,2</i>	<i>19 446,9</i>	<i>13 890,0</i>	<i>12 007,0</i>	<i>12 568,7</i>	<i>12 856,6</i>
1	Ijtimoiy soha	116 112,3	133 038,3	147 729,5	173 350,7	187 738,9	201 819,3
	Ta'lim	59 575,4	70 478,0	77 296,6	89 515,4	96 945,2	104 216,0
	Sog'liqni saqlash	6 692,4	8 792,0	10 855,8	17 777,7	19 253,2	20 697,2
	Madaniyat	1 946,7	3 421,4	3 032,8	3 362,5	3 641,6	3 914,7
	Sport	1 571,9	1 861,6	1 167,8	2 038,9	2 208,1	2 373,7
	Fan	1 989,5	2 023,8	2 333,5	2 983,5	3 231,1	3 473,4
	Nafaqalar, moddiy yordam va aholiga boshqa imtiyozli to'lovlar	15 317,6	14 444,1	17 005,9	18 480,3	21 343,9	24 338,0
	Aholi uchun past narxda yetkazilgan energo resurslar va jamoat transportida aholini tashish xarajatlarining bir qismini qoplash	9 545,7	7 816,6	8 632,5	6 904,9	5 904,9	3 195,9
	Aholi bandligi va farovonligini oshirish xarajatlari	1 254,0	1 109,0	2 223,8	3 441,6	3 613,7	3 794,4
	Pensiya jamg'armasiga transfertlar	16 270,6	20 246,0	23 000,0	23 000,0	25 000,0	27 000,0
	Ipoteka krediti bo'yicha subsidiyalar	1 409,9	2 118,1	2 701,5	3 026,1	3 114,7	3 208,2
2	Iqtisodiyot xarajatlari	26 153,7	32 413,6	40 136,0	44 919,4	50 309,8	56 850,0
3	Davlat boshqaruvi va hokimiyati organlari	10 299,1	11 376,6	11 227,8	12 800,0	13 542,4	14 382,1
4	O'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash hamda NNTni qo'llab-qo'vvatlash	1 203,4	1 420,4	1 441,6	1 654,3	1 819,8	2 001,7
5	Vazirlar Mahkamasi zaxira jamg'armasi	1 145,2	2 052,6	1 200,0	1 400,0	1 500,0	1 750,0
6	Yer uchastkalarining olib qo'yilishi bilan bog'liq aholi zararlarini qoplash	600,0	723,8	800,0	900,0	1 000,0	1 200,0
7	Davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha foiz to'lovlari	14 244,4	17 599,7	24 029,1	28 745,9	36 421,0	42 831,3
8	Boshqa xarajatlar	54 357,8	76 097,8	82 157,5	84 476,5	111 036,9	149 590,6

Davlat budjeti xarajatlarning atrof-muhitga ta'sirini inobatga olgan holda BRMM vazifalarida asosiy va qo'shimcha hissalarining o'zaro bog'liqligi to'g'risida ma'lumot

mlrd so'm

T/r	Barqaror rivojlanish milliy maqsadlar	2026-yil kutilayotgan ijro						2027-yil prognoz						2028-yil mo'ljal						2029-yil mo'ljal					
		Jami	Jamiga nisbatan ulushi foizda	shundan				Jami	Jamiga nisbatan ulushi foizda	shundan				Jami	Jamiga nisbatan ulushi foizda	shundan				Jami	Jamiga nisbatan ulushi foizda	shundan			
				Asosiy hissa	Birinchi qo'shimch a hissa	Ikkinchi qo'shimch a hissa	Uchinchi qo'shimch a hissa			Asosiy hissa	Birinchi qo'shimch a hissa	Ikkinchi qo'shimch a hissa	Uchinchi qo'shimch a hissa			Asosiy hissa	Birinchi qo'shimch a hissa	Ikkinchi qo'shimch a hissa	Uchinchi qo'shimch a hissa						
		457 292	100,0	285 891	90 585	51 412	29 405	454 096	100,0	283 482	92 575	49 542	28 497	519 534	100,0	323 225	106 370	56 925	33 014	595 987	100,0	371 601	121 352	64 942	38 093
1	Barcha joylarda aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish	31 080	6,8	15 934	2 559	9 427	3 160	30 524	6,7	15 352	2 224	10 131	2 817	35 343	6,8	17 640	2 556	11 640	3 507	40 750	6,8	20 124	2 916	13 280	4 430
2	Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish	14 151	3,1	6 795	2 816	2 896	1 643	10 250	2,3	4 032	2 277	2 380	1 560	11 777	2,3	4 633	2 616	2 735	1 793	13 436	2,3	5 286	2 985	3 120	2 046
3	Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga ko'maklashish	77 519	17,0	70 209	4 288	1 600	1 422	77 236	17,0	70 503	3 867	1 546	1 320	88 745	17,1	81 009	4 443	1 776	1 517	101 244	17,0	92 418	5 069	2 026	1 730
4	Umumqamrovli va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash hamda barchaga butun umri davomida ta'lim olish imkoniyatini rag'batlantirish	109 898	24,0	75 690	27 123	5 684	1 401	111 344	24,5	76 762	27 494	5 760	1 328	125 437	24,1	85 701	31 592	6 618	1 526	145 955	24,5	100 623	36 041	7 550	1 741
5	Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish	1 610	0,4	556	626	357	71	1 169	0,3	462	566	79	62	1 343	0,3	531	650	91	71	1 532	0,3	605	742	103	81
